



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

TA'LIM TRANSFORMATSIYASI

ILMIY – METODIK JURNAL

№. 3

BUXORO – 2025

Bosh muharrir:
Ma'murov Bahodir Baxshullayevich
Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, p.f.d. (DSc), professor

Tahrir hay'ati raisi:
Qahhorov Siddiq Qahhorovich
pedagogika fanlari doktori, professor.

Muqimov	– O'zRFA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor
K.M.	
Xamidov	– iqtisod fanlari doktori (DSc), professor
O.X.	
Murodov	– fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sh.N.	
Ikramov	– pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.A.	
Raximov	– fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Sh.A.	
Muxtorov	– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent
E.M.	
Niyozov	– texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.
A.K.	
Sharipov	– falsafa fanlari doktori (DSc), professor
A.Z.	
Qahhorov	– iqtisod fanlari doktori (DSc), professor
O.S.	
Barotov	– psixologiya fanlari doktori, professor
Sh.R.	
Olimov	– pedagogika fanlari doktori, professor
Sh.Sh.	
Rasulov T.H.	– fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
O'rayeva	– filologiya fanlari doktori, professor
D.S.	
Amonov	– texnika fanlari doktori, professor
M.R.	
Bo'riyev	– biologiya fanlari doktori, professor
S.B.	
Ma'murov	– pedagogika fanlari doktori, professor
B.B.	
Abdullayev	– pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.J.	
Jo'rayev	– pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
A.R.	
Saidova	– pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
M.J.	
Nazarov	– fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
M.R.	
Izbullayeva	– pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent Tadjixodjayev Z.A. texnika fanlari
G.V.	doktori, professor
Tosheva	– filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent
D.A.	
Byulent	– filologiya fanlari doktori, professor (Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro
Bayram	Turk-Qozoq universitet)
Timur	– filologiya fanlari doktori, professor (AQSH Michigan davlat universiteti)
Kojaog'lu	
Irina	– filologiya fanlari doktori, professor (Taras Shevchenko nomidagi Kiyev milliy
Pokrovskaya	universiteti)
Murat	– filologiya fanlari doktori, professor (Istanbul universiteti)

Elmali

Mehmet
Y.Y.
Starikov
Marcelo

– filologiya fanlari doktori, professor (Istanbul universiteti)

– pedagogika fanlari doktori, professor (New York)

ILMIY – METODIK
JURNAL TAHRIR
HAY’ATI TARKIBI

Muassis: Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: Buxoro shahar Piridastgir ko‘chasi 2-uy.

Telefon: (+998 65) 226-10-97

Faks: (+998 65) 226-66-75

Elektron manzil: buxdpi@buxdpi.uz.

ISSN – 2181-4201

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA METODIKA

DIVERGENT TAFAKKUR TUSHUNCHASI: MOHIYATI VA MAZMUNI

Bekchanova Soliha Davlatnazarovna, Buxoro davlat tibbiyot instituti doktoranti
solihabekchanova0@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada divergent tafakkur tushunchasining mohiyati va mazmuniga nazariy-ilmiy hamda tarixiy tahlil asosida yondashilgan. Tafakkurning turlari ichida eng ijodiy va yangicha yechimlar topishga xizmat qiluvchi divergent tafakkurning ilmiy asoslari, uning psixologik va pedagogik mohiyati tadqiq etilgan. Maqolada ushbu tushunchaning shakllanish tarixi, birinchi ilmiy ta'riflari (J.Gilford, E.P.Torrans va boshqalar), shuningdek, uning bilim, qobiliyat va ijodkorlik bilan bog'liq jihatlari keng yoritilgan. Shuningdek, divergent tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari va sharoitlari, ta'lim tizimidagi ahamiyati ham tahlil qilingan. Xususan, tibbiy ta'limda divergent fikrlashni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy yondashuvlari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: divergent tafakkur, konvergent fikrlash, ijodiy tafakkur, Gilford nazariyasi, Torrans metodikasi, ta'limda innovatsiya, pedagogik tahlil, kognitiv faoliyat, ta'limda kreativlik, tibbiy ta'lim, fikrlash turlari, ta'limiy jarayon.

ПОНЯТИЕ ДИВЕРГЕНТНОГО МЫШЛЕНИЯ: СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ

*Бекчанова Солиха Давлатназаровна, Докторант Бухарского государственного
медицинского института*
solihabekchanova0@gmail.com

Аннотация. В данной статье сущность и содержание понятия дивергентного мышления рассматриваются на основе теоретико-научного и исторического анализа. Среди различных типов мышления особое внимание уделяется дивергентному мышлению как наиболее творческому и направленному на поиск нестандартных решений. Исследованы научные основы, психологическая и педагогическая природа данного феномена. В статье подробно освещается история формирования понятия, первые научные определения (Дж. Гилфорд, Э. П. Торранс и др.), а также его связь со знаниями, способностями и креативностью личности. Также проанализированы условия и возможности развития дивергентного мышления и его значение в системе образования. Особое внимание уделено современным подходам к поддержке дивергентного мышления в медицинском образовании.

Ключевые слова: дивергентное мышление, конвергентное мышление, творческое мышление, теория Гилфорда, методика Торранса, инновации в образовании, педагогический анализ, когнитивная деятельность, креативность в обучении, медицинское образование, виды мышления, образовательный процесс.

THE CONCEPT OF DIVERGENT THINKING: ESSENCE AND CONTENT

Bekchanova Soliha Davlatnazarovna, Doctoral student of the Bukhara State Medical Institute
solihabekchanova0@gmail.com

Abstract. This article examines the essence and content of the concept of divergent thinking based on theoretical, scientific, and historical analysis. Among the various types of thinking, special attention is given to divergent thinking as the most creative and aimed at generating non-standard solutions. The scientific foundations, as well as the psychological and pedagogical nature of this phenomenon, are explored. The article provides a detailed overview

of the historical development of the concept, its initial definitions (by J. Guilford, E. P. Torrance, and others), and its connection with knowledge, abilities, and personal creativity. The conditions and possibilities for developing divergent thinking, as well as its significance in the education system, are also analyzed. Particular attention is paid to modern approaches that support divergent thinking in medical education.

Keywords: divergent thinking, convergent thinking, creative thinking, Guilford's theory, Torrance's method, educational innovation, pedagogical analysis, cognitive activity, creativity in learning, medical education, types of thinking, educational process.

KIRISH. Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, talabalarda erkin fikrlash, muammolarga yangicha yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu borada divergent tafakkur – ya'ni muammoni hal qilishda bir nechta turli yo'llarni izlash va yangicha g'oyalarni ilgari surish qobiliyati – ta'lim mazmuni va metodikasining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Divergent tafakkur, odatda, kognitiv moslashuvchanlik, ijodiylik va noodatiy yondashuvlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, uni rivojlantirish bugungi kunda nafaqat umumiy pedagogika va psixologiya, balki kasbiy ta'lim, jumladan, tibbiy ta'lim tizimining ham e'tibor markaziga chiqmoqda.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi shundaki, global ta'lim va kasbiy tayyorgarlik jarayonlarida ijodiy va moslashuvchan fikrlovchi mutaxassislarini tayyorlash zarurati ortib bormoqda. Shunday sharoitda divergent tafakkurga ilmiy-nazariy asosda yondashish, uning rivojlanish omillarini aniqlash va ta'lim amaliyotiga integratsiya qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Divergent tafakkur tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi psixologiya hamda pedagogika fanlarining kesishgan nuqtasida yuzaga kelgan ilmiy izlanishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur tushuncha ilk bor XX asrning o'rtalarida amerikalik olim J. Guilford tomonidan izchil nazariy asosda o'rganilgan. U o'zining 1950 yilda AQSh Psixologlar Assotsiatsiyasidagi mashhur ma'ruzasida inson tafakkurining ijodiy jihatlarini, xususan, divergent va konvergent fikrlashning farqli xususiyatlarini ta'riflab bergan. Guilford fikricha, divergent tafakkur — bu muammoni yechishda yagona emas, balki ko'p sonli, noodatiy, ijodiy yechimlarni izlash jarayonidir [9].

Ushbu nazariy g'oya keyinchalik E.P.Torrance tomonidan kengaytirilib, empirik tadqiqotlar orqali rivojlantirildi. Torrance "Ijodkorlikni o'lchash testlari" (Torrance Tests of Creative Thinking – TTCT) orqali divergent tafakkurning asosiy komponentlari sifatida fikrlar oqimining tezligi (fluency), moslashuvchanligi (flexibility), originalligi (originality) va detallilik (elaboration) kabi mezonlarni taklif qildi [10].

Yevropa ilmiy maktablarida esa, divergent tafakkur psixologik moslashuvchanlik va ijtimoiy kompetensiyalar bilan bog'liq holda o'rganilgan. Masalan, De Bono (1970) lateral tafakkur kontsepsiyasi orqali oddiy mantiqiy yo'ldan chetlashish orqali yangi g'oyalarni yaratish mexanizmini asoslab berdi. Bunday yondashuvlar yaratgan asos, pedagogik metodikalarni ishlab chiqishda yangi qirralarni ochib berdi.

Rus pedagogika va psixologiyasi doirasida ham divergent tafakkurga oid qator tadqiqotlar mavjud. Masalan, V.V.Davidov va D.B. Elkoninlar faoliyatga asoslangan o'qitish konsepsiyasi orqali talabalarda ijodiy tafakkurni shakllantirish muammolariga e'tibor qaratgan. Shu bilan birga, N.B.Shumakova, T.V. Kudryavtsev, L.G.Peterson kabi olimlar o'quv faoliyatida muammo yechishga asoslangan strategiyalarni qo'llash orqali divergent fikrlashni rivojlantirish usullarini ishlab chiqqanlar.

Mahalliy (o'zbek) tadqiqotlarda bu tushuncha nisbatan yangi bo'lib, hozirgi kunda turli bosqichlarda o'rganilmoqda. Jumladan, O'zbekiston pedagogikasi doirasida ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlash, erkin qaror qabul qilish kabi tushunchalarga e'tibor kuchaymoqda. I. Axmedov, M. To'xtasinov, B. Sattorov kabi olimlar talabalarda ijodiy yondashuvni shakllantirish muammolarini turli fanlar kesimida tahlil qilganlar.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, divergent tafakkur konsepsiyasi ko'p yillik tarixga, mustahkam nazariy asosga va turli fanlararo tadqiqotlar tajribasiga ega. Uning mazmunan boy va metodologik jihatdan xilma-xil talqinlari zamonaviy ta'limda ijodiy salohiyatni rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

METOD VA METODOLOGIYA. Mazkur maqola tarixiy va nazariy-analitik yo'nalishda olib borilgan bo'lib, unda divergent tafakkur tushunchasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda uning zamonaviy ilmiy va amaliy talqinlari o'rganildi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida tarixiy, tizimli yondashuv va kontent-tahlil asosiy ilmiy usullar sifatida tanlandi.

Birinchidan, tarixiy metod yordamida divergent tafakkur haqidagi dastlabki g'oyalar (J. Guilford, E. Torrance), ularning ilmiy asoslari va rivojlanish evolyutsiyasi izchil tarzda o'rganildi. Bu metod divergent tafakkur tushunchasining shakllanish bosqichlarini aniqlashga xizmat qildi.

Ikkinchidan, nazariy-tahliliy yondashuv asosida turli manba va adabiyotlarda berilgan ta'riflar, qarashlar va konseptual yondashuvlar taqqoslab, umumlashtirildi. Bu jarayonda tafakkurning konvergent va divergent turlari o'rtasidagi farqlar, ularning psixologik va pedagogik asoslari tahlil qilindi.

Uchinchidan, tizimli yondashuv orqali divergent tafakkur tushunchasi mustaqil kognitiv jarayon sifatida emas, balki shaxsning ijodiy faoliyati, muammoni hal qilish strategiyasi va ta'limiy kontekst bilan uzviy bog'liq murakkab tizim sifatida qaraldi. Bu metodologik yondashuv uni o'rganishda ko'p faktorli tahlil imkonini berdi.

Shuningdek, maqolada kontent-tahlil metodi qo'llanilib, xorijiy va mahalliy mualliflarning asarlarida divergent tafakkurga berilgan yondashuvlar va tushuncha tarkibi o'rganildi. Ilmiy terminlarning mazmuniy ko'lamini aniqlash, mualliflar pozitsiyasini qiyosiy jihatdan baholashga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotda foydalanilgan metod va yondashuvlar orqali divergent tafakkur fenomenining nazariy asoslari, uning shakllanish manbalari, tarkibiy komponentlari va ta'limdagi ahamiyati har tomonlama tahlil qilindi. Bu esa, mavzuni chuqur ilmiy anglashga va keyingi tadqiqotlar uchun metodologik asos yaratishga imkon berdi.

TADDIQOT NATIJALARI. Olib borilgan tarixiy-nazariy tahlillar natijasida divergent tafakkur tushunchasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ilmiy asoslari aniqlashtirildi hamda quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

Divergent tafakkur tushunchasining tarixiy ildizlari aniqlab berildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bu tushuncha ilk bor J. Guilford tomonidan ilgari surilib, E.P. Torrance tomonidan empirik asosda rivojlantirilgan. Ular tomonidan ilgari surilgan mezonlar (fikrlar oqimi, moslashuvchanlik, original g'oya va detallashtirish) hozirgi kungacha asosiy yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Divergent tafakkur konvergent tafakkurdan tub farqlanishi aniqlashtirildi. Agar konvergent tafakkur bitta to'g'ri yechimga yo'naltirilgan bo'lsa, divergent tafakkur ko'plab muqobil va original yechimlarni izlashga yo'naltirilgan fikrlash shaklidir. Bu tafovut ularning kognitiv va pedagogik rolini aniq belgilash imkonini berdi.

Divergent tafakkurning tarkibiy komponentlari tizimli o'rganildi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, u quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topadi:

- Kognitiv komponent: g'oyalar oqimi va fikrlash moslashuvchanligi;
- Emotsional komponent: yangi g'oyalarga ochiqlik, hissiy barqarorlik;
- Ijtimoiy komponent: guruhda ishlash, kommunikativ moslashuvchanlik.

Ilmiy adabiyotlar tahlili orqali mazkur tushunchaning turli fanlardagi talqini va yondashuvlari o'rganildi. Jumladan, psixologiyada – ijodiy fikrlashning asosi, pedagogikada – erkin va mustaqil fikr yuritish vositasi sifatida talqin qilinayotganligi aniqlandi.

O'zbekiston pedagogikasida divergent tafakkurga oid izlanishlar yangi bosqichda rivojlanayotganligi aniqlanib, bu yo'nalishda mahalliy konsepsiyalar va metodik yondashuvlar yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ko'rsatib o'tildi. Shu bilan birga, bu sohada izlanishlar

uchun keng imkoniyatlar mavjudligi asoslab berildi.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati aniqlashtirildi. Natijalar, ayniqsa, ta'lim jarayonida ijodkorlikni shakllantirish, o'quvchilarning fikrlash erkinligini ta'minlash hamda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

MUHOKAMA. Divergent tafakkur – insonning muammoni bir vaqtning o'zida bir nechta yechimlari orqali ko'ra olish, yangicha va noan'anaviy yondashuvlar ishlab chiqish qobiliyatidir. Mazkur tushuncha birinchi marta 20-asr o'rtalarida amerikalik psixolog J.Guilford tomonidan muomalaga kiritilgan va faol o'rganila boshlangan. Ta'kidlash joizki, divergent tafakkur hozirgi kunda bir qator, jumladan psixologiya, ta'lim, tibbiyot, muhandislik kabi sohalarda tadqiq qilinib kelinmoqda.

1950 yilda Amerika Psixologlar Assotsiatsiyasi prezidentlik murojaatida Guilford o'sha paytdagi ta'lim paradigmalariga qarshi chiqdi va intellekt strukturasi modelini (SI) taqdim etdi. Mazkur modelda tafakkurning ikki turini – konvergent va divergent tafakkurni farqlab berdi. Guilford fikricha, intellekt yagona o'lchov ob'ekti emas, balki turli xil aqliy qobiliyatlarni, shu jumladan turli xil ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan murakkab tuzilma deb hisoblashni taklif qildi. Uningcha, divergent tafakkur – juda ko'p yangi g'oyalarni yaratish uchun javobgar bo'lgan aqliy operatsiya.

Guilfordning tadqiqotlari an'anaviy nuqtai nazardan intellektga o'tish uchun sezilarli siljish bo'lib, diqqatni odamlarga xos bo'lgan ijodiy salohiyatga qaratdi. Uning 1960-yillardagi tadqiqotlari divergent fikrlashning asosiy xususiyatlarini aniqlashga olib keldi: erkinlik (g'oyalar erkin oqimi), moslashuvchanlik, o'ziga xoslik va ishlab chiqish. Ushbu o'lchovlar ijodkorlikni baholash uchun asos bo'ldi va keyingi ta'lim hamda psixologik tadqiqotlarni shakllantirishda muhim rol o'ynadi.

Divergent tafakkur, uning ta'rificha, ijodiy muammo yechish jarayonida zarur bo'lgan tafakkur turi hisoblanadi. Guilford tadqiqotlarining davomchisi E.Pol Torranc bo'lib, u ko'pincha "ijodiy tadqiqotlarning otasi" deb hisoblanadi. Torranc Ijodiy fikrlash testlarini - Tests of Creative Thinking (TTCT) ishlab chiqdi. Bunday test bolalar va kattalardagi turlicha fikrlash qobiliyatlarini o'lchashni amalga oshiradi. Uning ishi Guilford nazariyalarini empirik qo'llab-quvvatladi va ta'lim sharoitida ijodkorlikni rivojlantirish muhimligini ko'rsatdi. Shuningdek, bunday testlarni ta'lim muassasalarida keng qo'llashni taklif etgan.

Yagona to'g'ri yechimni topishga qaratilgan konvergent tafakkurdan farqli o'laroq, divergent fikrlash bitta muammoning juda ko'p original va xilma xil yechimlarini yaratish bilan tavsiflanadi.

Gilford divergent fikrlashning quyidagi asosiy xususiyatlarini aniqladi:

Moslashuvchanlik yoki fikrlashda yondashuvlar xilma xilligi– muammoni hal qilish strategiyasini o'zgartirib, bir g'oyadan ikkinchisiga o'tish qobiliyati (bir masalani turlicha ko'rib chiqish, yangi vaziyatga mos yechim topa olish qobiliyati);

Originallik – nostandart, noodatiy, oldindan aytib bo'lmaydigan g'oyalarni yaratish (biror muammoga boshqalardan farqli va kreativ yondashish qobiliyati);

Tezkorlik yoki ko'p fikr bildirish qobiliyati – ko'p variantlarni yaratish qulayligi va tezligi;

Elaboration (tafsilotlash) – g'oyalarni batafsil bayon qilish va ularni aniq loyihalarga kengaytirish qobiliyati.

Divergent tafakkurni o'rganishning tarixiy jihatlari mavjud. Ta'kidlash joizki, divergent tafakkur bilan bog'liq tadqiqotlar 1950 yillarga borib taqaladi. Bu davrni quyidagicha aks ettirish joiz:

1950 yillar: Guilford intellekt tarkibiy tuzilishining modelini yaratdi. Mazkur modelda u birinchi marta divergent tafakkurni alohida kategoriya sifatida talqin etdi.

1960-70 yillar: Bu davrda psixologiya va pedagogikada kreativlikni o'rganish faol rivojlandi. Divergent tafakkur ijodiy jarayonning asosiy tarkibiy qismi sifatida talqin etildi.

1980-90 yillar: Divergent tafakkurning nafaqat san'atda, balki fan, texnologiya, tibbiyot va boshqa sohalardagi ahamiyatini o'rganadigan tadqiqotlar vujudga keldi.

XXI asr: Divergent tafakkurning faol o'rganilishi bevosita jamiyatning globallashuvi va raqamlashuvi bilan bog'liq bo'lib, mutaxassislardan kasbiy muammolarni hal qilishda nostandart yondashuvlar talab qilindi.

Divergent tafakkurni o'rganishning o'ziga xos nazariy yondashuvlari mavjud. Divergent fikrlashning nazariy asoslarini tushunish, ayniqsa, tibbiy ta'lim kabi murakkab sohalarda ta'limning ushbu shaklini rivojlantirishga yordam beradigan samarali o'qitish amaliyotini ishlab chiqish uchun muhimdir.

Kognitiv yondashuv. Bunday yondashuv divergent tafakkurni axborotni qayta ishlash jarayoni sifatida ko'rib chiqadi. Asosiy e'tiborni tahlil, sintez, taqqoslash, tasniflashga qaratadi.

Gumanistik yondashuv. Bunday yondashuv doirasida divergent tafakkur insonning shaxsiy fazilatlarini – ijodkorligi, o'zini o'zi anglash, ichki erkinligi bilan bog'liq tarzda talqin etiladi.

Tizimli yondashuv. Bunday yondashuv divergent tafakkurni shaxsiy, ijtimoiy va ta'limiy omillar uyg'unligi asosida ko'rib chiqadi. Shuningdek, ijodkorlik va noan'anaviy tafakkurni rivojlantirishni rag'batlantiradigan pedagogik shart sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Psixometrik yondashuv. Bunday yondashuv maxsus diagnostika usullari asosida (jumladan, Torrance ijodkorlik testlari) asosida divergent tafakkurni miqdoriy o'lchashni o'z ichiga oladi.

Turli kasbiy sohalarda divergent tafakkurni rivojlantirish muammosi xorijlik olimlar tadqiqotlarida ko'p uchraydi. Mazkur muammo nafaqat umumiy va kasbiy ta'lim kontekstida, balki keng yo'nalishlarda ham ko'rib chiqiladi. Oxirgi o'n yilliklarda xorijlik olimlar tibbiyot, muhandislik, arxitektura, biznes, dizayn, shu bilan birga innovatsion va ijodiy kasblarda divergent tafakkurning kasbiy faoliyatga ta'sirini faol tadqiq qilib kelishmoqda.

Tibbiyotda divergent tafakkurni o'rganishda fanlararo yondashuvning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Rojer Niboun (Roger Kneebone) hisoblanadi. U o'zining ilmiy tadqiqotlarida jarrohlik amaliyotini "kasbiy faoliyat samarasi" shakli sifatida tahlil qiladi. Bunda u divergent tafakkurning asosiy xususiyatlari hisoblangan improvizatsiya qilish qobiliyati, moslashuvchan fikrlash, moslashishga alohida ahamiyat beradi. Rojer Niboun fikricha, ekstremal va nostandart klinik holatlarda shifokorlar to'g'ri qaror qabul qilish uchun tezkorlik bilan ko'p qirrali tafakkur qilishga muhtoj [1].

San'atga yo'naltirilgan tadqiqotlar kontseptsiyasi muallifi Patritsiya Livi (Patricia Leavy) sog'liqni saqlash va ijtimoiy yordam sohasida mutahassis kadrlar tayyorlashda ijodiy fikrlash, jumladan divergent tafakkur muhimligini ta'kidlaydi. U o'z tadqiqotida tashhis qo'yish va bemor bilan o'zaro munosabatlarga ijodiy va moslashuvchan yondashuvlar an'anaviy tibbiy tafakkur chegaralarini kengaytirishga imkoniyat berishini ilmiy asoslab bergan [2].

Biznes, menejment, tadbirkorlik sohasida divergent tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda Djerard Puchcho (Gerard Puccio)ning o'rni katta. U tashkiliy liderchilik va kreativlik sohasida mashhur mutaxassislardan biridir. Djerard Puchcho Creative Problem Solving (CPS), ya'ni ijodiy muammolarni hal qilish modelini ishlab chiqqan. Mazkur modelda g'oyalarni yaratish bosqichida divergent tafakkurning roliga juda katta e'tibor qaratgan [3]. Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda uning mazkur yondashuvi menejerlar, biznes tahlilchilarini tayyorlashda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Maykl Mamford (Michael Mumford) ham kasbiy ijodkorlikni o'rganishda munosib hissa qo'shgan olimlardan hisoblanadi. O'zining tadqiqotlarida u divergent tafakkurning innovatsion faoliyatda, xususan, noqulay vaziyatlarni keltirib chiqaradigan kasblarda muvaffaqiyatning asosiy kaliti sifatida tadqiq qiladi [4].

Muhandislik va texnika fanlarida sohasida divergent tafakkurni tadqiq qilgan olimlardan biri Djonatan Plaker (Jonathan Plucker) hisoblanadi. Muhandislikni loyihalashtirishda divergent tafakkur innovatsion yechimlarni topishda asos sifatida tadqiq qilinadi. Djonatan Plaker STEM (science, technology, engineering, mathematics) bo'yicha o'zining tadqiqotlarida murakkab muhandislik muammolari kontekstida juda ko'p nostandart yechimlarni ishlab chiqish qobiliyati asosiy kasbiy sifat ekanligini ta'kidlaydi [5]. Olimning yondashuvi sanoat

dizayni sohasidagi tadqiqotchilar tomonidan ham qo'llab quvvatlanadi. Chunki divergent tafakkur yangi mahsulot yaratishda, uning shakli va funktsiyalarini ishlab chiqishda muhimdir.

Arxitektura va dizayn sohasida ham divergent tafakkur o'z o'rniga ega. Naydijel Kross (Nigel Cross) dizayn nazariyasi bo'yicha taniqli mutaxassis hisoblanib, me'morlar va dizaynerlarning o'ziga xos fikrlash tarziga ishora qiluvchi, shuningdek divergent va konvergent fikrlashni o'zida mujassamlashtirgan "dizaynerni bilish usullari" ("designerly ways of knowing") tushunchasini muomalaga kiritdi. Olimning fikricha, turli xil loyiha yechimlarini topish, ijodiy shakllar yaratishda divergent tafakkur – arxitektor kasbiy xususiyatlarining tarkibiy qismi hisoblanadi [6].

Innovatsion va ijodiy kasblarda divergent tafakkurning rolini tadqiq qilgan xorijlik olimlardan yana biri Keyt Soyer (Keith Sawyer) hisoblanadi. Keyt Soyer (Keith Sawyer) [7] o'zining tadqiqotlarida guruh dahosi (group genius) fenomenini o'rganib, chuqur tahlil qilib, kasbiy faoliyatning eng katta samaradorligiga jamoaviy konvergent tahlil va individual divergent generativ tafakkur uyg'unligi bilan erishish mumkinligini isbotladi. Uning Group Genius asarida jamoa ichidagi muvaffaqiyatli hamkorlik va yangilik yaratish jarayonlarida muloqot, javob berish va bir vaqtda bir nechta g'oyalar ustida ishlash qobiliyati muhim ekanligi ko'rsatilgan. Olimning mazkur yondashuvi IT, ilm-fan, teatr san'ati va reklamada kollektiv faoliyat olib borishni o'rganishda keng tarqalgan edi

Edvard de Bono (Edward de Bono) divergent tafakkur bilan bevosita bog'liq bo'lgan lateral tafakkur kontsepsiyasi ning muallifi hisoblanadi [8]. U biznes, ta'lim va muhandislik sohasida muqobil tafakkurni rag'batlantirish usullarini ishlab chiqqan. Mazkur usullar uning "Tafakkurning olti shlyapasi" nomi bilan muvaffaqiyat qozondi.

Kognitiv va ta'lim psixologiyasi sohasida amerikalik olim Robert Sternberg (Robert Sternberg) ijodiy intellektini o'z ichiga olgan intellektning triarxik nazariyasi (donolik, intellekt, kreativlik) bilan mashhur olim hisoblanadi. Real muammolarni hal qilishda divergent tafakkurning rolini tadqiq qilgan.

Yana bir amerikalik olim Govar Gardner ko'p intellekt nazariyasini taklif qilgan. Intellektning turli tiplarida divergent tafakkurga undovchi ta'limiy strategiyalarni tashviqot qilgan.

Germaniyalik olim Arne Ditrix (Arne Dietrich) neyrologiya va ijodkorlik sohasida keng tadqiqot olib borgan olim hisoblanadi. U divergent tafakkurni o'z ichiga olgan ijodkorlikning neyrokognitiv asoslarini o'rganib chiqqan. Ijodiy tafakkurda prefrontal korteks va standart rejim tarmog'ining rolini aniqlagan.

Xorijlik olimlar tadqiqotlari asosida shunday xulosa qilish mumkinki, divergent tafakkur kasbiy faoliyatning asosiy tarkibiy qismi sifatida fanning turli sohalarida – jarrohlik va tibbiy diagnostikadan tortib, loyihalarni boshqarish, arxitektura, muhandislik, jamoaviy ijodiy hamkorlik masalalarida o'rganilgan.

R. Kneebone, G. Puccio, M. Mumford, N. Cross i E. de Bono kabi olimlarning hissasi shundaki, ular divergent tafakkurning fanlararo ahamiyatini va shuningdek, XXI asr mutaxassislarining innovatsionligi, moslashuvchanligi, samaradorligini ta'minlashdagi rolini isbotlab berdilar.

Ta'lim sohasidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, divergent fikrlashni qat'iy xususiyat sifatida ko'rib chiqishdan ko'ra, o'rgatish, rivojlantirish va baholash sifatida talqin qilish afzal. Tadqiqotlarga asoslangan ta'lim va hamkorlikdagi loyihalar talabalarga divergent tafakkurni rivojlantirishdagi ahamiyatini ko'rsatdi. Biroq, tibbiy ta'lim sohasida ushbu usullarning integratsiyasi cheklanganligicha qolmoqda, bu esa, mazkur mavzuda tadqiqotlar zarurligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, divergent tafakkur kontsepsiyasining rivoji uning nazariy konstruktsiyadan amaliyga transformatsiya bo'layotganligini ko'rsatadi. Mazkur evolyutsiya uning hozirgi zamon pedagogikasi uchun o'ta dolzarbligini, shuningdek innovatsion va moslashuvchan tajribani talab qiladigan tibbiyot kabi sohalariga qo'llanilishini talab qiladi.

XULOSA. Olib borilgan tarixiy-ilmiy tahlillar natijasida divergent tafakkur tushunchasi zamonaviy pedagogika va psixologiyaning dolzarb kategoriyalaridan biri sifatida shakllanib

borayotganligi aniqlandi. Divergent tafakkur inson tafakkurining ijodiy, erkin va original yoʻnalishini ifoda etuvchi murakkab kognitiv jarayon boʻlib, uning shakllanishi va rivojlanishi bir qator ilmiy maktablar, xususan, Gʻarbiy psixologiya (Guilford, Torrance) hamda rus psixologiyasi (Davydov, Shumakova va boshqalar) izlanishlari bilan bogʻliqdir.

Tadqiqot davomida quyidagi muhim ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

- Divergent tafakkur yagona emas, balki koʻp yoʻnalishli yechimlarni izlaydigan, muqobil fikrlashni talab qiladigan tafakkur shakli boʻlib, u konvergent tafakkurdan farqli jihatlari bilan ajralib turadi.

- Ushbu tafakkur turi oʻz tarkibida bir nechta komponentlarni — fikrlar oqimi (fluency), moslashuvchanlik (flexibility), originallik (originality) va detallilik (elaboration)ni mujassamlashtiradi va bu jihatlarni nazariy va amaliy jihatdan chuqur tadqiq etishga imkon beradi.

- Divergent tafakkurning shakllanishi va rivoji ijodiy faoliyat, muammoli vaziyatlar, erkin tanlov, shaxsiy motivatsiya kabi omillar bilan uzviy bogʻliq.

- Zamonaviy taʼlim tizimida, ayniqsa, tibbiy taʼlimda, bu turdagi tafakkurni rivojlantirish kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Shu sababli, ushbu tushunchani chuqur nazariy oʻrganish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

- 1.Kneebone R. Surgery: The ultimate performance science // BMJ. – 2016. – Vol. 353. – Article i3057
- 2.Leavy P. Method Meets Art: Arts-Based Research Practice. – New York: Guilford Press, 2009. – 286 p.
- 3.Puccio G.J., Mance M., Murdock M.C. Creative Leadership: Skills That Drive Change. – Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2010. – 312 p.
- 4.Mumford M.D., Medeiros K.E., Partlow P.J. Creative thinking: Processes, strategies, and knowledge // Journal of Creative Behavior. – 2012. – Vol. 46(1). – P. 30–47
- 5.The Cambridge Handbook of Creativity / Ed. by Kaufman J.C., Sternberg R.J. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – P. 48–73
- 6.Cross N. Design Thinking: Understanding How Designers Think and Work. – Oxford: Berg, 2011. – 192 p.
- 7.Sawyer R.K. Group Genius: The Creative Power of Collaboration. – New York: Basic Books, 2007. – 384 p
8. de Bono E. Lateral Thinking: Creativity Step by Step. – New York: Harper & Row, 1970. – 208 p.
- 9.Guilford J.P. Creativity // American Psychologist. – 1950. – Vol. 5. – P. 444–454.
- 10.Torrance E.P. Guiding creative talent. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1962.

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARNING IJTIMOIIY JIHATDAN SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI

Mamedova Maftuna Muxidinovna, Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
mamedovamaftuna@3gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalar ijtimoiylashivuning obektiv va subektiv omillarini aniqlash, hamda bolaning oila va maktab sharoitida ijtimoiylashuvi borasida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: aqliy faollik, psixik faollik, jismoniy faollik, kichik bog'cha yoshi, katta maktab yoshi, ehtiyojlar.

SOCIAL FORMATION FEATURES OF CHILDREN OF EARLY SCHOOL AGE

Maftuna Mukhidinovna Mamedova, lecturer at Bukhara State Pedagogical Institute
mamedovamaftuna@3gmail.com

Abstract: This article discusses the identification of objective and subjective factors of socialization of children of primary school age, as well as the socialization of a child in the family and school environment.

Key words: mental activity, psychic activity, physical activity, kindergarten age, senior school age, needs

ОСОБЕННОСТИ СОЦИАЛЬНОГО СТАНОВЛЕНИЯ ДЕТЕЙ МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Мамедова Мафтуна Мухидиновна, преподаватель Бухарского государственного педагогического института
mamedovamaftuna@3gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы выявления объективных и субъективных факторов социализации детей младшего школьного возраста, а также социализации ребенка в семейной и школьной среде.

Ключевые слова: умственная деятельность, психическая активность, физическая активность, дошкольный возраст, старший школьный возраст, потребности.

Kirish: Kichik maktab yoshi 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bu davr mubaynida bola kichik maktab davri ya'ni ochiqroq qilib aytadigan bo'lsak, boshlang'ich sinf davrini boshidan o'tkazayotgan bo'ladi. Bu davrda bolaning o'qishga, maktabga bo'lgan qiziqishini oshirish, unga muhabbat uyg'ota bilish lozim. Kichik maktab yoshidagi bolalarning eng muhim xususiyatlaridan biri bu uning o'z ehtiyojlariga ega ekanligidir. Bu ehtiyojlarga esa, bolaning o'z portfeli, o'quv qurollari, kitob javoni, dars stoli va shu kabi buyumlarining mavjudligi uning kattalar singari maktabga borishga qiziqishini, istagini oshiradi. Inson borki, u hayoti davomiga o'zini turli ehtiyojlarga moyilligini his etadi. Ushbu ehtiyojlarning mavjudligi ham bola shaxsining rivojlanayotganidan dalolat. Bizga ma'lumki, maktabga o'qish jarayoni 7 yoshdan etib belgilangan. Chunki, bu paytda bola miyasi yaxshigina rivojlangan, u atrofdagi signallarni, yangiliklarni, o'zgarishlarni yaxshi qabul qiladigan yoshda bo'ladi. Shu o'rinda bolani maktabga qabul qilish jarayoni haqida qisqa fikr bildiradigan bo'lsak, bu paytda bolaning aqliy, jismoniy va psixik jarayonlari tekshiriladi. Ulardan ijobiy natija olingandagina, bola maktabga qabul qilinadi. Lekin, ko'pchilik otaonalarining xohish-istaklari tufayli bola maktabga muddatidan oldin boradi. Buning ham o'ziga yarasha yaxshi va yomon tomonlari mavjud. To'g'ri, ilmga intilishni qanchalik oldin boshlasa, shunchalik yaxshi, albatta. Ammo, ba'zida bu yoshdagi bolalarning psixikasida ruhiy zo'riqish ham kuzatiladi. Buning natijasida bolada horg'inlikni, darslarga yaxshi qatnasha olmasligini va uyga vazifalariga ulgura olmasligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot muhokamasi: Kichik maktab Yoshidagi bolalar tez chalg'iydilar, uzoq vaqt diqqatlarini bir narsaga qarata olmaydilar, tasirchan hamda emotsional bo'ladilar. Maktabda o'qishning boshlanishi 7 yoshda bo'ladi, ikkinchi fiziologik inqiroz bilan mos keladi (bola

organizmda jadal boʻyning oʻsishi, ichki organlarning kattalashuvi, vegetativ oʻzgarishlar bilan bogʻliq boʻlgan keskin endokrin oʻzgarishlar roʻy beradi). Bolaning ijtimoiy munosabatlar tizimi va faoliyatidagi kardinal oʻzgarishlar uning organizmidagi barcha tizimlar va funksiyalaridagi oʻzgarishlarga toʻgʻri kelib, boladan kuchli zoʻriqish va oʻz ichki imkoniyatlaridan toʻliq foydalanish zaruriyatini taqozo etadi. Ushbu Yoshdagi oʻzgarishlar salbiy oqibatlarini olib kelmay, aksincha uning yangi sharoitlarga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. Oʻqituvchining munosabat uslubi oʻquvchining faolligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Kichik maktab Yoshidagi oʻquvchi faolligining asosan uch xil koʻrinishi mavjud boʻlib, bular: jismoniy, psixik va ijtimoiy faollikdir. Jismoniy faollik – sogʻlom organizmning harakat qilishga boʻlgan turli mavjud toʻsiqlarni engishdagi tabiiy ehtiyojdir. Bu Yoshdagi bolalar nihoyatda serharakat boʻladilar. Kichik maktab davrida oʻqish faoliyati bilan shugʻullanish, jumladan, moddiy narsalarning har xil xossalari bilan tanishish sezgilarning oʻsishiga katta taʼsir koʻrsatadi. Kichik maktab Yoshidagi oʻquvchilarda asosan farq qila olish, koʻrish va eshitish sezgilari ayniqsa tez oʻsadi. 7-10 Yoshli bolalarda ranglarning tuslarini sezish 45% ortishi, 10-12 Yoshgacha bolalarda esa 65% gacha ortishi rus olimlari tomonidan aniqlanilgan. Kichik maktab oʻquvchilarini rasm chizishga oʻrgatish ranglarni farqlash sezgirligining oʻsishiga katta taʼsir koʻrsatadi. Ohanglarni farq qilish sezgirligi, ayniqsa bolalarga musiqa va ashula oʻrgatish jarayonida kuchli suratda oʻsadi. Sezgilarning oʻsishida Shuningdek, jismoniy tarbiya mashgʻulotlarining ham ahamiyati katta. Aniq harakat qilishga jalb etuvchi mashqlar bolalarning muskul-harakat sezgilarini oʻstiradi. Kichik maktab davriga kelib idrokning hamma turlari asosan taʼlim- tarbiya tufayli mazmun, aniqlik, ravshanlik jihatdan koʻp darajada takomillashadi. Mazkur Yoshdagi bolalar oʻz idroklarining aniqligi, ravonligi, oʻtkirliги bilan boshqa Yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, oʻta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini oʻzlashtirish imkoniyatiga ega boʻladilar. Birinchi sinfga kelgan bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularni maqonda joylashishini bilish bilan, birga ularni taqqoslay oladi. Maktabda muvaffaqiyatli oʻqish uchun bola sensor rivojlanganlik darajasining yuqori boʻlishi juda muhim hisoblanadi. Maktab Yoshiga kelib, normal rivojlanayotgan bolalar rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadilar. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladilar. Bola rasmlarda atrof-hayotdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladi. Bu tasvirlar bolalarda estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki, bola shu rasmlar orqali olam goʻzalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va oʻz munosabatini bildira oladi. Talim-tarbiya jarayonida bolalarda ixtiyoriy idrok va kuzata olish qobiliyati oʻsadi. Kuzata bilish muvaffaqiyatli oʻqish uchun zarur shartlardan biridir. Oʻquvchilarda kuzata bilish qobiliyati ularning tafakkuri, irodasi, qiziqish, havaslari bilan birgalikda oʻsib boradi. Bu Yoshdagi oʻquvchilar oʻz idroklarini mustaqil idora eta oladilar. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari katta Yoshdagi odamlardan deyarli qolishmasdan toʻgʻri chiziqni koʻz bilan chamalab teng ikki boʻlakka boʻla oladilar, narsa va chiziqlarni katta-kichikligiga qarab taqqoslay oladilar, narsalarning fazoda turgan oʻrnini, ularning qaysi biri yaqinroq yoki uzoqroq, qaysi biri balandroq yoki pastroq joylashganini koʻz bilan chamalab, shu masofani bosib oʻtish uchun talab qilinadigan vaqtni ham taxminan hisoblay oladilar. Kichik maktab yoshidagi bola shaxsining ijtimoiy faolligini rivojlantirish maktab taʼlimini modernizatsiya qilishning strategik yoʻnalishlaridan biridir. Kichik maktab yoshi 7 yoshdan 11 yoshgacha davom etadi. Bola rivojlanishining ijtimoiy holati jiddiy oʻzgarishga uchraydigan bosqichi. Bu davrda u maktabga yaʼni taʼlim dargohiga chiqadi va uning zimmasiga maʼlum qoidalarga amal qilish, vazifalarni bajarish kabi maʼsuliyyatlar tushadi. Ijtimoiylashuvda muhim odamlar sifatida tengdoshlarning ahamiyatini ham taʼkidlab oʻtmoq kerak. Tengdoshlar shaxsiyat ijtimoiylashuvining alohida agentlari sifatida ajralib turadi. Nima uchun ular bolaning rivojlanishi uchun juda muhim? Oʻspirin va undan katta yoshdagi odam oʻzini qiziqtirgan maʼlumotlarga. Bu kattalar tomonidan emas, balki tengdoshlar tomonidan toʻliq taʼminlanishi mumkin. Shu sababli, qiziqish guruhlari shakllantirilib, ularda shaxsiyat rivojlanishda davom

etadi. Ba'zi bolalar sinflar ichida o'ziga o'xshagan do'stlar bilan tez til topishishadi, bunda ularning o'zaro qiziqish, dunyoqarashlarining mos kelishi sabab. Ota-onalar bolani noto'g'ri sozlangan submultural guruhlar ta'siriga tushib qolmasligi uchun boshqarishi kerak. Pedagog esa ota-onalarga nisbatan kichik maktab yoshidagi bola shaxsiyatini rivojlantirishga juda katta ta'sir kuchiga ega. Pedagogning har bir o'rgatgan bilimlarini kichik maktab yoshidagi bolalar tomonidan haqiqatligiga ishonishlik, ularga taqlid qilishlik, topshirilgan vazifalarni mehr va muhabbat bilan bajarishlik kabi psixologik xususiyatlar boshlang'ich ta'limning muhim shartlaridan biridir. Shu bilan birga, ushbu xususiyatlar bolalar tarbiyasidagi ilk axloqiy va madaniy sifatning shakllanishi bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Kichik maktab davrida bolaning boshqa insonlar bilan munosabatlarida katta o'zgarishlar ro'y beradi. Bolaning muloqoti endi aniq maqsadga qaratilgan bo'ladi. Bunga sabab bir tomondan o'qituvchining faol ta'siri bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quv jamoasining ko'rsatadigan ta'siridir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar sinfida jamoa bilan muloqot qilish jarayonida turli darajadagi o'quvchilar bor: giperuloqotchan (sergap) bolalardan dars holatidan qo'rqadigan: javob berishga uyaladigan, tortinchoq yoki darsga quloq solmaydigan o'quvchilar ham bo'lishi mumkin. Ularda maktab davrigacha oilada, bog'chada muloqot ko'nikmalari shakllangan bo'ladi. Masalan, bola yoshligidan oilasi davrasida salomlashish, minnatdorchilik bildirish kabi muloqot ko'nikmalarini o'zida shakllantiradi. Ammo maktab jamoasiga kirishib ketish, o'z tengdoshlari bilan muloqot olib borish sekin amalga oshadi. Ular avvalo, bir-birlarining hatti-xarakatlarini kuzatishadi, o'zaro bir-birlariga nisbatan taqlid qilishadi. Ayrim kichik maktab yoshidagi o'quvchilar maktabda, tengdoshlari oldida muloqot qilishdan uyalishadi, o'zlarini chetga tortishadi, lekin ular oilasi davrasida erkin o'z fikrini bemalol bayon qilishadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual talanti, ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarni shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan bolalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyasni rivojlantirish, muammolarini hal etishning yangi yo'llarini izlash, birinchidan, ko'rsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi hamda psixik rivoji jarayonini takomillashtirish qonuniyatlarini, metodologik va usubiy sharoitlarini o'rganish zarurati bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarda yurush, yugurish, sakrash, uloqtirish, konkida yurush, yugurush, suzush hayot uchun kerak bo'ladigan eng oddiy harakat malakalarni rivojlantirishdir. Bu harakatlarni bolalar tez o'zlashtiradi, sababi-ularning asab tizimi yuqori darajada egiluvchandir. Kichik maktab yoshidagi bolalarga mashq berishdan oldin ularga o'sha mashqlarni ahamiyati, bajarish texnikasi, harakatli o'yin qoidalari tanani tarbiyalashni ayrim elementlari haqida tushuncha berib borish lozim. Mazkur maqsadni ro'yobga chiqarish uchun ularda, odatda, jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlardan iborat bo'lgan keng o'quv materialini taqdim etilgan. Kichik maktab yoshidagi davrda bolalar badiiy-estetik rivojlanishda katta imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Bolalar odatda rasm chizishga, loy yoki plastilindan narsa yasash Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun mehnatning tarbiyaviy ahamiyati kattadir. Biroq shuni takidlab o'tish lozimki, har qanday mehnat ham shaxsda ijtimoiy tarbiyalayvermaydi.

Bolalar o'z-o'ziga xizmat qilish va o'zlari uchun foydali bo'lgan narsalarni tayyorlash bilan shug'ullanayotganlarida ularda mehnatsevarlikni tarbiyalashga xususan zo'r ehtibor berish kerak. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni sekin-asta ko'pchilik foydasiga qaratilgan, boshqalar uchun bo'lgan ijtimoiy-foydali mehnatga jalb etish juda muhimdir. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafakat bilish jaraenlarining yukori darajada rivojlanishi . balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish uchun ham imkoniyat yaratadi. Shuni aloxida ta'kidlash lozimki yetakchi bo'lgan o'quv faoliyatidan tashkari boshka faoliyatlar- uyin. mulokot va mehnat faoliyatit ham o'quvchi shaxsi rivojiga bevosita ta'sir kursatiadi. Shuningdek bu faoliyatlar asosida muvafakkiyatga erishish motivlari bilan boglik bo'lgan shaxsiy xususiyatlar tarkib topa boshlaydi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi bolalarda o'qishda ma'lum yutuklarga erishish extiyojini kondirishga ,shuningdek tengdoshlari

orasida uz urniga ega bulishiga imkoniyat ham yaratadi. Aynan ana shu urin yoki mavkega erishish uchun ham bola yaxshi o'qish uchun xarakat kilishi mumkin. Bu yoshdangi bolalar doimiy ravishda uzlari erishgan muvaffakkiyatini boshka tengdoshlari muvaffakkiyati bilan solishtiradilar. Ular uchun doimo birinchi bulish nixoyatda muxim . Kichik maktab davrida bolalardagi musobakaga kirishish motivi tabiiy psixologik extiyoj hisblanib bu motiv ularga kuchli emotsional zurikishni beradi. Bu xususiyatlar aslida bogcha davridan boshlab yuzaga kela boshlaydi va kichik maktab davrida, shuningdek o'smirlik davrida ham yakkol kuzga tashlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u xakidaga fikr va baxolariga karab uzlariga uzlari baxo beradilar. O'quvchining uziga uzi beradigan baxosi asosan tugridan tugri o'qituvchining beradigan baxosiga va turli faoliyatlaridagi muvaffakkiyatlariga boglik. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda uz uziga beradigan baxolari turlicha – yukori , adekvat, past bulishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiklik, tashki ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida tarbiyalash uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab yoshi davrini bolaning turli faoliyatlarda muvaffakkiyatga erishishini belgilab beruvchi asosiy shaxsiy xususiyatlarni yuzaga kelish va mustahkamlash davri deb hisoblash mumkin. Bu davrda muvaffakkiyatga erishish motivlari tarkib topish bilan bir katorda mehnatsevarlik va mustaqillik kabi sifatlar rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda mehnatsevarlik asosan o'qish va mehnat faoliyatida rivojlanadi va mustahkamlanadi. Mehnatsevarlik bolada uz kilayotgan mehnati unga zavk bergan takdirdagina yuzaga keladi. Bolada mustaqillik xusuiyatining shakllanishi asosan kattalarga boglik. Agar bola xaddan ziyod ishonuvchan, itoatkor, ochik xususiyatli bulsa unda asta sekinlik bilan buysinuvchanlik mustaqil bo'la olmaslik xususiyati mustahkamlana boradi. Lekin bolani vaqtli mustaqillikga undash unda quloqsizlik yopiqlikni shakllanishiga olib keladi va hayotiy tajribalarni asosan kimlargadir taklid qilgan xolda uzlashtiradi Mustaqillikni shakllantirish uchun bolaga mustaqil bajaradigan ishlarni ko'proq topshirish va unga ishonch bildirish nihoyatda muhimdir. Shuningdek shunday bir ijtimoiy psixologik muhit yaratish kerakki, unda bolaga biron bir ma'sul vazifani mustaqil bajarishni topshirish, bu ishni bajarish jarayonida bola o'zini tengdoshlari, kattalar va boshqa odamlarning lideri deb his qilsin . Ana shu his bolada mustaqil bulishga undovchi motivlarni yuzaga keltiradi.

Xulosa: Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni har tomonlama yetuk, go'zal axloqli, xush odobli inson qilib kamol toptirish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biridir. Chunki bu narsa milliy qadriyat va ruhiyatni tiklash jarayonida ta'lim va tarbiya samaradorligini oshirish masalasidan kelib chiqadi. O'quv faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchi uchun nafaqat bilish jarayonlarining yuqori darajada rivojlanishi, balki shaxsiy xususiyatlarining rivojlanishi uchun ham imkoniyat yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti o'zining asosiy vazifasi etib har bir bolashaxsini maksimal rivojlantirish va uni keyingi rivojlanish bosqichiga tayyorgarligini ta'minlash maqsadida tashkilotda ijobiy psixologik mikroklimat vasharoit yaratishni belgilaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning oilada o'z "men"ini anglashi juda muhim hisoblanadi. Pedagoglar va psixologlar oila muammolarini, uning an'ana va udumlarini, bola shaxsining shakllanishida oilaning ta'sirini ko'plab tadqiqotlarda o'rganganlar. Bola ota – onaning faqatgina tarbiyaviy ta'sir etish mahsuli emas. U o'z oilasini o'zicha tushunadi va qabul qiladi. Oiladagi o'z o'rnini o'zaro aloqada belgilaydi va oilada o'zini shaxs sifatida anglaydi. Bolalar oilada ro'y berayotgan hodisalarga kattalarga nisbatan boshqacha baho beradilar. Biz qachonki atrofimizdagi olamni bola ko'zi bilan ko'rishga o'rganib olganimizdan so'nggina, ularni to'g'ri tushunamiz, hayajonlariga, qayg'ulariga yordam bera olamiz. Bugungi maktabgacha pedagogikada maktabgacha yoshdagi bolalarning oilada bolani shaxs sifatida idrok etilishi va uning ijtimoiy xususiyatlari taraqqiyotiga ta'siri, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari doirasida ijtimoiy roller haqidagi tasavvurlar shakllanishi, kattalarga taqlid orqali muluqot ko'nikma malakalarining tarkib topishi kabi masalalar o'rganilmoqda

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-361 sonli qarori-T: 2018-yil

9sentyabr.2.Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika” Fan va texnologiya. T.2017-yil.

Maftuna M. OILADA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING SHAXS XUSUSIYATLARINI SHAKILLANTIRISH //Involta Scientific Journal. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 266-274.

Muhidinovna M. M. OILADA MAKTABGACHA VA KICHIK MAKTAB YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOY XUSUSIYATLARINI SHAKILLANTIRISH //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 103-107.

Muhidinovna M. M. Preschool Education System and Family Cooperation in the Formation of Social Characteristics //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2022. – T. 2. – №. 2. – C. 267-270.

Mamedova M. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOY XUSUSIYATLARINI SHAKILLANTIRISHDA TARBIYANING O’RNI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 8. – №. 8.

QADRIYATLI YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA FUQAROLIK POZITSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING MEZONLARI VA PRINSIPLARI

*Yuldasheva Mashxura Muzafarovna, Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),
mashhurayuldasheva1973@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada ta'lim-tarbiya jarayonlarida olib borilayotgan ishlar bilan bir qatorda jamiyat rivojlanishining ma'naviy-axloqiy negizlari, bilim va ilmdan boshqa har qanday narsa doimiy emas, o'tkinchiligi; bu ikki qadriyat va astoydil mehnat qilishdan boshqa hech bir narsa insonning baxtli yashashini kafolatlay olmasligi va ta'lim tizimi mamlakatimiz kelajagini, avlodlar vorisligini ta'minlovchi asosiy vosita ekanligi tadqiq etilganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: ongli, aql-tafakkurli, salohiyatli, mamlakat kelajagi, jahon andozalari, mamlakat modernizatsiyasi, kuchli fuqarolik jamiyati, jahon hamjamiyati, milliy xavfsizlik va barqarorlik.

CRITERIA AND PRINCIPLES FOR INCREASING CIVIC POSITIONING IN STUDENTS BASED ON A VALUE-ORIENTED APPROACH

*Yuldasheva Mashkhura, Assistant professor of the Bukhara State Pedagogical Institute,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD),
mashhurayuldasheva1973@gmail.com*

Abstract: The article examines the work carried out in the educational process, the spiritual and moral foundations of the development of society, the impermanence of knowledge and cognition; it explains the guarantee of a happy life with values and hard work, and that the education system is the main tool that ensures the future of our country and the continuity of generations.

Key words: improvement of thinking, creativity, world civilization of sciences, international harmony, international solidarity, ethical and legal views, formation of beliefs, priority of education.

КРИТЕРИИ И ПРИНЦИПЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ГРАЖДАНСКОГО ПОЗИЦИОНИРОВАНИЯ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ЦЕННОСТНО-ОРИЕНТИРОВОЧНОГО ПОДХОДА

*Юлдашева Маишура Музафаровна, доцент Бухарского государственного педагогического института,
доктор философии по педагогическим наукам (PhD),
mashhurayuldasheva1973@gmail.com*

Аннотация: В статье рассматриваются проводимые в образовательном процессе работы, духовно-нравственные основы развития общества, непостоянность знания и познания; поясняется гарантирование счастливой жизни с ценностями и трудолюбием, и что система образования является основным инструментом, обеспечивающим будущее нашей страны и преемственность поколений.

Ключевые слова: совершенствование мышления, творчество, мировая цивилизация наук, международная гармония, международная солидарность, этико-правовые взгляды, формирование убеждений, приоритет образования.

Kirish. Ona Vatanimizda azal-azaldan ta'lim va tarbiyaga bir-biridan ajralmas uzviy bog'liq tushunchalar sifatida qarab kelingan. Bunga albatta, o'ziga hos ijtimoiy, siyosiy va tarixiy shart-sharoitlar sabab bo'lgan. Asrlar mobanida shakllangan ustoz-shogird tizimi, ta'lim-tarbiya ishlari milliy – ma'naviyatimiz bilan hamohang holda olib borishi natijasida, u axloq-odob normalari bilan boyitildi va bugungi kun ko'rsatib turgandek tarixda o'zini oqladi.

Bugungi yosh avlod haqli ravishda buyuk bobokalonlarimiz Mahmud Qoshg'ariy, Burhoniddin Rabg'uziy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Hakim at-Termiziy, imom Buxoriy, Mir Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Bobur kabi tabarruk nomlarni faxr bilan tilga oladilar. Ularning insoniyat ilmu fani,

axloqiy tarbiyasiga qo‘shgan hissalarini bebahodir. Qolaversa, o‘lkamizda minglab muhandislar, quruvchilarning mashaqqatli mehnatlari evaziga qad ko‘tarib butun dunyo ahlini hayratga solib kelayotgan me‘moriy obidalar ham yuksak bilimni, mahoratni talab qilgani hech kim uchun sir emas.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Muhtaram Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomalarida O‘zbekistonda ta‘lim-tarbiyaning milliy – ma‘naviy negizlari, ajdodlarimiz tomonidan bu sohada qoldirilgan ulkan meros va tajribalardan to‘g‘ri foydalanib, komil insonni tarbiyalashda, ta‘lim va tarbiyada inson omilini birinchi o‘ringa qo‘yish masalasi haqida atroflicha fikrlar yuritilgan. Xususan: “O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbottalab bo‘lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi zarur. Jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch ma‘rifatdir. Aql zakovatli, yuksak ma‘naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakina, oldimizga qo‘ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi”. Yurtboshimiz fikriga tayangan holda shuni aytish mumkinki, jamiyatda kechayotgan ijtimoiy, xususan, ta‘lim sohasidagi islohotlarning samaradorligi uning fuqarolarida shakllangan.

Har bir inson o‘z umrini sarhisob etar ekan, albatta - hayotda nimalar qildim?, nimalarga erishdim?, nimalarga erisha olmadim?, men jamiyatga nima berdim?, avlodlarimga nimani meros qoldirdim? - degan savollarga javob izlaydi. Bu savollarga javob qaytarish uchun umrning so‘ngi soat yoki kunlarini ham kutish shart emas, inson vijdoni va iymoni bilan yolg‘iz qolganida ham shu savollarga javob qaytarishga urinadi. Mazkur savollarga qoniqish bilan javob qaytarish esa, o‘z hayotidan mamnun, doimo o‘qigan, izlangan, tinmay mehnat qilgan va o‘z bilim, ko‘nikma va mahoratini muttasil oshirib borgan kishilarga nasib qiladi. Chunki, bunday kishilarda mislsiz va bebaho boylik - bilim, ilm, tajriba, ko‘nikma va mahorat, voqea-hodisalarga mantiqiy yondashuv mavjud. Bu narsalar - qiymati hech bir zamonda pul bilan o‘lchanmagan, bozorda sotilmagan va qancha sarf etilmasin kamaymaydigan boylikdir. Bu boylik haqida hamisha tushuncha va tasavvur mavjud bo‘lgan hamda shu tufayli barcha davrlar va jamiyatlarda bilimning, fanning, ta‘limning qiymati baland bo‘lgan.

Xususan, ota-bobolarimiz dini bo‘lmish Islomda ham, uning muqaddas kitobi bo‘lgan Qur‘oni Karimda, Hadisda, qolaversa «Avesto»da ham asosiy diqqat-e‘tibor komil inson tarbiyasiga qaratilgan. Zamon talab etayotgan shaxslarni tarbiyalash borasida Abdulla Avloniy o‘zining «Turkiy guliston yohud axloq» asarida shunday deydi: «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir». Shunday ekan, milliyligimizni, o‘zligimizni, qadriyatlarimizni ta‘lim jarayonidan uzoqlashtirmagan holda olib borshimiz bugungi kunning talabidir. Bugungi kunda ta‘lim va tarbiya tizimini to‘xtovsiz rivojlanishi, ilmiy yangiliklar bilan boyib borishi zarurligini anglashimiz bilan bir qatorda, bu yo‘nalishda umumbashariy tamoyillarga murojaat qilishimiz, xorijiy mamlakatlar fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalanishimiz muhim ahamiyat kasb etishi bilan ahamiyatlidir.

Xorijiy mamlakatlar fan-texnika yutuqlaridan samarali foydalana oladigan kadrlarni etishtirish uchun har bir bola, o‘sririn, o‘smir va yosh yigit-qizlarni kichik yoshdan boshlab bilim olishga yo‘naltirish, ilmga havas, mehnatga muhabbat uyg‘otish, ularni ta‘lim muassasalarida eng yangi ta‘lim texnologiyalari, dunyo standartlari darajasidagi darslik va qo‘llanmalari bilan o‘qitish va o‘rgatish lozim bo‘ladi. Mamlakatimizda ana shu qutlug‘ ish yaxshi yo‘lga qo‘yilgan - har bir ilm olishga, bilim, kasb-hunar, malaka o‘rganishga havasmand inson uchun o‘z orzularini ro‘yobga chiqarish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratilgan. Chunonchi, O‘zbekiston Konstitutsiyasida va boshqa qonunlarimizda bizda har kimga bilim olish huquqi kafolatlangan. Davlatimiz har tomonlama rivojlangan barkamol inson shaxsini shakllantirish maqsadida o‘zining Asosiy Qonuni – Konstitutsiyasida bilim olish huquqini kafolatlaydi. O‘z kasbining ustasi mutaxassis bo‘lib etishish, mamlakatimiz va qolaversa, dunyo inson karitali bozorida o‘zlariga mos o‘rinlarni torishning, hayotda baxtli va mamnun yashashning bundan boshqa yo‘li yo‘q.

Natija va tahlillar.

Maqsadlar amalga oshirilishida ma'naviy-ma'rifiy omillarning o'rni, iqtisod sohasida ta'lim olayotgan va faoliyat olib borayotgan kadrlar faoliyatida uyg'unlashuvi borasidagi aniq mo'ljal va prognozlarini ishlab chiqish, bu jarayonda amal qiladigan kuchli mexanizmni aniqlashtirib olish ushbu sohada yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan zaruratni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasida mamlakatni modernizasiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgan islohotlarning tub mohiyati aholi turmush tarzining farovonligini oshirish, fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati va saviyasini yuqori darajaga ko'tarish, ularda aniq fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda o'z ifodasini toradi. Davlatning taraqqiy etishida va undagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning yangi bosqichga o'tishida mamlakat oldida turgan vazifalarni turli yo'nalishlarga taqsimlagan holda, fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti "... – bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. Yoki boshqacha qilib aytganda, bu – "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir. Bu yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini kamaytirish va bu vazifalarni bosqichma-bosqich jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqozo etadi". Demak, fuqarolik jamiyatini qaror toptirish uchun davlat o'zining ayrim vazifalarini bo'ynidan soqit qilib, asta-sekin jamiyatning boshqa institutlariga topshirmog'i lozim. Buning uchun esa davlat tomonidan muayyan shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratilib, jamiyatning o'z-o'zini tashkil etuvchi va boshqaruvchi idoralarining faoliyati to'g'ri yo'lga qo'yilishini talab etuvchi mexanizmlarni vujudga keltirish zarur.

Xulosa.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev o'zining «Yangi O'zbekiston strategiyasi» kitobida ta'kidlaganidek, xalqimizning siyosiy tafakkuri va ijtimoiy faolligi yuksalib borayotganligi, atrofdagi voqealarga beparvo bo'lmasdan, aksincha, islohotlarimizga daxldorlik tuyg'usi bilan yashamoqda. Prezident fikrini davom ettirib, «Ayni paytda islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur»ligini bayon etadi. Bunday maqsadga erishishda siyosiy fanlarning, siyosatshunos kadrlar tayyorlashning ahamiyati beqiyos. Bu borada 2019 yil 29 yanvarda qabul qilingan «Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4139-sonli Prezident qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu qarorni qabul qilishdan maqsad:

- siyosiy fanlar sohasida kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish;
- fuqarolik jamiyati, milliy davlatchilikning siyosiy asoslari shakllanishi va rivojlantirish sohasida kompleks tizimli tadqiqotlar olib borish;
- globallashtirish sharoitida davlatning ichki va tashqi siyosatini shakllantirish va amalga oshirish;
- shu asosda ijtimoiy-siyosiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar va dasturlarni ishlab chiqish kabi masalalardir. Qarorga muvofiq Siyosatshunoslik kafedrasini faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar belgilandi:
 - ilg'or xorijiy tajriba hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish asosida siyosatshunoslik fanlari sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlash;
 - jahon siyosatidagi eng yangi trend va yo'nalishlarni hisobga olgan holda xalqaro darajadagi ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash;
 - tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatda O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlarini ilgari surish sohasida Tashqi ishlar vazirligi, boshqa vazirlik va idoralar oldida turgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda ta'lim berish, fundamental va amaliy tadqiqotlarning yuqori darajasini ta'minlash;
 - siyosatshunoslik, xalqaro munosabatlar va jahon siyosati, xalqaro iqtisodiyot va menejment, xalqaro huquq sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borish, ularning natijalarini o'quv jarayoniga hamda tegishli o'quv rejalari va dasturlariga tatbiq etish.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M., 28.01.2022 yildagi PF-60-son "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-yanvardagi «Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4139 qarori. www.lex.uz

3. Qadriyatli yondashuvlar asosida talabalarning fuqarolik pozitsiyasi va tolerantlik tafakkuri texnologiyalarini shakllantirish., "Pedagogik akmeologiya" №6(8) 2023, 42-46 b.

4. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkuri va fuqarolik pozitsiyasini takomillashtirish texnologiyasi., Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar № 2023 aprel 38-43 b.

5. Технологии совершенствования толерантного мышления и гражданского позиционирования у студентов на основе ценностно-ориентировочных подходов., Pedagogik akmeologiya" 7(15) 2024, 59-63 b.

6. Qadriyatli yondashuv asosida talabalarda tolerantlik tafakkurini takomillashtirish texnologiyasi., "Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti ilmiy axborotnomasi" ilmiy-amaliy jurnal 3(7) 2024 252-254 b.

7. Technologies for improving tolerant thinking and civic positioning in students based on value-oriented approaches., AMERICAN Journal of Science on Integration and Human Development Volume 2, Issue 1, 2024 ISSN (E): 2993-2750., 59-62 b.

8. Improving tolerant thinking among the youth of Uzbekistan bosma Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations., 2024 Prague, Czech18 <https://academicsresearch.ru/index.php/ysetia/article/view/3026>

9. Training for the development of tolerant thinking among students in the conditions of modern society., Novateur publications international journal of innovations in engineering research and technology [IJIERT] ISSN: 2394-3696 Website: ijiert.org VOLUME 9, ISSUE 12, Dec. -2022 , 241-246 <https://repo.ijiert.org/index.php/ijiert/article/view/3518>

10. Technologies for improving tolerant thinking and civic positioning in students based on value-oriented approaches., Vol. 3 No. 1 (2024): Problems and scientific solutions. 2024 Australia, Melbourne 83-86 <https://academicsresearch.ru/index.php/icpass/article/view/3000>

11. Technology for the formation of tolerant thinking and civic positioning among students based on a value-oriented approach., European Journal of Innovation in Nonformal Education (EJINE) Volume 4 | Issue 11 | November -2024 ISSN: 2795-8612 ., 292-294 b.

OILADA KICHIK MAKTAB YOSHIDA AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI

Mamedova Maftuna Muxidinovna, Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
mamedovamaftuna@3gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola, oilada kichik maktab yoshidagi bolalarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda muloqotning o'rnini haqida so'z yuritadi. Maqolada oilaviy muloqotning bolalarda hurmat, empatiya, mas'uliyat va halollik kabi axloqiy fazilatlarining shakllanishidagi ta'siri tahlil qilinadi. Oila a'zolari o'rtasidagi samarali muloqot bolalarga ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni o'rgatishda katta ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi. Shuningdek, maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda muloqotchanlikni rivojlantirish uchun oila ichida qanday usullarni qo'llash mumkinligi, masalan, ochiq muloqot, rag'batlantirish va muammolarni hal qilishda yordam berish kabi tavsiyalar berilgan. Nihoyat, oila bolalarni axloqiy fazilatlar bilan tarbiyalashda muhim rol o'ynashi va ularga jamiyatda muvaffaqiyatli inson bo'lish uchun kerakli asoslarni yaratishi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: oila muloqoti, kichik maktab yoshi, axloqiy fazilatlar, axloqiy rivojlanish, hurmat, empatiya, mas'uliyat, halollik, tarbiya, ijtimoiy ko'nikmalar, bolalar rivoji, muloqot ko'nikmalari, ijobiy rag'batlantirish.

ПРОЦЕССЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРАВСТВЕННЫХ ДОБРОДЕТЕЛЕЙ В СЕМЬЕ В РАННЕМ ШКОЛЬНОМ ВОЗРАСТЕ

Мамедова Мафтунa Мухидиновна, преподаватель Бухарского государственного педагогического института
mamedovamaftuna@3gmail.com

Аннотация. Эта статья обсуждает роль общения в развитии моральных качеств у детей младшего школьного возраста в семье. В статье анализируется влияние семейного общения на формирование моральных качеств у детей, таких как уважение, эмпатия, ответственность и честность. Подчеркивается, что эффективное общение между членами семьи играет важную роль в обучении детей социальным и моральным ценностям. Также в статье даются рекомендации о том, какие методы можно применять в семье для развития коммуникативных навыков у детей младшего школьного возраста, например, открытое общение, поощрение и помощь в решении проблем. Наконец, подчеркивается важность семьи в воспитании детей с моральными качествами и создании необходимых основ для того, чтобы они стали успешными людьми в обществе.

Ключевые слова: семейное общение, младший школьный возраст, моральные качества, моральное развитие, уважение, эмпатия, ответственность, честность, воспитание, социальные навыки, развитие детей, коммуникативные навыки, позитивное поощрение.

PROCESSES OF DEVELOPING MORAL VIRTUES IN THE FAMILY AT EARLY SCHOOL AGE

Maftuna Mukhidinovna Mamedova, lecturer at Bukhara State Pedagogical Institute
mamedovamaftuna@3gmail.com

Annotation. This article discusses the role of communication in developing moral virtues in children of primary school age within the family. The article analyzes the impact of family communication on the formation of moral virtues in children, such as respect, empathy, responsibility, and honesty. It emphasizes that effective communication among family members plays a significant role in teaching children social and moral values. Additionally, the article provides recommendations on how to develop communication skills in young children within the family, such as open communication, encouragement, and assistance in problem-solving. Finally, it highlights the importance of the family in raising children with moral virtues and creating the necessary foundation for them to become successful individuals in society.

Keywords: family communication, primary school age, moral virtues, moral development, respect, empathy, responsibility, honesty, upbringing, social skills, child

development, communication skills, positive reinforcement.

Kirish. Oila jamiyatning eng asosiy va muhim institutlaridan biri bo'lib, inson hayotining dastlabki yillaridan boshlab, uning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalar uchun oila ulkan ta'sir ko'rsatadigan omil bo'lib, bu davrda bolalarning axloqiy fazilatlarini, muloqot ko'nikmalari va shaxsiy fazilatlarini shakllanadi. Muloqotchanlik, bolalar o'rtasidagi ijtimoiy o'zaro munosabatlar va tarbiyaviy faoliyatlar orqali rivojlanadi, bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari va jamiyatdagi o'rni uchun muhim ahamiyatga ega.

Oila – har bir insonning jamiyatdagi birinchi ijtimoiy muhitidir. Oilada o'tgan dastlabki yillar, bolaning shakllanishida, uning axloqiy qadriyatlarining rivojlanishida va ijtimoiy muhitga moslashishida muhim ahamiyatga ega. Aynan oilada bolalar o'zlarining birinchi tarbiyasini olishadi, hayotning asosiy qoidalarini o'rganadilar va axloqiy normalarni shakllantiradilar. Bu jarayonning samarali bo'lishi uchun oila ichidagi muloqot juda katta rol o'ynaydi. Oila ichidagi muloqotning sifatli va samarali bo'lishi bolalarning shaxsiy va axloqiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Axloqiy fazilatlar, masalan, hurmat, halollik, sabr-toqat, mas'uliyat, empatiya va boshqalar, inson hayotidagi muhim qadriyatlar bo'lib, ular oilada o'rganilishi va rivojlantirilishi zarur. Bu fazilatlarini shakllantirishda oilaviy muloqotning o'rni alohida. Ota-onalar o'z farzandlariga faqat gaplar bilan emas, balki o'z xulq-atvori va hayotiy namunasi orqali ham axloqiy qadriyatlarni o'rgatishlari kerak. Muloqot, oilada bolalarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda faqat so'zlar emas, balki bolalar bilan samimiy va ochiq suhbatlar, ularning fikrlarini tinglash va hurmat qilish jarayonlarini ham o'z ichiga oladi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – oilada kichik maktab yoshidagi bolalarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda muloqotning o'rni va ta'sirini o'rganishdir. Tadqiqotda oilaviy muloqotning bolalar axloqiy rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi, bu jarayonda qaysi usullar samarali ekanligi va oilada axloqiy tarbiya tizimini qanday yaxshilash mumkinligi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning natijalari, oila ichidagi muloqotning bolalar tarbiyasiga ta'siri haqida chuqur tushuncha beradi va oilalarga, o'qituvchilarga, pedagoglarga bolalar bilan axloqiy muloqotni yaxshilash bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.

Tadqiqotning ahamiyati. Ushbu tadqiqotning ahamiyati, oilada kichik maktab yoshidagi bolalarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda muloqotning o'rni va ta'sirini o'rganishda yotadi. Bugungi kunda axloqiy tarbiya, ijtimoiy tizimda o'sib kelayotgan yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash va ularga kerakli axloqiy qadriyatlarni o'rgatish uchun juda muhim ahamiyatga ega. Oilaviy muloqot, bolalarning axloqiy rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi, chunki oila - bu bolalarning birinchi va eng muhim tarbiya manbai. Tadqiqot oiladagi muloqotning bolalar axloqiy fazilatlarini shakllantirishdagi ta'sirini aniqlashga qaratilgan. Bu masala, ayniqsa, bolalarning ijtimoiy, axloqiy va psixologik rivojlanishining asosiy bosqichida juda muhimdir. Oilaviy muloqot bolalarga hurmat, empatiya, halollik, mas'uliyat kabi axloqiy qadriyatlarni o'rgatishda katta rol o'ynaydi. Bu orqali bolalarning jamiyatda ijobiy va mas'uliyatli fuqarolar sifatida o'sib, jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beriladi. Tadqiqot, shuningdek, oilalarga muloqotning samarali usullarini o'rgatish, oiladagi tarbiya jarayonini yaxshilash va bolalar bilan axloqiy qadriyatlar bo'yicha ochiq suhbatlarni o'tkazishga undaydi. Oila ichidagi ijobiy muloqot bolalarning psixologik salomatligini yaxshilaydi, ularning o'z fikrini erkin ifodalashlariga, muammolarni hal qilishda yordam berishga va o'zaro hurmatni rivojlantirishga imkon beradi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot, oilalar uchun axloqiy tarbiya bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqishda, o'qituvchilar va pedagoglarga bolalarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda o'quv dasturlarini yaxshilashda yordam beradi. Tadqiqotning natijalari bolalar tarbiyasidagi muammolarni aniqlash va bartaraf etishda hamda jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, tadqiqotning ahamiyati nafaqat ilmiy sohada, balki amaliyotda ham katta o'rin tutadi, chunki u oila ichidagi muloqotning bolalar axloqiy rivojlanishiga ta'sirini tushunishga yordam beradi va oilaviy tarbiyaning samarali usullarini ishlab chiqishga yo'l ochadi.

Muloqotchanlik va uning axloqiy fazilatlariga ta'siri. Muloqotchanlik - bu faqat

so'zlashuv emas, balki odamning o'z fikrini boshqalarga etkazish, o'rganish, tinglash, emotsiyalarni boshqarish va atrofdegilarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni ham o'z ichiga oladi. Bolalar uchun muloqotchanlik, ayniqsa, kichik maktab yoshida juda muhimdir, chunki bu davrda ular o'zlarining atrofidagi dunyo bilan birinchi marta chuqurroq aloqaga kirishadilar. Bolalar oila ichidagi muloqot orqali axloqiy qadriyatlarni, adolat, halollik, mehr-oqibat kabi asosiy fazilatlarni o'zlashtiradilar. Masalan, ota-onalar bolalariga muloyimlik, boshqalarni hurmat qilish, o'z fikrini to'g'ri ifodalash va boshqalar bilan teng huquqli muloqot qilishni o'rgatishlari kerak. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish bolaga jamiyatda muvaffaqiyatli bo'lish imkoniyatlarini beradi.

Kichik maktab yoshida muloqotchanlikni rivojlantirishda oilaning roli nihoyatda katta. Ota-onalar o'z muloqot uslublari orqali farzandlariga qanday munosabatda bo'lishni, ularning turli vaziyatlarda qanday hissiyotlarga ega bo'lishlarini va bu hissiyotlarni qanday ifodalashni o'rgatadilar. Oila ichidagi samarali muloqot orqali farzandlar quyidagi axloqiy fazilatlarni o'zlashtirishi mumkin:

1. Hurmat: Bolalar ota-onalari va boshqa oilaviy a'zolariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rganadilar. Bu fazilat jamiyatda yaxshi aloqalar o'rnatish uchun juda muhimdir.

2. Empatiya: Oila muloqotida bolalar boshqalarni tushunishga va ularning his-tuyg'ulariga hurmat bilan yondashishga o'rganadilar. Bu esa ularning jamiyatda to'g'ri va ahil yashashlariga yordam beradi.

3. Mas'uliyat: Oila a'zolari o'rtasidagi muloqot bolalarga mas'uliyatli bo'lishni o'rgatadi, ular o'z ishlarini samarali bajara olishlari, o'z xatolarini tan olishlari va boshqalarga yordam berishga tayyor bo'lishlari kerakligini tushunadilar.

4. Halollik: Bolalar o'zaro muloqotda halollikni qadrlashni o'rganadilar. Oila, ayniqsa, bolaga yolg'on gapirmaslikni, va'dalariga sodiq qolishni o'rgatishning eng yaxshi o'quv maydonidir.

Kichik maktab yoshida muloqotchanlikni rivojlantirish usullari

1. Oila ichida ochiq muloqot: Bolalar bilan muntazam ravishda ochiq muloqot olib borish, ularning fikrlarini tinglash va savollariga to'g'ri javob berish muhimdir. Bu, bolaga o'z fikrini erkin ifodalashga yordam beradi va muloqotda ishtirok etishdagi o'zini qulay his qilishini ta'minlaydi.

2. Namuna ko'rsatish: Ota-onalar bolalariga muloqotda qanday bo'lishni namuna ko'rsatishlari kerak. Agar ota-onalar hurmatli, sabrli va muloqotda ochiq bo'lsalar, bolalar ham ularning ko'rsatmalariga amal qilib o'sishadi.

3. Doimiy va izchil rag'batlantirish: Bolalar o'zining axloqiy fazilatlari bilan tan olinganida, ularning o'zgarishlarga ochiqligi va rivojlanishiga yordam beradigan muhitni yaratish muhimdir. Rag'batlantirish usullari bolalarga o'zlarining yaxshi xulq-atvori uchun ijobiy feedback berish orqali amalga oshiriladi.

4. Muammolarni hal qilishda yordam berish: Oila a'zolari bolalarga muammolarni hal qilishda qanday muloqot qilishni o'rgatishlari kerak. Misol uchun, o'zaro tushunmovchiliklarni qanday hal qilish, boshqalar bilan kelishuvga erishish va o'zaro yordam ko'rsatish haqida maslahatlar berish zarur.

Tadqiqot muhokamasi. Ushbu tadqiqot, oilada kichik maktab yoshidagi bolalarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda muloqotchanlikning o'rni va ta'sirini o'rganishga qaratilgan bo'lib, olingan natijalar oilaviy muloqotning bolalarning axloqiy rivojlanishida muhim rol o'ynashini tasdiqladi. Tadqiqotda bir qator muhim topilmalar va natijalar keltirildi, ularni quyida batafsil tahlil qilamiz. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oila ichidagi muloqotning sifatli va samimiy bo'lishi bolalarning axloqiy fazilatlari, masalan, hurmat, empatiya, halollik va mas'uliyatni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bolalar, ota-onalari yoki boshqa oilaviy a'zolari bilan muntazam ravishda ochiq va halol muloqotda bo'lish orqali bu fazilatlarni o'zlashtirishadi. Ushbu muloqotlar bolalarga boshqalar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish, o'z his-tuyg'ularini va fikrlarini to'g'ri ifodalashni o'rgatadi. Tadqiqotda bolalar o'z oilalarida o'zaro hurmat, sabr-toqat, va boshqalar bilan kelishib ishlashni ko'rganliklarini bildirishdi. Bu

esa ularning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalar, o'z o'rnida, bolalariga muloqot orqali hurmat ko'rsatib, ularning fikrlariga quloq solib, muammolarni birgalikda hal qilishni o'rgatganlar.

Tadqiqotda ishtirok etganlar sifatida 6-9 yoshdagi bolalar (kichik maktab yoshida) va ularning ota-onalari tanlandi. 100 ta oila, shuningdek, urban va qishloq hududlaridan tanlab olinib, turli ijtimoiy-iqtisodiy holatlar, ta'lim darajalari va oilaviy tuzilmalar hisobga olindi. Ishtirokchilar katlamli tasodifiy tanlash usuli orqali tanlangan, bu esa oilaning turli shakllarini (yadro oilasi, kengaytirilgan oila, yolg'iz ota-ona) to'liq aks ettirishni ta'minladi. Tadqiqot uchun ota-onalar va bolalar uchun tuzilgan anketalar ishlab chiqildi. Ota-onalar anketasi oilaviy muloqot uslublari, tarbiyaviy usullar va axloqiy qadriyatlarining tarbiyada ahamiyati haqidagi fikrlarni o'lchashga qaratilgan. Bolalar anketasida esa, hurmat, empatiya va halollik kabi axloqiy fazilatlar haqidagi tushunchalar va oilaviy muloqotdagi xulq-atvorlari o'lchandi. Anketalarda Likert shkalasi qo'llanilib, fikr va xulqlarni baholash uchun imkon yaratildi. 20 nafar ota-ona (10 nafari shahar oilalaridan, 10 nafari qishloq oilalaridan) bilan chuqur yarim tuzilgan intervyular o'tkazildi. Ushbu intervyular oiladagi muloqot uslublari, bolalarga axloqiy fazilatlarini o'rgatishda duch kelgan qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlar haqida batafsil ma'lumot olishga yo'naltirildi. Shuningdek, 10 nafar bola bilan o'yin tarzida, ular bilan muloqot orqali axloqiy qadriyatlar va oiladagi muloqot haqida so'rovlar o'tkazildi. So'rovnomalar va anketalardan olingan ma'lumotlar tasvirlovchi statistikalar (o'rtacha, mediana, standart og'ish) yordamida tahlil qilindi. Oiladagi muloqot uslublari va axloqiy fazilatlar o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash uchun korrelyatsion tahlil qo'llanildi.

O'rganilgan oilalarda bolalar o'zlari amalga oshirgan yaxshi xulq-atvor uchun ijobiy rag'batlantirilgani, ularning axloqiy fazilatlarini mustahkamlanishiga yordam bergan. Bu, ayniqsa, hurmat, halollik va mas'uliyat kabi qadriyatlarni o'zlashtirishda o'zini namoyon etdi. Tadqiqot davomida ota-onalar va bolalar, rag'batlantirishning samarali usuli sifatida yaxshi xulq-atvorni tan olish va ijobiy fikrlar bilan qo'llab-quvvatlashni ta'kidlashdi. Biroq, oilada muloqotning samarali bo'lishi ba'zi hollarda qiyinchiliklarga duch kelgan. Oilaviy stress, vaqt cheklovlari, va ba'zida ota-onalarning bola tarbiyasidagi noaniqliklari muloqotning samarali bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli, muloqotning sifatini yaxshilash va bolalarga axloqiy fazilatlarini o'rgatishda ota-onalar uchun doimiy treninglar va maslahatlar kerakligi ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holati ham bolalar tarbiyasiga ta'sir qilishi mumkinligini ko'rsatdi. Ba'zi oilalar o'z iqtisodiy sharoitlari tufayli bolalariga kerakli vaqt va e'tiborni ajratishda qiyinchiliklarga duch kelgan. Shunga qaramay, ijtimoiy-iqtisodiy holati past bo'lgan oilalar ham bolalariga axloqiy fazilatlarini o'rgatishga intilishdi, ammo bu jarayon ko'pincha ko'proq resurslar va yordamni talab qildi.

Ota-onalar va bolalar o'rtasida ochiq va to'g'ri muloqot olib borish, bolalarga o'z fikrlarini ifodalash va o'zaro muammolarni hal qilishda yordam berish muhimligini ko'rsatdi. Muloqotda hurmat, sabr-toqat va o'zaro tinglashning axloqiy rivojlanishga ta'siri kattadir. Ota-onalar, o'z navbatida, bolalariga namuna bo'lish orqali axloqiy fazilatlarini o'rgatishadi. Oila muloqotini yaxshilash uchun ba'zi takliflar kiritildi. Bunga oilaviy suhbatlar, bolalarga turli axloqiy fazilatlar va ularning ahamiyati haqida o'qitish, va oilaviy faoliyatlarni birgalikda bajarish kiradi. Bundan tashqari, ota-onalar bolalariga muloqot orqali halollik, hurmat va empatiya kabi qadriyatlarni namuna ko'rsatishlari kerak. Shuningdek, oila ichida muloqotning yanada samarali bo'lishi uchun ota-onalar uchun doimiy treninglar va yordam olish zarurati ta'kidlandi. Tadqiqot natijalari oilaviy muloqotning bolalar axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Oila ichidagi samarali muloqot, bolalarda hurmat, empatiya, mas'uliyat va halollik kabi asosiy axloqiy qadriyatlarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, oiladagi kommunikatsiya usullari va ota-onalarning axloqiy tarbiya metodlari bolalar tarbiyasining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri bo'lib qolmoqda. Tadqiqotning natijalari oilalar uchun axloqiy tarbiya metodlarini rivojlantirishda, muloqot uslublarni takomillashtirishda va bolalarning axloqiy fazilatlarini o'rgatishda foydali yo'riqnomalar bo'lishi mumkin.

Xulosa. Ushbu tadqiqot, oilada kichik maktab yoshidagi bolalarning axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda muloqotning ahamiyatini chuqur o'rganishga qaratilgan bo'lib, bir qancha muhim xulosalarni taqdim etdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oila ichidagi muloqot bolalarning axloqiy rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Hurmat, halollik, empatiya, mas'uliyat kabi axloqiy qadriyatlar oiladagi muloqot orqali bolalariga o'rgatiladi va ularning ijtimoiy rivojlanishida muhim omil bo'ladi. Ota-onalar va boshqa oilaviy a'zolar bolalarga muloqot orqali ijobiy tarbiya berish, ularga o'z fikrlarini erkin ifodalashga imkon yaratish va boshqalar bilan hurmatli munosabatda bo'lishni o'rgatish orqali axloqiy fazilatlarini shakllantiradilar. Shuningdek, oilaviy muloqotning sifatli bo'lishi bolalar uchun rag'batlantiruvchi va yo'l-yo'riq beruvchi vosita bo'lib, ularni jamiyatda ijobiy va mas'uliyatli fuqarolar sifatida o'sishiga yordam beradi. Biroq, tadqiqotda shuningdek, oilaviy muloqotda ba'zi qiyinchiliklar ham borligi ko'rsatildi, xususan, oilaviy stress, vaqt cheklovlari va ota-onalarning tarbiyaviy usullaridagi noaniqliklar muloqotning samarali bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, oilalarga muloqotni yaxshilash va bolalar tarbiyasini samarali tashkil etish bo'yicha tavsiyalar va qo'llanmalar zarur. Tadqiqotning natijalari o'qituvchilar, pedagoglar va boshqa tarbiyachilar uchun ham foydali bo'lib, ular bolalar axloqiy fazilatlarini rivojlantirishda oilaviy muloqotning rolini tushunishga va shu asosda samarali tarbiya metodlarini ishlab chiqishga yordam beradi. Umuman olganda, oilada kichik maktab yoshidagi bolalar uchun axloqiy fazilatlar rivojlanishini ta'minlashda muloqotning ahamiyati katta va uning sifatini yaxshilash oilaning, jamiyatning va kelajak avlodning manfaatiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Shomurodov, M. (2017). Oila va axloqiy tarbiya: nazariya va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
2. Xasanov, S. (2015). Bolalar tarbiyasi va axloqiy qadriyatlar. Samarqand: Samarqand Davlat universiteti nashriyoti.
3. Karimova, R. (2018). Oila ichidagi muloqot va uning bolalarga ta'siri. Tashkent: TDTU nashriyoti.
4. Ubaydullaeva, N. (2020). Axloqiy tarbiya va uning oilaviy muloqotdagi o'rni. O'zbekiston pedagogika jurnali, 5(2), 45-49.
5. G'afurov, F. (2016). Oila va jamiyatda axloqiy fazilatlarini rivojlantirish. Toshkent: O'zbekiston matbuot nashriyoti.
6. Turg'unova, L. (2019). Bolalar psixologiyasi va oilaviy tarbiya. Buxoro: Buxoro davlat universiteti.
7. Yuldashev, B. (2021). Bolalar bilan samarali muloqot va axloqiy rivojlanish. Tashkent: Toshkent davlat pedagogika universiteti.
8. Uzbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. (2014). Bolalar tarbiyasi va axloqiy fazilatlar. Toshkent: O'qituvchi.
9. Andreeva, O. (2017). Oila va bolalar: axloqiy tarbiya va uning psixologik asoslari. Moskva: Pedagogika.
10. Davronov, D. (2022). O'zbekiston oilalarida muloqot va axloqiy tarbiya. Journal of Social Sciences and Education, 3(4), 28-35.

MAKTABGACHA TA'LIMDA STEM TA'LIM MODULI SIFATIDA

Muxsinova Umriya Barnoyevna, Buxoro davlat universiteti

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

umriyamuxsinova1990@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada dolzarb muammolardan biri - Yuqori texnologiyali mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanib borilishi, bolalar ta'lim muassasalarida, maktab va institutlarda robototexnika, modellashtirish va dizayn yetakchi o'rinni egallay boshlashi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: shaxsiyat, shaxsiy o'zgarishlar, shaxsiy o'zgarishlar xavfi, rivojlanishning ijtimoiy holati.

КАК МОДУЛЬ STEM-ОБРАЗОВАНИЯ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Muxsinova Umriya Barnoyevna, Преподаватель кафедры дошкольного образования

Бухарский государственный университет

umriyamuxsinova1990@gmail.com

Аннотация: в статье представлена одна из актуальных проблем – высокотехнологичная продукция и инновационные технологии станут неотъемлемой частью современного общества, робототехника, моделирование и дизайн займут ведущее место в детских образовательных учреждениях, школах и институтах.

Ключевые слова: личность, личностные трансформации, риски личностных трансформаций, социальная ситуация развития.

AS A STEM EDUCATION MODULE IN PRESCHOOL EDUCATION

Umriya Barnoyevna Muxsinova, Lecturer at the Department of Preschool Education

Bukhara State University

umriyamuxsinova1990@gmail.com

Abstract: the article presents one of the urgent problems – the article presents one of the urgent problems - high-tech products and innovative technologies will become an integral part of modern society, robotics, modeling and design will take a leading place in children's educational institutions, schools and institutes.

Keywords: personality: personal transformations, risks of personal transformations, social situation of development.

Hozir texnologik rivojlanish davridir. Yuqori texnologiyali mahsulotlar va innovatsion texnologiyalar zamonaviy jamiyatning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bolalar ta'lim muassasalarida, maktab va institutlarda robototexnika, modellashtirish va dizayn yetakchi o'rinni egallay boshlaydi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida STEM ta'limining joriy etilishi bolalarga axborot oqimida tezkor harakat qilishni va olingan bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rganishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar zamonaviy hayotda talab qilinadigan qo'shimcha amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishadi. O'yin ko'rinishidagi qiziqarli mashg'ulotlar bolaning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga imkon beradi.

MTTda STEM ta'limi nima? Bu aniq fanlarning asosiy tamoyillarini bir vaqtda o'rganishni o'z ichiga olgan kompleks treningdir. Bularga muhandislik, matematika, texnologiya kiradi. Bolalar davom etayotgan voqealarning o'zaro bog'liqligini ko'rishni o'rganadilar, mantiq tamoyillarini yaxshiroq tushuna boshlaydilar va o'zlarining modellarini yaratish jarayonida yangi va o'ziga xos narsalarni kashf etadilar. Integratsiyalashgan yondashuv ularning qiziqishini rivojlantirishga va o'quv jarayoniga jalb qilishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida stem texnologiyalarini qanday qo'llash mumkin?

• **Qurish-yasash mashg'ulotlarini tashkil qilish.** Buning uchun siz robot-dizaynerlar va turli xil robot qurilmalaridan foydalanishingiz mumkin. O'yin shaklida turli xil vazifalar bolalarda mantiqiy va algoritmik fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Maktabgacha

yoshdagi bolalar amaliy muammolarni tezda qanday hal qilishni o'rganishlari va o'zlari uchun dasturlash bo'yicha asosiy bilimlarni olishlari mumkin.

• **Sayr-ekskursiya faoliyatini amalga oshirish.** Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan dala ishlari orqali atrof-muhitni o'rganish bolalarga barglarning tuzilishini o'rganish, suvni tahlil qilish va hasharotlarni kuzatish imkonini beradi. Bu ularga ajoyib ijodlarga o'zgacha mehr-muhabbatni his qilishlariga va ular oldidagi mas'uliyatini anglashlariga yordam beradi.

• **O'yin mashg'ulotlarini tayyorlash.** Bunday holda, siz ochiq havoda o'yinlar, raqslar va o'yin-kulgilar shaklida qiziqarli tadbirlarni tashkil qilishingiz mumkin. Bu bolalarning muloqot qobiliyatlarini yaxshilash, so'z boyligini to'ldirish, nutq qurilishining grammatik xususiyatlarini o'zlashtirish va yangi noyob modellarni loyihalashni o'rganish imkonini beradi.

Bugungi kunda biz maktabgacha ta'lim muassasalarida STEM ta'limiga kiritilgan turli xil o'quv modullarini topishimiz mumkin. Masalan, "Didaktik tizim" moduli bolalarga geometrik shakllar va jismlar bilan tanishish, tevarak-atrofdagi dunyoning eng keng tarqalgan obyektlarini o'zlashtirish imkonini beradi.

STEM ta'limining yetakchi komponenti tajriba-muhandislik faoliyatidir. O'yin usulida bolalar hisoblash, o'lchash, solishtirish, muloqot qilish ko'nikmalarini egallashni o'rganadilar. Bu ularga zarur matematik, filologik va muhandislik ko'nikmalarini egallashga yordam beradi. Tanish obyektlardagi bolalar o'zlari uchun yangi va noma'lum xususiyatlarni aniqlaydilar. Qiziqarli o'yin ko'rinishidagi tasodifiy mashg'ulotlar tasavvur va ijodkorlikni rivojlantiradi.

Stem texnologiyalarning avzalliklari:

- Qiziqishni rivojlantiradi.
- Muhandislik ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.
- Jamoada ishlash uchun zarur bo'lgan fazilatlarini egallash imkonini beradi.
- Amalga oshirilgan faoliyat natijalarini tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.
- Maktabgacha yoshdagi bolalarning eng yaxshi kognitiv faoliyatiga hissa qo'shadi.

Ta'limga kompleks yondashuv fikrlash qobiliyatlarini eng yaxshi darajada rivojlantirishga yordam beradi va istiqbolli va izlanuvchan kasbni tanlash uchun katta eshik ochadi. Zamonaviy metodologiya bolalarni ilmiy va ijodiy faoliyatga tabiiy va oson jalb qiladi. Bu balog'at yoshida zarur bo'lgan intellektual qobiliyatlarning tizimli rivojlanishiga yordam beradi.

Mttida interfaol uskunalarning avzalliklari:

• Bola jihozni ehtiyotkorlik bilan boshqarishni tezda o'rganadi;

• Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sensor qurilmalar yordamida bolalarning iqtidori va ijodiy qobiliyatlari rivojlantiriladi, shuningdek, matonatlilik oshadi va bolalarning giperaktivligi pasayadi.

• Sensor o'yin komplekslari nozik vosita mahoratini rivojlantiradi va bolalarda sezgirlik darajasini oshiradi.

• MTT uchun zamonaviy interfaol jihozlar bolaning yangi ma'lumotlarni idrok etishini yaxshilaydi, o'z-o'zini tarbiyalashni rag'batlantiradi va bilim olishga qiziqishini oshiradi.

Bolalar uchun ishlab chiqarilgan barcha rivojlanish komplekslari maktabgacha va boshlang'ich maktablarda dasturga mos keladi (davlat ta'lim standartlari, shuningdek, ta'lim muassasalarida AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) rivojlanishini rag'batlantiradi.

Dasturda nimalar kiritilgan va qanday tarbiyiv vazifalari hal etilgan:

"F. Frebelning didaktik tizimi" o'quv modulida :

- atrofda dunyo obyektlari bilan tajriba o'tkazish;
- geometrik jismlar va shakllar bilan harakatlar orqali matematik tasavvurni o'zlashtirish;
- fazoviy munosabatlarni o'zlashtirish;
- turli burchak va proyeksiyalarda loyihalash.

"Jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba" o'quv moduli

- eksperimental faoliyatda atrofda dunyo haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;
- tasviriy vizual-sezgi idrok jarayonida barcha tirik mavjudotlarning birligini anglash;

-ekologik ongni shakllantirish

"LEGO - qurilish"- amaliy va aqliy tajriba o'tkazish, umumlashtirish, sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish, nutqni rejalashtirish va o'z faoliyati jarayoni va natijasini sharhlash qobiliyati;

- obyektarni guruhlash qobiliyati;

- hayotning turli sohalarida ogohlikni namoyon etish qobiliyati;

- ona tilini ravon so'zlash (so'z boyligi, nutqning grammatik tuzilishi, fonetik tizim, semantik tuzilish haqidagi elementar fikrlar);

- yangi tasvirlarni yaratish, tasavvur qilish, analiz va sintezdan foydalanish qobiliyati.

"Matematik rivojlanish" o'quv moduli

- bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda matematik rivojlanish muammolarini kompleks hal qilish: o'lcham, shakl, makon, vaqt, miqdor va hisoblash.

"Robotexnika" o'quv moduli

- mantiqiy va algoritmik fikrlashni rivojlantirish;

- dasturlash asoslarini shakllantirish;

- rejalashtirish, modellashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish;

- ma'lumotlarni qayta ishlash;

- mavhumlashtirish va naqshlarni topish qobiliyatini rivojlantirish;

- amaliy masalalarni tez hal qilish qobiliyati;

- urg'u berish, sxematiklashtirish, tiplashtirish qobiliyatini egallash;

- universal belgi tizimlari (ramzlari)dan foydalanish bilimi va malakasi;

- o'z faoliyati jarayoni va natijalarini baholash qobiliyatini rivojlantirish.

"Multstudiya" o'quv moduli "Men dunyoni yarataman"

- AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari) va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish; - mediatexnologiyalarni rivojlantirish;

- badiiy va texnik ijod sintezi asosida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish.

Har bir modul birlashtirilganda STEM ta'limining maqsadlarini amalga oshirishni ta'minlaydigan aniq vazifalarni hal qilishga qaratilgan: kognitiv tadqiqot faoliyati jarayonida intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish va yosh bolalarni ilmiy-texnik ijodkorlikka jalb qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Altshuller G.S. Ijodkorlik aniq fan sifatida. M., 1979.S. 10-60.
2. Antonova, Yu.A. Bolalar va ota-onalar uchun qiziqarli o'yinlar va o'yin-kulgilar / Yu.A. Antonova. M: 2007. 280 -288 b.
3. Belova E. S. P. Torrens testidan foydalangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy salohiyatini aniqlash // Psixologik diagnostika. 2004. No 1. S. 21-40.
4. Boy V., V. Nyukalov. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish (bolalar bog'chasida TRIZ), 2008. 17-19-betlar
5. Venger N.Yu. Ijodkorlikni rivojlantirish yo'li. - maktabgacha ta'lim. -1982 #11. 32-38-betlar.
6. Vygotskiy L.N. Maktabgacha yoshdagi tasavvur va ijodkorlik. - Sankt-Peterburg: Ittifoq, 1997. 92 str.
7. Dyachenko O.M., Veraksa N.E. Dunyoda nima bo'lmaydi. - M.: Bilim, 1994 yil.
8. Ermolaeva-Tomina LB Badiiy ijod psixologiyasi: Universitetlar uchun darslik. - M.: Akademik loyiha, 2003. C. 2-304
9. Efremov V.I. TRIZ asosida bolalarni ijodiy tarbiyalash va o'qitish. - Penza: Unicon-TRIZ, 2000 yil.
10. Mirzayeva Dilfuza (2024). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISHGA OID ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2 (15), 4-14.
11. Axmedova, N. E., & Nuriddinova, M. M. Q. (2023). BOLALARNI IJODIY QOBILYATINI RIVOJLANTIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI.

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA DIDAKTIK IMKONIYATLAR VA HAMKORLIK STRATEGIYALARI

Ruziyeva Dilafro'z Muminovna, Buxoro davlat pedagogika instituti "Texnologik ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

roziyevadilafroz646@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada oliy ta'lim muassasalarida texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida didaktik imkoniyatlardan foydalanish va samarali hamkorlik strategiyalarini ishlab chiqish masalalari chuqur yoritilgan. Ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi faol muloqotni shakllantirish, shuningdek, amaliy mashg'ulotlarda texnologik yondashuvlarni qo'llash muhimligi asoslab berilgan. Mazkur yondashuvlar zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida, innovatsion va interaktiv metodlarni uyg'unlashtirish orqali amalga oshiriladi. Maqolada shuningdek, o'quv jarayonida muammoli vaziyatlar, loyihalash asoslari va guruhlarda ishlash kabi metodlar orqali o'qituvchida muhim kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Hamkorlik strategiyalarining psixologik-pedagogik asoslari ham tahlil qilinib, real ta'lim amaliyotida ularni qo'llash imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Texnologik ta'lim, oliy ta'lim, o'qituvchi tayyorlash, didaktik imkoniyatlar, hamkorlik strategiyasi, interaktiv metodlar, innovatsion yondashuv, kasbiy kompetensiya, muammoli vaziyat, guruhli o'qitish, pedagogik texnologiyalar.

DIDACTIC OPPORTUNITIES AND COLLABORATION STRATEGIES IN TRAINING TECHNOLOGICAL EDUCATION TEACHERS AT HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Ruziyeva Dilafroz Muminovna, Lecturer at the "Technological Education" Department, Bukhara State Pedagogical Institute

roziyevadilafroz646@gmail.com

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the use of didactic opportunities and the development of effective collaboration strategies in the preparation of technological education teachers at higher education institutions. It emphasizes the importance of enhancing the quality of education, encouraging active teacher-student interaction, and applying technological approaches in practical lessons. These strategies are based on modern pedagogical technologies, integrating innovative and interactive methods. The paper also examines how teachers can acquire essential professional competencies through problem-based learning, project work, and group activities. Furthermore, the psychological and pedagogical foundations of collaborative strategies are discussed, with attention to their practical application in real educational settings.

Annotation: This article discusses the methodology for the formation of technical thinking based on interdisciplinary integration in higher technical education. The study uses an integrative approach, project-based learning and problem-based learning methods, and analyzes possibilities of developing students' creative and logical thinking. The results obtained serve to increase the efficiency of technical education and bring it closer to international standards.

Keywords: Technical thinking, interdisciplinary integration, engineering education, project-based learning, problem-based learning, modeling, creative thinking, technological competence

Kirish

Zamonaviy sanoat va ishlab chiqarish jarayonlarida muhandislarning texnik tafakkuri muhim ahamiyat kasb etadi. Texnik tafakkur – bu muhandislik muammolarini tahlil qilish, konstruktiv yechimlarni topish, texnologik jarayonlarni modellashtirish hamda innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyatidir. Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, muhandislik ta'limida texnik tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish uchun

integratsiyalashgan yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, loyihaviy va muammoli ta'lim metodlari keng qo'llanilmoqda. Bugungi globallashtirish davrida texnika oliy ta'limida muhandislik kadrlarini tayyorlash jarayonida fanlararo integratsiya muhim o'rin tutadi. Muhandislik sohasida muvaffaqiyatga erishish uchun faqat nazariy bilim emas, balki turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'ra olish va kompleks muammolarga samarali yechim topish zarur. Shu sababli, texnik tafakkurni shakllantirish metodikasini fanlararo integratsiya asosida ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Oddiy qilib aytganda, texnik tafakkur – bu “texnik narsalarni texnikona o‘ylash” qobiliyati.

Texnik tafakkurning asosiy xususiyatlari:

1. Amaliy yo'naltirilganlik – muammo nazariy emas, balki amaliy jihatdan qanday yechiladi, degan savolni birinchi o'ringa qo'yadi.

2. Tizimli fikrlash – texnik vosita yoki jarayonni alohida emas, balki butun tizim sifatida ko'ra olish.

3. Loyiha va konstruktiv tafakkur – yangi texnik yechimlar ishlab chiqish, mavjudini takomillashtirishga intilish.

4. Algoritmik va mantiqiylik – texnik jarayonlar izchil bosqichlardan iborat bo'lishini anglash va shu asosda qaror qabul qilish.

5. Ijodiylik – nostandart texnik muammolarga yangi, original yechimlar topish.

Texnik tafakkur turlari:

Konstruktiv tafakkur – texnik vositalarni yaratish va loyihalash qobiliyati.

Texnologik tafakkur – ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish.

Texnik-ijodiy tafakkur – yangi texnik g'oyalarni kashf qilish va amalda qo'llash.

Ta'limdagi o'rni

Texnik tafakkurni rivojlantirish:

texnologiya darslari,

laboratoriya va tajriba mashg'ulotlari,

muammoli vaziyatlarni hal qilish,

loyiha asosida o'qitish metodlari orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqot obyekti

Tadqiqot obyekti sifatida texnika oliy ta'limida talabalarda texnik tafakkurni rivojlantirish jarayoni, ya'ni o'quv mashg'ulotlarida fanlararo integratsiya asosida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish mexanizmlari tanlandi.

Qo'llaniladigan metodlar

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalaniladi:

1. Nazariy tahlil – texnik tafakkur va fanlararo integratsiya haqidagi ilmiy manbalarni o'rganish;

2. Kuzatuv va tajriba – talabalarning o'quv faoliyatini kuzatish va amaliy topshiriqlarni bajarish jarayonini tahlil qilish;

3. Loyiha asosida ta'lim (Project-based learning) – integrativ o'quv topshiriqlarini ishlab chiqish. Ya'ni AQSh va Yevropa tajribasi: Talabalarning texnik tafakkurini rivojlantirishda amaliy loyihalarga asoslangan ta'lim keng qo'llaniladi. Masalan, MIT (AQSh) yoki TU Delft (Niderlandiya) muhandislik universitetlarida talabalar sanoat buyurtmachilari bilan hamkorlikda real muammolarni hal qiladi.

Metodik asos: Loyiha jarayonida talabalar muammolarni aniqlash, tahlil qilish, dizayn yaratish va testdan o'tkazish orqali ijodiy-texnik tafakkurni rivojlantiradilar.

4. Modellashirish – texnik muammolarni CAD, MATLAB, ANSYS kabi dasturlar orqali hal qilish.

5. Muammoli ta'lim (Problem-Based Learning)

Kanada, Germaniya tajribasi: Muhandislik fakultetlarida talabalar o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni real texnologik muammolarni hal qilishda qo'llashga o'rgatiladi.

Metodik asos: Talaba mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va texnik yechimlar ishlab

chiqish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

6. STEM va STEAM yondashuvlari

Janubiy Koreya va Yaponiya tajribasi: Muhandislik ta‘limida STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) va STEAM (Art integratsiyasi) metodlari orqali texnik tafakkur ijodiylik bilan uyg‘unlashtiriladi.

Metodik asos: Fanlararo integratsiya talabalarni kompleks tafakkur qilishga, texnik jarayonlarni tizimli ko‘ra olishga o‘rgatadi.

7. Raqamli texnologiyalar va simulyatsiya

Xitoy va Singapur tajribasi: Muhandislik ta‘limida AR/VR, 3D-modellashtirish va raqamli laboratoriyalar keng qo‘llaniladi.

Metodik asos: Virtual tajribalar orqali talabalar murakkab texnologik jarayonlarni xavfsiz va samarali o‘rganib, texnik tafakkurini rivojlantiradilar.

8. Dual ta‘lim tizimi

Germaniya tajribasi: Talabalar nazariy bilimni OTMda, amaliy ko‘nikmalarni esa ishlab chiqarishda oladi.

Metodik asos: Ishlab chiqarish muhitida muammolarni hal qilish jarayonida texnik tafakkur mustahkamlanadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan o‘quv jarayoni talabalarda texnik tafakkurni rivojlantirishda yuqori samaradorlik beradi. Jumladan:

- Talabalar matematik, fizika va informatika bilimlarini yagona tizimda qo‘llashni o‘rganadilar;
- Amaliy loyihalar asosida ishlash ularning ijodkorlik va muammoli vaziyatlarda yechim topish qobiliyatini oshiradi;
- Simulyatsiya va modellashtirish texnologiyalari texnik tafakkurni chuqurlashtirishga yordam beradi;
- Integrativ yondashuv talabalarning texnologik kompetensiyalarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

Ilmiy yangiligi

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, texnika oliy ta‘limida fanlararo integratsiya asosida texnik tafakkurni shakllantirish metodikasi tizimli tarzda ishlab chiqiladi. Shuningdek, integrativ laboratoriya mashg‘ulotlari va loyiha asosida o‘qitish texnologiyalarining samaradorligi amaliy tajribalar orqali isbotlanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, texnika oliy ta‘limida fanlararo integratsiya asosida texnik tafakkurni shakllantirish ta‘lim sifatini oshirishning muhim shartidir. Bu metodika talabalarda ijodiy fikrlash, mantiqiy tahlil, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada, zamonaviy sanoat talablariga mos, xalqaro standartlarga yaqin muhandis kadrlarni tayyorlash imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, texnik tafakkur – bu zamonaviy muhandislik va kasbiy ta‘limning asosi, u nafaqat mutaxassislar, balki texnika bilan ishlovchi har bir shaxs uchun zarur sifat hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayeva M. Pedagogik texnologiyalar va ta‘limda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Karimov A., Qodirov S. Muhandislik ta‘limida integratsion yondashuvlar. – Toshkent: Oliy ta‘lim, 2022.
3. Kolb D. Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. – New Jersey: Prentice Hall, 2015.
4. CDIO Standards 3.0. – [Online resurs]: www.cdio.org
5. STEM Education Framework. – Washington: National Science Foundation, 2020.

6. Sharifovna , T.Z, & Bakhriniso , T. (2020). Modernization of higher education by solving integration problems. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(12 Part II), 44–49.

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA O'QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Odilova Mahfuza Ochilovna, Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarning o'quv faoliyatidagi motivatsiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillar tahlil qilinadi. O'quv motivatsiyasi shaxsning kasbiy rivojlanishga, bilim olishga va o'zini namoyon etishga bo'lgan ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan ichki va tashqi psixik kuchlanish sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada motivatsiyani shakllantiruvchi omillar sifatida shaxsiy qadriyatlar tizimi, o'zini anglash, emotsional barqarorlik, o'z-o'zini baholash, kasbiy identifikatsiya, shuningdek, ta'lim muhitidagi psixologik qo'llab-quvvatlash va pedagogik yondashuvlarning roli chuqur tahlil etiladi. Tadqiqot asosida bo'lajak o'qituvchilarda barqaror o'quv motivatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik yondashuvlar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: bo'lajak pedagog, o'quv motivatsiyasi, psixologik omillar, o'zini anglash, shaxsiy qadriyatlar, o'z-o'zini baholash, kasbiy identifikatsiya, emotsional barqarorlik, ichki motivatsiya, o'quv muhiti.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Odilova Mahfuza Ochilovna, Преподаватель Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье анализируются основные психологические факторы, влияющие на формирование учебной мотивации у будущих педагогов. Учебная мотивация рассматривается как внутренняя и внешняя психическая напряженность, связанная с потребностью личности в профессиональном развитии, получении знаний и самореализации. В статье глубоко рассматриваются такие факторы, как система личных ценностей, самопознание, эмоциональная стабильность, самооценка, профессиональная идентификация, а также роль психологической поддержки и педагогических подходов в образовательной среде. На основе проведенного анализа разработаны психологические подходы и практические рекомендации по формированию устойчивой учебной мотивации у будущих учителей.

Ключевые слова: будущий педагог, учебная мотивация, психологические факторы, самопознание, личные ценности, самооценка, профессиональная идентичность, эмоциональная стабильность, внутренняя мотивация, образовательная среда.

PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE FORMATION OF LEARNING MOTIVATION IN FUTURE EDUCATORS

Odilova Mahfuza Ochilovna, Lecturer at Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: This article analyzes the key psychological factors influencing the formation of learning motivation in future educators. Learning motivation is defined as a form of internal and external psychological drive associated with the individual's need for professional development, knowledge acquisition, and self-realization. The article explores in depth the role of personal value systems, self-awareness, emotional stability, self-evaluation, professional identity, as well as psychological support and pedagogical approaches within the educational environment. Based on the findings, psychological strategies and practical recommendations are proposed for developing sustainable learning motivation among future teachers.

Keywords: future educator, learning motivation, psychological factors, self-awareness, personal values, self-evaluation, professional identity, emotional stability, intrinsic motivation, educational environment.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqobat kuchaygan davrda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligi muhim omil sifatida

qaralmoqda. Ayniqsa, bo'lajak pedagoglarda o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish, ularning kelgusidagi kasbiy o'sishi va mehnat samaradorligini belgilovchi asosiy psixologik omillardan biri hisoblanadi. O'quv motivatsiyasi – bu shaxsning o'z bilim darajasini oshirish, kasbiy kompetensiyalarni egallash va shaxsiy salohiyatni namoyon etish ehtiyojidan kelib chiqadigan ichki turtki hisoblanib, u o'qish jarayonidagi faollikni belgilaydi.

Motivatsiya, ayniqsa ichki motivatsiya, shaxsning maqsad sari ongli harakati, bilimga nisbatan ijobiy munosabati, mustaqil fikrlash va o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji orqali shakllanadi. Bo'lajak pedagoglarning o'quv motivatsiyasi nafaqat ularning oliy ta'limdagi muvaffaqiyatini, balki kelajakda qanday o'qituvchi bo'lishini ham belgilaydi. Shunday ekan, motivatsiyani shakllantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash, ularni tizimli tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish pedagogik psixologiya uchun dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarning o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasini shakllantirishda ishtirok etuvchi psixologik omillar, xususan shaxsiy qadriyatlar, o'zini anglash, emotsional barqarorlik, o'z-o'zini baholash va kasbiy identifikatsiya kabi jihatlar nazariy va amaliy asosda tahlil qilinadi.

Mavzuning dolzarbligi. Zamonaviy ta'lim tizimida pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligini sifatli tashkil etish masalasi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan munosabati, o'zlashtirish darajasi va kasbiy shakllanishi, avvalo, ularning ichki motivatsiyasi darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan motivatsiya – bu shaxsning bilim olish, kasbiy o'sishga erishish va o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish yo'lidagi ichki kuchidir. Shu bois, bo'lajak pedagoglarda o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyani shakllantirishning psixologik asoslarini chuqur o'rganish hozirgi davrda ta'lim psixologiyasining dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatmoqdaki, motivatsiyasi past bo'lgan talabalar ta'limga nisbatan sust munosabatda bo'ladi, kasbiy faollik namoyon etmaydi va kelajakdagi o'qituvchilik faoliyatida yetarli darajada ijtimoiy mas'uliyat sezmaydi. Aksincha, ichki motivatsiyasi rivojlangan talabalar bilim olishga ongli yondashadi, faol, tashabbuskor va mas'uliyatli bo'lib shakllanadi. Bu esa ularning kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlab, kelajakda samarali pedagog bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi.

Shuningdek, o'quv motivatsiyasi nafaqat shaxsiy psixologik holat, balki o'qituvchi-shogird munosabatlari, ta'lim muhitining emotsional iqlimi, o'qitish metodlari va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi bilan ham bog'liq. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak pedagoglarda o'quv motivatsiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini tahlil qilish va samarali yondashuvlar ishlab chiqish zamonaviy ta'lim tizimi uchun dolzarb ilmiy-amaliy vazifadir.

Adabiyotlar tahlili. O'quv motivatsiyasi va uni shakllantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillar psixologiya va pedagogika fanida uzoq yillardan buyon muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu masala yuzasidan olib borilgan ilmiy ishlarda motivatsiya shaxsning ichki ehtiyojlari, ijtimoiy kutishlar, emotsional-ruhiy holatlar va o'qitish muhitining o'ziga xos xususiyatlari bilan bevosita bog'liq jarayon sifatida talqin etiladi.

Motivatsiya nazariyalariga asos solgan olimlardan biri A. N. Leontyev bo'lib, u motivni faoliyatning mazmuniy asosini tashkil qiluvchi psixik komponent sifatida ko'rsatgan. Leontyevga ko'ra, har qanday faoliyat, jumladan o'quv faoliyati ham, motiv asosida shakllanadi va ongli maqsadga yo'naltiriladi. Shuningdek, L. I. Bojovich shaxs rivojida shaxsiy qadriyatlar va ijtimoiy talablarning motivatsiyaga ta'sirini alohida tahlil qilgan.

Zamonaviy motivatsiya nazariyalaridan biri bu amerikalik olimlar E. L. Dessi va R. M. Ryan tomonidan ishlab chiqilgan Self-Determination Theory (O'z-o'zini belgilash nazariyasi) bo'lib, u shaxsning ichki ehtiyojlari – avtonomiya, kompetentlik va bog'liqlik – motivatsiya shakllanishining asosi ekanini asoslaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, talabaning ichki motivatsiyasi uning o'qishga bo'lgan ichki ishtiyoqi, o'z ustida ishlash istagi va faoliyatdan zavqlanish bilan bog'liq bo'ladi.

Mahalliy tadqiqotchilardan Z. M. Musurmonova, A. A. Karimov va G. T. Toshpo‘latova ishlarida ham bo‘lajak pedagoglarning motivatsiyasi, shaxsiy rivojlanishi va o‘quv faoliyatidagi psixologik omillar chuqur yoritilgan. Jumladan, Musurmonova (2021) motivatsiyaning shakllanishida refleksiya, shaxsiy maqsadlar va ijtimoiy tajribaning o‘rni katta ekanini ta’kidlagan. Toshpo‘latova esa ta’lim muhitidagi emotsional iqlim, o‘qituvchi va guruhdoshlar bilan bo‘lgan munosabatlar motivatsiyani kuchaytirishi yoki susaytirishini amaliy dalillar bilan asoslab bergan.

Shuningdek, P. Pintrich va D. Shank (2002) tomonidan ishlab chiqilgan “Motivatsiya va o‘qitish” modeli ta’lim jarayonida motivatsiyaning o‘zgaruvchan tabiati, uning bilim olish samaradorligiga ta’siri, shuningdek, kognitiv va emotsional omillar o‘rtasidagi aloqalarni tahlil qilish imkonini beradi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak pedagoglarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasi – ko‘p qirrali, murakkab psixologik holat bo‘lib, uni shakllantirishga ta’sir qiluvchi omillar tizimli yondashuvni talab qiladi. Shu bois, ushbu mavzuni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish orqali samarali pedagogik-psixologik yondashuvlar ishlab chiqilishi mumkin.

Muhokama. O‘quv motivatsiyasi shaxsning ta’lim jarayonidagi faol ishtirokini, bilimga bo‘lgan intilishini va kasbiy o‘shishga yo‘naltirilgan ongli harakatini ta’minlovchi asosiy psixologik mexanizmdir. Ayniqsa, bo‘lajak pedagoglar uchun bu omil nafaqat ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishish, balki kelajakda kasbiy faoliyatda samarali ishlash uchun ham poydevor vazifasini bajaradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, motivatsiyaning shakllanishi va barqaror rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy psixologik omillar quyidagilar bo‘lib xizmat qiladi: shaxsiy qadriyatlar tizimi, o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholash, emotsional barqarorlik va kasbiy identifikatsiya.

Shaxsiy qadriyatlar tizimi shaxsning o‘z hayotiy maqsadlari va ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi. Qadriyatlar aniq shakllangan bo‘lajak pedagoglar o‘qishni shunchaki zarurat emas, balki shaxsiy ehtiyoj va kasbiy yuksalish vositasi sifatida qabul qiladilar. Bu esa o‘z navbatida motivatsiyaning ichki shaklini kuchaytiradi.

O‘zini anglash va o‘z-o‘zini baholash jarayonlari ham motivatsiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Talabning o‘z kuchiga ishonchi, o‘z salohiyatini anglay olishi, real maqsadlar qo‘yishi uni o‘quv jarayonida faolroq ishtirok etishga undaydi. Refleksiya — ya’ni o‘zini kuzatish, xatti-harakatlari va qarorlarini tahlil qilish — o‘quv faoliyatining samaradorligini oshiruvchi kuchli ichki resursdir.

Emotsional barqarorlik esa o‘quvchining stress holatlariga chidamliligi, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l tutish qobiliyati va o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olish salohiyati bilan bog‘liq. Emotsional jihatdan barqaror shaxsda ichki motivatsiya kuchli bo‘lishi kuzatiladi, chunki u mustahkam psixik asosga ega bo‘ladi.

Kasbiy identifikatsiya — ya’ni o‘zini kelajakdagi kasb bilan bog‘lay olish — motivatsiyani kuchaytiruvchi eng muhim omillardan biridir. Bo‘lajak o‘qituvchi o‘zini pedagog sifatida tasavvur eta olganidan so‘ng, uning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan munosabati ijobiy tus oladi.

Bundan tashqari, o‘quv muhiti — o‘qituvchi va talabalar o‘rtasidagi munosabat, guruh iqlimi, baholash tizimi, metodik yondashuvlar — ham motivatsiyaning shakllanishida sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Shaxsga yo‘naltirilgan va psixologik jihatdan qulay o‘quv muhit ichki motivatsiyani rag‘batlantiradi, tashqi omillarga qaramlikni kamaytiradi.

Bo‘lajak pedagoglar motivatsiyasining shakllanish jarayonida faqatgina individual psixologik omillar emas, balki ijtimoiy-psixologik muhit, ta’lim tizimidagi metodik yondashuvlar va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi ham muhim rol o‘ynaydi. Talabalarda ichki motivatsiyani uyg‘otish uchun ularning shaxsiy imkoniyatlariga ishonch bildirish, o‘zini anglashga sharoit yaratish va o‘quv jarayonida maqsadga yo‘naltirilgan muloqotni ta’minlash talab etiladi.

Motivatsiya shakllanishida tashqi omillar – ya’ni rag‘batlantirish, baholash, raqobat

muhiti, o'qituvchi munosabati – muhim bo'lsa-da, ular vaqtinchalik bo'lishi mumkin. Aksincha, ichki motivlar – shaxsning o'zini namoyon qilish istagi, kasbiy o'zlikni anglash, maqsad sari ichki turtki – uzoq muddatli barqaror motivatsiyani shakllantiradi. Bu esa faoliyat davomida mustahkam kasbiy tayyorgarlik va ijtimoiy mas'uliyat hissining shakllanishiga xizmat qiladi.

Dessi va Rayan (1985) tomonidan ishlab chiqilgan Self-Determination Theory asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ichki motivatsiyaga ega bo'lgan talabalar o'z faoliyatiga mustaqil yondashadi, tashqi baholovchilarning fikriga qaram bo'lmaydi va bilim olish jarayonida faol bo'ladi. Ular o'zining faoliyatini shaxsiy qadriyatlar bilan bog'lagani sababli o'quvdagi qiyinchiliklarga nisbatan ko'proq bardoshli bo'ladi.

Bundan tashqari, refleksiya va metakognitiv yondashuvlar ham bo'lajak pedagoglarning o'z motivatsion holatini tahlil qilish, o'ziga nisbatan ongli baho berish va harakatlarini tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Reflektiv kompetensiyasi rivojlangan talaba o'zining zaif va kuchli jihatlari tahlil qila oladi, bu esa o'z-o'zini rag'batlantirishga olib keladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, motivatsiyani shakllantirishda o'qituvchi shaxsining modeli ham o'ta muhimdir. O'qituvchining ishtiyoqi, muloqot madaniyati, talabalarga nisbatan hurmati va pedagogik yondashuvi motivatsion o'sishga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, bo'lajak pedagoglar bilan ishlayotgan pedagoglarning o'zi ham kasbiy o'rnak bo'lishi kerak.

Shuningdek, ta'lim muhitining emotsional-iqlimiy holati – guruhdagi o'zaro hurmat, ochiqlik, qo'llab-quvvatlov muhitining mavjudligi – talabalarning o'zini xavfsiz his qilishini va o'z fikrini erkin bildirishi imkonini beradi. Bu holat, o'z navbatida, motivatsion resurslarni faollashtiradi.

Xulosa. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bo'lajak pedagoglarda o'quv motivatsiyasi shaxsning ichki ehtiyojlari, shaxsiy qadriyatlari, kasbiy o'zlikni anglash darajasi va psixologik holatlari bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi. Bu motivatsiya ularning ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabati, bilim olishga bo'lgan intilishi, kasbiy o'sishga bo'lgan ishtiyoqi va o'zini anglash darajasini belgilaydi. O'quv faoliyatiga nisbatan barqaror, chuqur ichki motivatsiyaga ega bo'lgan talaba mustaqil fikrlaydi, mas'uliyatni his qiladi va kelajakdagi pedagogik faoliyatga ongli tayyorgarlik ko'radi.

Psixologik omillar ichida ayniqsa o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, shaxsiy qadriyatlar tizimi, emotsional barqarorlik va kasbiy identifikatsiyaning o'quv motivatsiyasi shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, o'quv muhiti, o'qituvchi va guruhdoshlar bilan bo'lgan munosabatlar, baholash tizimi, interfaol metodlar va reflektiv yondashuvlar motivatsiyani oshirishda sezilarli rol o'ynaydi.

Tavsiyalar

1. Psixologik treninglar tashkil etish – Talabalarda o'zini anglash, o'z-o'zini baholash, shaxsiy maqsadlar qo'yish va kasbiy identifikatsiyani rivojlantirishga qaratilgan psixologik treninglar o'tkazilishi lozim.

2. Refleksiya asosida o'quv mashg'ulotlarini boyitish – Har bir dars yakunida talabaning o'z faoliyatiga nisbatan tahliliy fikr yuritishi, o'zini baholashi uchun refleksiya bo'limlari kiritilishi maqsadga muvofiq.

3. O'qituvchi-shogird munosabatlarini sodiq va ijobiy ruhda tashkil etish – O'qituvchining ishtiyoqi, hurmati va shaxsiy yondashuvi talabalar motivatsiyasiga bevosita ta'sir qiladi.

4. Emotsional-iqlimiy muhitni sog'lomlashtirish – Guruhdagi ochiqlik, hurmat, yordamga tayyorlik kabi fazilatlar rag'batlantirilsin. Psixologik xavfsizlik hissi ichki motivatsiyani kuchaytiradi.

5. Interfaol metodlar va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar qo'llanilishi – Talabalarni faollashtiruvchi, mustaqil fikr yuritishga undovchi va kreativlikni rag'batlantiruvchi pedagogik metodlar ustuvorlik kasb etishi zarur.

6. Individual rivojlanish rejalari ishlab chiqish – Har bir talabanning ichki motivatsiyasi, o‘ziga xosligi, ehtiyojlari va kasbiy yo‘nalishiga asoslangan shaxsiy rivojlanish rejasi tuzish foydali bo‘ladi.

7. Kasbiy mahorat darslarida psixologik komponentlarni kuchaytirish – Faqat nazariy bilim emas, balki shaxsiy o‘shishga, o‘z ustida ishlashga yo‘naltirilgan topshiriqlar ham tizimli ravishda kiritilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975. – 304 с.
2. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – М.: Педагогика, 1968. – 464 с.
3. Деси Э.Л., Райан Р.М. Внутренняя мотивация и самоопределение в человеческом поведении. – СПб.: Речь, 2008. – 512 с.
4. Pintrich P.R., Schunk D.H. Motivation in Education: Theory, Research, and Applications. – Upper Saddle River, NJ: Pearson/Merrill Prentice Hall, 2002. – 448 p.
5. Ryan R.M., Deci E.L. Self-determination theory: Basic psychological needs in motivation, development, and wellness. – New York: Guilford Press, 2017. – 756 p.
6. Musurmonova Z.M. Talabalarda o‘quv motivatsiyasi shakllanishining psixologik xususiyatlari. – Toshkent: TDPU, 2021. – 198 b.
7. Toshpo‘latova G.T. Kasbiy motivlarni shakllantirishda shaxsiy yondashuvning o‘rni. // “Pedagogik mahorat” ilmiy-amaliy jurnali. – 2020. – №2. – B. 44–49.
8. Karimov A.A. Shaxsda o‘quv motivatsiyasining rivojlanish omillari. // “Psixologiya va ta’lim” jurnali. – 2022. – №3. – B. 61–65.
9. Vallerand R.J. Toward a hierarchical model of intrinsic and extrinsic motivation. // Advances in Experimental Social Psychology. – 1997. – Vol. 29. – P. 271–360.
10. Qodirova B.T. Ta’lim muhitining psixologik iqlimi va motivatsiya. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2019. – 142 b.

INKLYUZIV MAKTABLARNING OLIY TA'LIM BILAN HAMKORLIGINI TA'MINLASH

Do'stmurodova Mohinur, Buxoro Xalqaro Universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi
yo'nalishi 2- bosqich talabasi
mokhinurdostmurodova@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada maktab faoliyatida inklyuziv ta'limning o'rni yutuqlari, bugungi kunda amalga oshirilayotgan yutuqlar hamda oliy ta'lim muassasalari bilan bog'liqligi haqida fikrlar yuritiladi. Bugunning zamonaviy pedagoglarida inklyuziv muhit haqida tushunchalari qay darajada ekanligi, ilmiy salohiyati, pedagogik kompetentligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar : integratsiya, aloqa, modernizatsiya, kadrlar tayyorlash, umumiy, maxsus, ijtimoiy integratsiya.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА ИНКЛЮЗИВНЫХ ШКОЛ С ВЫСШИМ ОБРАЗОВАНИЕМ

Дустмуродова Мохинур, Студентка 2-го курса направления "Теория и история
педагогики"
Бухарского Международного Университета
mokhinurdostmurodova@gmail.com

Аннотация: В этой статье обсуждаются достижения инклюзивного образования в школе, сегодня, что она связана с достижениями и показателями достижений и высших учебных заведений. Сегодня в современных преподавателях сегодня говорят концепции концепций о степени, научном потенциале, педагогической компетентности.

Ключевые слова: интеграция, общение, модернизация, обучение, общая, специальная, социальная интеграция.

ENSURING COOPERATION OF INCLUSIVE SCHOOLS WITH HIGHER EDUCATION

Mohinur Dustmurodova, 2nd-year student in the field of "Theory and History of Pedagogy"
Bukhara International University
mokhinurdostmurodova@gmail.com

Annotation: This article discusses the achievements of inclusive education in the school, today that it is related to the achievements and the rates of achievements and higher education institutions. Today, in the modern teachers of today speak the concept of concepts about the degree, scientific potential, pedagogical competence.

Keywords: Integration, communication, modernization, training, general, special, social integration.

Ta'lim tizimining rivojlanishi ijtimoiy hayotda insonlar ongida yangi va qulay bo'lgan hodisalarni keltirib chiqarmoqda, bunga misol qilib, ijtimoiy inklyuziyani konsepsiyasi keltirish mumkin. Hozirgi vaqtda alohida ta'limga muhtoj bolalarning ijtimoiy integratsiyalashuvi, ularning tengdoshlari bilan bir xil darajada bolalar bog'chalari va umumta'lim maktablarida ta'lim xizmatlaridan foydalanish dasturlarini qo'llab-quvvatlash rivojlanayotgan jamiyatning zamonaviy va yetuk ijtimoiy siyosatining ko'rsatkichidir. Shunga ko'ra ning barcha aspektlarida inklyuziv ta'limni uchratish mumkin bo'ladi va inklyuziya bu siyosat darajasida tan olindi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50- moddasida "ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi"⁵. Bundan tashqari "Ta'lim to'g'risidagi qonun"⁶ning 55-moddasida jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonga ega bo'lgan bolalarni ta'limga jalb qilish haqida fikr yuritiladi. Shu asosida "638-sonli Vazirlar mahkamasining qarori ishlab chiqildi. Unga ko'ra

⁵ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://www.constitution.uz/u>

⁶ Ta'lim to'g'risidagi qonun.

alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish uchun, ularning tibbiy va ta'lim imkoniyatlarini yaxshilashga qaratilgan chora tadbirlar ishlab chiqilgan.

Inklyuziv ta'lim — alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlagan holda beriladigan ta'lim; Inklyuziv ta'lim barcha ta'lim tashkilotlarida imkoniyati cheklangan bolalarning bilim, ta'lim, tarbiya olishi bikan cheklanib qolmay, balki sog'lom bolalar ham o'z tengdoshlari qatorida qo'shib ular bilan hamfikir do'stona muhit yaratib hech qanday to'siqlarsiz kommunikatsiyaga kirishish, jamiyat o'rtasida ijtimoiy bag'rikenglikni ta'minlashdan iborat.

Inklyuziv ta'limning maqsadi — alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat. Inklyuziv ta'limda o'quvchilarning barcha imkoniyatlarini inobatga olish, sog'lom bolalar bilan aloqasini mustahkamlash ishlarini olib borish, imkoniyati cheklangan bolalar uchun moddiy texnik bazani yangilash, infrastrukturani yaratish, maxsus pedagoglarlar va defektologlarni jalb qilish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Inklyuziv maktab- inklyuzif sinflar tashkil qilingan maktablar bo'lib ular bolalarni shaxsiy va umumiy huquqlarini himoyasiga oladi. Ta'lim oluvchilarni turlicha, sog'lom va imkoniyati cheklangan bola uchun imkoniyat yaratib beruvchi, ularning imkoniyatlarini to'laqonli ochib beruvchi dargoh hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarda inklyuziya jarayoni bir qancha murakkabliklarga ega. Inklyuziv ta'limda ishlaydigan mutaxassislardan alohida sabr toqat va mashaqqatli mehnat talab qiladi, sababi har bir bola va uning nuqsoni individual bo'lib, umumiy berilgan darsliklar va o'quv metodik ishlar bu bolaga o'g'irlik qilishi va darslarni o'zlashtira olmasligi mumkin. Bundan tashqari, sog'lom bolalar bilan imkoniyati cheklangan bolalar o'rtasida jismoniy tafovudlar mavjudligi sababli, o'z tengdoshlari orasida tortinchoqlik, o'zidan uyalish yoki jamoa oldida masxara bo'lishdan qo'rqish kabi holatlar bo'lishi, yoki ba'zi oilalarda bunday bolalar avaylangani asrangani tufayli haddan tashqari erka, qaysar bo'lib qoladilar. Inklyuziv sinflarda sinf rahbari maktab jamoasi, fan o'qituvchilari, kasbiy mahorat ustalari birgalikda faoliyat olib borishlari kerak.

Inklyuziv sinflar tashkil etilgan umumta'lim maktablarda resurs o'qituvchi ya'ni defektolog faoliyat yuritib uning ish tajribasi hamda salohiyati bu bolalarning hayotga tez va oson moslashishlari uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Chunki maxsus pedagog nafaqat o'zi shunday bolalar bilan guruhli va individual dars mashg'ulotlari tashkil qiladi, balki sinf rahbari va fan o'qituvchilariga ham bolaning individual salohiyatiga qarab maslahat va ko'magini bera oladi, sinfdoshlari orasida iliq muhitni yarata oladi. Bundan tashqari sinfning moddiy texnik bazasini tashkillashtirishda, metodik yordam ishlari, qo'shimcha metodikalar bilan bolaning umumiy sog'ligiga ta'sir qilmagan holda dars jarayonlarida qatnashadi. Bolalar bilan qiziqarli o'yinlar tashkil qiladi va tibbiy sog'ligiga e'tibor qaratadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida ta'limga katta e'tibor qaratilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida bolalarga qulay muhit yaratish, ularga yetarli kitoblar hamda texnikalar bilan jihozlanishi, shart sharoitlar yaratish bilan birgalikda inklyuziv muhitni tashkil borasida ham ishlar amalga oshirilyapti. Raqamlarga qaraydigan bo'lsak, 2022-2023-o'quv yilida inklyuziv ta'lim joriy etilgan umumta'lim maktablari soni 195 taga yetib, ularda 504 nafar imkoniyati cheklangan bolalar inklyuziv ta'limga qamrab olindi. Tashkil etilgan inklyuziv sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchilarga 2021-2022 o'quv yilida 51 nafar, 2022-2023 o'quv yilida esa 248 nafar pedagoglar birlashtirildi.

2023-2024 o'quv yilining 15-sentyabr holatiga kelib 208 ta tuman (shahar) larning 417 ta maktablarida inklyuziv sinflar tashkil etilib, unga ayni paytda 734 nafar o'quvchilar qamrab olingan

Inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich rivojlantirib borish maqsadida inklyuziv ta'lim

joriy etilgan maktablar soni 415 taga, ulardagi o'quvchilar soni 736 nafarga yetdi. Inklyuziv ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi 1431 nafar pedagog xodimlarning malakasi oshirilib, sertifikat taqdim etildi. Bugungacha bu borada olib borilayotgan islohotlar va ularning natijalarini ko'rish quvonarli albatta, biroq, yechimini kutatgan muammolar ham bir qancha ekanligini aytish joizdir. Bunday masalalardan biri, oliy ta'lim muassasalari bilan umumta'lim maktablarining aloqasini ta'minlash, kadrlar malakasini oshirish, inklyuziv muhitni yaxshilovchi pedagoglarni jalb qilish va ularning intellektual salohiyatini oshirish kerak.

Oliy ta'lim tizimini inklyuziv ta'limda umumta'lim maktab bilan bog'liqligini ta'minlash uchun pedagoglarning inklyuziv kompetentligini oshirishga e'tibor qaratish kerak. Bo'lajak o'qituvchilar nafaqat o'z kasbini samarali olib boorish ko'nikmasining mohir ustasi, balki inklyuziv ta'lim jarayonida ta'lim berish funksiyasini bilish har bir bolalarning nuqsoni haqida tushunchaga ega bo'lish, sog'ligi bilan muammolarga duch kelganda kerakli yordamni zudlik bilan bera olish ko'nikmasiga ega bo'lishlari kerak. Bo'lajak o'qituvchilarda inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirish uchun o'quv modullari tarkibiga kreativ texnologiyalarni singdirish maqadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilar bilan professor-o'qituvchilar orasida ijodiy hamkorlik, o'quv materiallarinibirgalikda tahlil qilish, ishchan dialogga kirishish muhim ahamiyatga ega. Chunki dialog jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning inklyuziv kompetensiyalari namoyon bo'ladi. Oliy pedagogik ta'lim jarayoniga kognitiv yondashuvni tatbiq etish bo'lajak o'qituvchilarning ijodiyfikrlash usullarini o'zlashtirishlariga ko'maklashadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlalatimizda inklyuziv ta'limni ta'lim oluvchilarning ijtimoiy ehtiyojlarini, va shaxsiy mafaatlaridan kelib chiqqan holda fan, texnika va ishlab chiqarishda qo'llash uchun maktablarning faoliyati beqiyosdir. O'quvchilarning imkoniyatlarini kengaytirish o'quvchilarda inklyuziv kompetentlikni shakllantirish, maktablarda inklyuziv sinflarning yaratilishi va maktab jamoasining bunga tayyor ekanligini bugunning va wrtaning yutuqlaridan biri. Inklyuziv maktablarda maxsus pedagoglarning roli va oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagoglarni inklyuziv kompetensiyalar va kognitiv fikrlar asosida o'qitish bugungi kunda inklyuziv muhitni rivojlantirishning muhim uchburchagidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi <https://www.constitution.uz/u>
2. 23.09.2020 yil "Ta'lim to'g'risidagi qonun." 20-56- moddalar <https://www.lex.uz//u>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-son qaror.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida qarori, 12.10.2021 yildagi 638-son
5. "INKLYUZIV TA'LIMDAN INKLYUZIV JAMIYAT SARI: STRATEGIYALAR, TAJRIBALAR VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR" MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI 2024-YIL 17-MAY 118-bet
6. икитина В.В. Роль наставничества в современном образовании / В.В. Никитина //Отечественная и зарубежная педагогика, 2013- С. 50-56

MUSIQA VA TASVIRIY SAN'AT

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MUSIQIY TA'LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH

Nematov Doniyor Yunusovich, Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil
izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqiy ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi, ularning samaradorlikni oshirishdagi o'рни va ta'siri yoritilgan. Musiqiy-pedagogik faoliyatda o'qituvchining mahorati, yangi texnologiyalarni qo'llash darajasi hamda milliy musiqiy merosdan foydalanish muhim omillar sifatida ta'kidlanadi. Shuningdek, Al-Farobiy, Ibn Sino va Alisher Navoiyning musiqaga oid qarashlari tahlil qilinib, musiqaning estetik, tarbiyaviy va ma'naviy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot musiqiy ta'limni modernizatsiya qilish, texnologiyalashtirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan shaxs tarbiyasini ta'minlash masalalarini qamrab oladi.

Kalit so'zlar: musiqqa ta'limi, zamonaviy texnologiyalar, pedagogik mahorat, milliy meros, innovatsion metodlar, musiqiy tarbiya, estetik did, musiqqa nazariyasi, musiqqa asboblari, musiqiy-pedagogik faoliyat, Farobiy, Ibn Sino, Navoiy, musiqqa savodxonligi, jamoaviy qo'shiq, musiqiy go'zallik, ma'naviy tarbiya, ta'lim modernizatsiyasi, musiqiy meros, shaxs kamoloti.

МОДЕРНИЗАЦИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Нематов Дониёр Юнусович, независимый соискатель Бухарского государственного
педагогического института

Аннотация. В статье рассматриваются тенденции внедрения современных технологий в процесс музыкального образования, их роль в повышении эффективности и качестве обучения. Подчеркивается значение педагогического мастерства учителя, уровня использования инновационных технологий и обращения к национальному музыкальному наследию. Анализируются взгляды Аль-Фараби, Ибн Сины и Алишера Навои на музыку, раскрывается её эстетическая, воспитательная и духовная значимость. Исследование охватывает вопросы модернизации, технологизации музыкального образования, а также воспитания личности на основе национальных и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: музыкальное образование, современные технологии, педагогическое мастерство, национальное наследие, инновационные методы, музыкальное воспитание, эстетический вкус, теория музыки, музыкальные инструменты, музыкально-педагогическая деятельность, аль-Фараби, Ибн Сина, Навои, музыкальная грамотность, хоровое пение, музыкальная красота, духовное воспитание, модернизация образования, музыкальное наследие, развитие личности.

MODERNIZATION OF MUSIC EDUCATION BASED ON MODERN TECHNOLOGIES

Doniyor Yunusovich Nematov, Independent Researcher at Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract. This article examines the trends of introducing modern technologies in music education and their role in improving efficiency and learning outcomes. The importance of teachers' pedagogical skills, mastery of innovative methods, and the integration of national musical heritage are emphasized. The views of Al-Farabi, Ibn Sina, and Alisher Navoi on music are analyzed, highlighting its aesthetic, educational, and spiritual significance. The study addresses the modernization and technologization of music education, as well as the formation

of well-rounded individuals grounded in national and universal values.

Keywords: music education, modern technologies, pedagogical skills, national heritage, innovative methods, music upbringing, aesthetic taste, music theory, musical instruments, music-pedagogical activity, Al-Farabi, Ibn Sina, Navoi, music literacy, choral singing, musical beauty, spiritual education, educational modernization, musical heritage, personality development.

Kirish. Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim mazmuni jahon talablari va ilg‘or andozalarga mos holda yangilanib, o‘z-o‘zidan emas, balki tajribali pedagog-olimlar, metodistlar hamda dunyo miqyosida erishilgan pedagogik yutuqlar asosida takomillashib bormoqda. Shu sababli ham bugungi islohotlar bosqichida ta’lim tizimini yangicha yondashuvlar bilan rivojlantirish, axborot oqimi tezlik bilan kuchayib borayotgan va raqamli texnologiyalar jadal sur‘atlarda rivojlanayotgan zamonda yosh avlod tarbiyasi uchun mas‘ul, ijodkor va zamonaviy fikrlaydigan o‘qituvchilarni shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

Asosiy qism. Mavjud tajribalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ta’lim mazmuni qanchalik yangilanmasin, mukammal o‘quv dasturlari, darsliklar yaratilmasin, o‘quv – tarbiya jarayonining samaradorligini ta‘minlashda o‘qituvchining pedagogik mahorati, yangi ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirishi va ulardan ta’lim jarayonida unumli va o‘rinli foydalana olishiga bog‘liq bo‘ladi.

Fikrimizning isboti sifatida mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-sonli “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorining birinchi bo‘limi A bandida:

- musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o‘quv soati hamda unga qo‘shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg‘ularida kuy ijro etish amaliy to‘garaklari va fakultativ darslari o‘tkaziladi;

- musiqa san‘ati bo‘yicha professional ta’lim hamda oliy ta’lim to‘g‘risidagi hujjatga ega bo‘lgan, kamida 3 ta milliy musiqa cholg‘ularida mahorat bilan kuy ijro eta oladigan mutaxassislarni asosiy ish joyidan bo‘sh vaqtida u yerdagi mehnatga haq to‘lash shartlarini saqlab qolgan holda o‘rindoshlik asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalari musiqa fani o‘qituvchisi va musiqa yo‘nalishidagi to‘garak rahbari lavozimiga to‘liq stavkada ishga qabul qilishga ruxsat beriladi.

Inson hayotini musiqa san‘atisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. San‘at kishilarga faqatgina ma‘naviy ozuqa beribgina qolmasdan, jismoniy kamolotga erishuvda ham muhim o‘rin egallaydi. Musiqa san‘atining axloqiy-estetik tarbiyadagi rolini to‘g‘ri his etib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini aslo unutmaslik zarur.

Musiqiy go‘zallik insonning ma‘naviy qiyofasi shakllanishida muhim omildir. VIII-XII asrlarda Sharqshunoslik tarixida “Sharq yoki musulmon Renessansi” davri deb nom olgan davr. Sharqda O‘rta asrlardagi barcha taraqqiyotlarning eng yuksak cho‘qqisi hisoblanadi. Abu Yusuf Yoqub ibn Is‘hoq al-Kindiy, Abu Nasr ibn Muhammad al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino va boshqalar shu davrning ajoyib vakillari bo‘lganlar. Al-Farobiyning musiqaga bag‘ishlangan “Kitob ul-musiqiy al-Kabr” (“Musiqa haqida katta kitob”) asarida yozilishicha musiqa haqidagi fan amaliy va nazariy sohalardan iborat. Birinchisi musiqiy asboblarning yordamida musiqiy asarlarni ijro etishga oid. Ikkinchisi esa ohanglarning kelib chiqishi va musiqiy asarlarni yaratilish qonunlarini o‘rganadi. Farobiyning ta‘biricha san‘at, shu jumladan, musiqa ilohiy ne‘mat emas, balki inson ijodining mahsulidir. Uning vazifasi insonga o‘z intellektual va axloqiy sifatlarini takomillashtirishda foydali bo‘lishidan iborat.

Musiqa haqida Ibn Sino o‘zining besh asarida yozgan. Bu “Kitob ash-shifo”, (“Shifo kitobi”) nomli ko‘p jildlik qomusiy asarning musiqa haqidagi bo‘limidir. Ibn Sinoning ta‘rificha san‘at, jumladan, musiqa fandir. Bundan san‘atning “aql bilan idrok etish” yoki “buyumlarning bilish” mohiyati kelib chiqadi. Ibn Sino musiqaning tarbiyaviy mohiyatini alohida ta‘kidlab o‘tgan. Bunda san‘at vositasi orqali estetik didni tarbiyalashga asosiy e‘tibor qaratilgan. Buyuk olim ta‘kidlaydiki, shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun ikki tomonlama-jismoniy

barkamollik uchun jismoniy mashqlar, ma'naviy rivojlanishi uchun musiqa va boshqa san'at turlari orqali ta'sir o'tkazish lozim.

She'riyat mulkingning sultoni Alisher Navoiy nozik ta'b, yuksak zakovat egasi sifatida musiqani sevib tinglar, dil-dildan zavqlanardi. Shoir talantli san'atkorlarga hamisha g'amxo'rlik qildi, yoshlarning kamoloti uchun tinmay qayg'urdi. Insonning kamolotga yetishuvida asosiy rol o'ynovchi vositalardan biri - musiqa san'atidan bahramand bo'lish deb bildi. "Musiqani idrok etmagan shoir nim shoirdir",- deydi Navoiy. Bu kalima shoir estetik qarashlarining mohiyatini yaqqol ko'rsatadi. [4; 6-b]

Hozirgi kunda respublikamizda fan va ta'limning moddiy, uslubiy bazasi mustahkamlanib, o'quv – uslubiy, ilmiy, innovatsion, zamonaviy vositalar mukammallashib o'quv jarayoniga tadbiiq qilinmoqda. Zero, didaktikaning predmeti o'rgatish, o'rganish hamda ta'lim mazmunidan iborat. Bu uchala komponentdan birortasini e'tiborda tutmaslik ta'lim mazmunini yo'qqa chiqaradi. Shunga ko'ra aytish joizki, musiqani o'rgatish ham, o'rganish ham ularning oxirgi natijasi ham musiqa fanidan beriladigan ta'lim mazmuniga bog'liqdir.

Musiqiy-pedagogik faoliyatning natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog'liqdir. Uning mehnati esa yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo'naltirilgan. Musiqiy-pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligini, ya'ni ketma-ketligini ta'minlashga xizmat qiladi. Musiqiy faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog'liqdir va bunda musiqiy-pedagogik maqsad o'quvchi maqsadiga aylanishi juda muhimdir. V.Gyote ta'kidlaganidek: "Ishonch bilan gapir, ana shunda so'z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o'z-o'zidan kelaveradi" [8; 11-b].

Bundan ko'rinib turadiki, musiqiy mahorat turli ilmiy nazariyalarga ko'ra o'zining bir nechta kategoriyalariga ega.

Xususan,

- pedagogik mahorat musiqiy-kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin sifatida tushuniladi;
- pedagogik mahorat kategoriyasi musiqiy-kasbiy faoliyat nuqtai nazardan kishining individualligini xarakterlaydi;
- mahorat o'quvchilar tomonidan uning ijtimoiy yetuklikka erishish darajasiga qarab bosqichma-bosqich egallanadi. Ijtimoiy yetuklik komponentlari pedagogik musiqiy-mahorat komponentlari bilan nisbatda bo'ladi.

Hozirgi sharoitda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari taraqqiyotga mos maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatlarini beruvchi modelli tizimga, ya'ni musiqiy ta'limni texnologiyalashtirishga aylanib bormoqda. Shu tufayli fan sohalarining barchasida bo'lgani kabi musiqiy ta'limda ham yangi texnologiyalarga e'tibor kuchayib bormoqda. Zero, ta'limni demokratlashtirish, individuallashtirish, tabaqalashtirish, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyillari asosida barcha o'quv predmetlari qatori musiqa predmeti bo'yicha ham o'qitish Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda musiqiy ta'lim mazmunini milliy negizda shakllantirish, milliy musiqiy merosdan to'laqonli foydalanish, xalq kuy – qo'shiqlari, doston, mumtoz va maqom hamda ularning ta'sirida yaratilgan zamonaviy musiqalar vositasida o'quvchi yoshlarni milliy qadriyatlarimizni teran anglaydigan, vatanga, tariximizga, san'atimizga ongli munosabatda bo'ladigan va unga vorislik qila oladigan ma'nan yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash asosiy maqsad va vazifa sifatida ko'rsatilgan.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar musiqa san'atini butun nafosati bilan o'rganishlari, idrok etishlari ommaviy musiqa faoliyatlari: musiqa tinglash, tahlil qilish, jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, nazariy bilimlarni o'zlashtirish (musiqa savodxonligi), raqsga tushish, bolalar cholg'u asboblari chalish va musiqaga ritmik jo'r bo'lish masalalarini shakllantirish musiqiy ta'limning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Pedagogik texnologiyalarni barcha turlarida birdek qo'llaniladigan va ta'lim-tarbiya jarayonini tadrjiiy tarkib topishida va rivojlanib borishida hal qiluvchi omillar hamda tarkibiy elementlar uch xil faoliyatdan iborat bo'lib, ular so'zlash, ko'rsatish va mashqlar bajarishdan iborat bo'lib, musiqa darslariga uni tadbiiq etilganda o'ziga xos ketma-ketlik va bog'liqlikda

amal qiladi.

Xulosa. Yangi O'zbekiston sharoitida ta'lim tizimining jahon andozalari asosida takomillashib borishi bevosita pedagoglarning yangicha fikrlashi, zamonaviy texnologiyalarni chuqur o'zlashtirishi va ta'lim jarayonida ularni samarali qo'llay olishiga bog'liq. Shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli davrda ijodkor, mas'uliyatli va innovatsion qarashlarga ega o'qituvchilarni tarbiyalash orqali ta'lim sifatini oshirish, yosh avlodni barkamol shaxs sifatida shakllantirish imkoniyati kengayadi. Intellektual rivojlanish orqali yangi texnologiyalar yordamida yoshlar keng ko'lamlil bilim va ko'nikmalarni tezroq egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunda ijodiy fikrlashda ta'limda zamonaviy yondashuvlar ularning ijodkorligini rivojlantirib, yangilikka intilishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov Q.M., Ismoilov O.A. Yangi pedagogik texnologiyalar va ularni joriy qilish muammolari. –T.: «Fan va texnologiya», 2012, 36-b.
2. Karimova D. «Musiqiy pedagogik mahorat asoslari»Toshkent., «Moliya», TDPU., 2008-yil
3. O'.Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. "Fan". 2005 y.-205 b.
4. Omonov H.T. Xo'jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: «Iqtisod-moliya». 2009. -240 b.
5. O'tkir Tolipov. Dilnoz Ro'ziyeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" (O'quv qo'llanma) -Toshkent: "INNOVATSIYA-ZIYO", 2019, 276 b.
6. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. "Moliya " nashriyoti, 2003 y. – 171 b.
7. T.G'afforova, A.Qurbonov, E.Godfri. "Ta'limning ilg'or texnologiyalari". Qarshi "Nasaf". 2003y.-112 b.
8. U. Tolipov, M.Usmanbayeva. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. T. "Fan". 2005.
9. Lex.uz hukumatning qonun hujjatlari portal – Sh.M.Mirziyoyev – "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 112-son qaror.

ANIQ VA TABIIY FANLAR

AMALIY MATEMATIKA TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHNING DOLZARB MASALALARI

Bozorov Dilshod Tuyg'unovich, Buxoro davlat pedagogika instituti

Email: dilshodbozorov644@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada oliy ta'lim muassasalarida Amaliy matematika yo'nalishi talabalari ta'lim jarayonida dasturiy vositalardan foydalanishning maqsad va vazifalari yoritilib, ularning yordamida o'qitish samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, ishlab chiqilgan dasturiy vositalarning pedagogik talablarga mos ravishda algoritmlash va dasturlashda qo'llanilishi hamda talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik talab, dasturiy vosita, zamonaviy axborot texnologiyalari, raqamli siyosat, virtual kutubxona, mobil o'quv dasturl, virtual laboratoriya, geymifikatsiya, raqamli ta'lim.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ НАПРАВЛЕНИЯ ПРИКЛАДНОЙ МАТЕМАТИКИ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Bozorov Dilshod Tuygunovich, Buxarский государственный педагогический институт

Email: dilshodbozorov644@gmail.com

Аннотация. В статье раскрыты цели и задачи использования программных средств в образовательном процессе студентов направления прикладной математики в высших учебных заведениях, проанализированы вопросы повышения эффективности обучения с их применением. Кроме того, научно обосновано использование разработанных программных средств в соответствии с педагогическими требованиями при алгоритмизации и программировании, а также их значение в развитии знаний, умений и навыков студентов.

Ключевые слова: педагогическая потребность, программный инструмент, современные информационные технологии, цифровая политика, виртуальная библиотека, мобильная учебная программа, виртуальная лаборатория, геймификация, цифровое образование.

TOPICAL ISSUES OF PREPARING APPLIED MATHEMATICS STUDENTS FOR TEACHING ACTIVITIES

Bozorov Dilshod Tuygunovich, Bukhara State Pedagogical Institute

Email: dilshodbozorov644@gmail.com

Annotation. The article highlights the goals and objectives of using software tools in the educational process of Applied Mathematics students at higher education institutions and analyzes the issues of increasing teaching efficiency through their application. In addition, the use of the developed software tools in accordance with pedagogical requirements for algorithmization and programming, as well as their significance in enhancing students' knowledge, skills, and competencies, is scientifically substantiated.

Key words: pedagogical need, software tool, modern information technologies, digital politics, virtual library, mobile learning program, virtual laboratory, gamification, digital education.

Kirish. Bugungi kunda jahon oliy ta'lim tizimida fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan faoliyat natijalaridan keng foydalanish, jamiyat

hamda davlat hayotining barcha jabhalarini barqaror va izchil rivojlantirish mamlakatimizning munosib kelajagini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Buyuk Britaniyaning Stirling universiteti olimi Ben Williamson o'z ilmiy izlanishlarida raqamli ta'limning asosini tashkil etuvchi dasturiy vositalar, ularning qo'llanilishi va tahliliga oid quyidagi fikrlarni ilgari suradi: "Ta'limni boshqarish jarayonida raqamli siyosiy mexanizmlar va ma'lumotlar infratuzilmasi ta'limning ijtimoiy "haqiqat"ini yoritishda hamda boshqaruvning yangi usullarini joriy qilishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli ta'limning tayanchini tashkil qiluvchi dasturiy yechimlarni ishlab chiqish – interfaol vizualizatsiya hamda grafik imkoniyatlari orqali auditoriyalarga ijtimoiy faoliyatning muayyan shakllarini taklif etishga qaratiladi [1].

Bizgacha bo'lgan tadqiqotchi olimlar o'z ilmiy izlanishlari natijasida raqamli texnologiyalarga asoslangan ta'lim platformasidan foydalangan holda ta'lim tizimida o'quv jarayonini boshqarishning kompleks yechimdir, degan xulosaga keladi. Platforma – bu o'quv, boshqaruv va kommunikativ ta'lim funksiyalarini ta'minlaydigan dasturiy ta'minotlar to'plami bo'lib, ular quyidagi:

- ta'lim funksiyasi: bulutli texnologiyalar asosida elektron ta'limni tashkil etish, eng yaxshi tajribalarni aniqlash, sintez qilish va tarjima qilish, turli toifadagi ta'limi xodimlarini masofadan o'qitish va qayta tayyorlash;
- boshqaruv funksiyasi: o'quv jarayonini onlayn boshqarish, sozlanish ko'rsatkichlari (jadvallar, reytinglar), metodik ta'minot, raqamli o'quv materiallari va nazorat va baholash vositalarini ishlab chiqish va tekshirish;
- kommunikativ funksiya: kollejlarda, tarkibiy bo'linmalar, ish beruvchilar, talabalar, o'qituvchilarning tarmoqdagi o'zaro munosabati; vebinarlar, videokonferensiyalar o'tkazish kabi funksiyalarni o'z ichiga oladi [2].

Mobil o'quv dasturlari, odatda, aniq bir maqsadni ko'zlagan holda ishlab chiqilgan bo'lib, ular ko'proq imtihonlarga tayyorgarlik jarayonida yoki xorijiy tillarni o'rganishda keng qo'llanib kelingan. Biroq bugungi kunda bunday dasturlar funksional imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. Xususan, ular onlayn kurslarni tashkil etish, xotirani rivojlantirish va mustahkamlashga xizmat qiluvchi dasturlarni yaratish, maxsus qurilmalar yordamida tibbiy tashxis qo'yish hamda foydalanuvchiga individual tavsiyalar berish, shuningdek, "aqlli ta'lim" (smart education) konsepsiyasi asosida murakkab o'quv jarayonlarini amalga oshirish kabi ko'plab vazifalarni bajarishga qodir bo'lib bormoqda [3].

Endi ta'lim tizimida qo'llaniladigan zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida yaratilgan dasturiy vositalar turlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ular:

- ✓ virtual kutubxona dasturlari – bitta yoki bir nechta kompyuter tizimlarida mavjud bo'lgan resurslar to'plamini bitta interfeys yoki to'plamga kirish nuqtasi orqali taqdim etuvchi dasturiy vositalar;
- ✓ virtual laboratoriya dasturlari – simulyatsiya tajribalarini yaratish va o'tkazish uchun interfaol muhitli tajribalar uchun ishlab chiqilgan dasturiy vositalar;
- ✓ virtual universitet – virtual ta'lim muhitidagi universitetning modeli, ya'ni ta'lim xizmatlarining barcha turini taqdim etadigan multi- servisli virtual dasturiy vositalar;
- ✓ geymifikatsiya – ta'lim jarayonida motivatsiya berish va ishtirok etish darajasini oshirish uchun ta'lim muhitida o'yin prinsiplari va mexanizmlarini joriy etishda foydalaniladigan dasturiy vositalar;
- ✓ geymifikatsiya ishtirokchilarni jarayonga ko'proq jalb qilish uchun o'yin usullarini o'yinlardan tashqari jarayonlarga va voqealarga moslash- tirish texnologiyasi hisoblanib, ilovalarda motivatsion ruhni vujudga keltiruvchi nostandart tushuncha sifatida qaraladi [4].

Ta'lim tizimida "geymifikatsiya" atamasi nemis olimi S. Deterding tomonidan 2011-yilda ilk marotaba qo'llanilgan. Olimning nuqtai nazarida, o'yinlarni loyihalashtirish o'yinlar kontekstida o'yinlarni loyihalashda o'yin elementlari va texnikasini qo'llashdir [5].

Raqamli ta'limdan foydalanish nazariyalari va uni qo'llash metodikasi bo'yicha hozirgi kungacha yagona va mukammal ishlanma mavjud emas. Shu bois, ta'lim jarayonida

geymifikatsiya algoritmini tatbiq etish an'anaviy ta'lim shaklida mavjud bo'lgan rag'batlantirish hamda baholash jarayonlarini raqamli muhitga moslashtirishni taqozo etadi. Bunda har bir dars yakunida o'quvchining faoliyatini baholash va uni rag'batlantirish mexanizmlarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, elektron ta'lim tizimida fan bo'limi yoki modul yakunida o'quvchilarni baholash jarayonini tashkil etish, zarur hollarda esa moddiy (iqtisodiy) rag'batlantirish vositalaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi [6].

Yuqorida qayd etilgan bilimni rag'batlantirish jarayonida "zarur bo'lsa iqtisodiy" tushunchasining ilgari surilishi ko'pchilik uchun kutilmagan bo'lishi tabiiydir. Biroq turli kompyuter va mobil o'yinlari uchun ajratilayotgan mablag'larning miqdori juda katta bo'lib, bu holatni o'yin dasturlarining keng ko'lamli reklamalaridan ham anglash qiyin emas. Demak, kompyuter o'yinlariga sarflanayotgan mablag'larni zamonaviy geymifikatsiya mexanizmlari orqali raqamli ta'lim jarayoniga yo'naltirish yoki tatbiq etish kelajak avlodning ma'naviy-ma'rifiy kamolotida hamda intellektual jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllanishida muhim vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Onlayn kurslardan foydalanish bo'yicha insoniyat masofaviy ta'lim dasturlarini o'quv jarayonida to'la tadbiqu bo'yicha quyidagi muammolarni aniqlagan va bu muammolar hozirgi kunda ham raqamli ta'limning dolzarb masalalari hisoblanadi. Talabalar uchun muammolar quyidagilar bilan bog'liq:

- o'qituvchi bilan yuzma-yuz muloqotda bo'lmasligi;
- sifatsiz ta'lim olish;
- motivatsiya yo'qligi.

O'qituvchilar uchun:

- talaba shaxsini almashtirish muammosi (identifikatsiya);
- talabalar bilan o'z vaqtida yuzma-yuz aloqaning yo'qligi.

Ta'lim muassasi uchun:

- bilim olish uchun sifat masalasida dolzarblikni yo'qotish;
- ta'lim sifatining pasayishi; Ota-onalar uchun:
- past sifatli ta'lim;
- moliyaviy ogohlik va nazorat yetishmasligi.

Ish beruvchi uchun:

- mehnat vakolatlariga mos kelmasligi;
- trening natijalarini tekshirish zarurati;
- amaliy ko'nikmalarning yetishmasligi.

Mazkur tadqiqot natijalari asosida ta'lim jarayonining bevosita va bilvosita ishtirokchilari sifatida namoyon bo'ladigan ob'ekt hamda sub'ektlarda uchraydigan muammolarni tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi. Ushbu muammolarni bartaraf etishning samarali yechimi esa raqamli ta'limning poydevorini tashkil etuvchi zamonaviy dasturiy vositalarni tizimli ravishda o'rganish hamda muammoning har bir bosqichi uchun mos keluvchi dasturiy yechimlarni ishlab chiqish orqali ta'minlanadi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etish jarayoni AKTning jadal rivojlanishi va uning turli sohalardagi keng qamrovi bilan bevosita bog'liqdir. Ayni paytda ushbu muammolarning ko'pchiligiga ma'lum darajada yechimlar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, zamonaviy AKTdan foydalanish kompetensiyasining yetarli emasligi hamda ta'lim muassasalarida texnik ta'minotning to'liq yo'lga qo'yilmaganligi ularni bartaraf etishda muayyan to'siqlarni yuzaga keltirmoqda. Mazkur masalaning yechimlaridan biri sifatida ta'lim tizimiga yangi kirib kelayotgan mobil qurilmalardan samarali foydalanish mumkin. Biroq, barcha ta'lim muassasalarida mobil qurilmalarni o'quv jarayoniga keng tatbiq etish g'oyasi hanuz to'liq qabul qilinmagan, natijada bu texnik vositalarning imkoniyatlari ko'proq aloqa vositasi yoki ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bilan chegaralanib qolmoqda.

Asosiy qism. Bo'lajak mutaxassislarini raqamli texnologiyani rivojlantirishdagi bilimlar nazariy mashg'ulotlarda, ko'nikmalar amaliy mashg'ulotlarda, malakalarni esa mustaqil ta'lim jarayoni va amaliy faoliyat jarayonida egallanadi. Shu sababli raqamli texnologiyani

rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim olish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Amaliy mashg'ulotlar ta'lim jarayonining muhim dars shakllaridan hisoblanib, talabalar o'quv topshiriqlari jamlanmasini o'qituvchi boshchiligida bajaradilar. Talabalar o'quv mashg'ulotining ilmiy va texnik asoslarini amaliy jarayonda o'zlashtirishi orqali amaliy mashg'ulot o'tkazilishini maqsadiga erishiladi. Amaliy ishlarni bajarishda bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar hamda raqamli ta'lim texnologiyalari yordamida zamonaviy metodlar orqali amaliy ishlarni bajaradilar va natija oladilar. O'qituvchi nazariy tushunchalarni berishda avvalambor kirish yo'riqnomasida faqatgina topshiriq maqsadini aytib o'tadi, keyinchalik bosqichma-bosqich uni bajarishga qo'yilgan talablarini tushuntirib o'tadi. Talabalar topshiriqlarni bajarishdagi ketma-ketlik va uni amalga oshirish metodlarini amaliy ko'rsatmalar asosida mustaqil o'rganishlari mumkin. Bu orqali ishning to'g'ri bajarilayotganini, talabalarning qanchalik tushunganliklari natijasida kuzatishimiz mumkin.

Talabalarni dasturiy vositalardan foydalanib o'qitishning maqsadi, vazifalari va dasturiy vositalar yordamida o'qitish metodikasi hamda samaradorligi oshirish zarur. Bu kabi tadqiqotlar o'quv maqsadlarida foydalanish uchun yaratiladigan dasturiy vositalarni pedagogik talablarga mos ravishda algoritmlash va dasturlashda muhim qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Raqamli ta'lim asosini tashkil etuvchi har bir yaratiladigan zamonaviy dasturiy vositalar vaqt pillapoyasida charxlanib, takomillashib boradi. Tahlil etilgan tadqiqotlarda va qo'llanish jarayonida ko'rsatiladigan kamchiliklarning bartaraf etilishi dasturiy vositalarni qo'llash auditoriyasining ham kengayishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Bugungi kunda talabalarda motivatsiyani uyg'otish muammosining juda murakkabligi va ko'p o'lchovlilik insonning tashqi dunyo bilan aloqalarining qay darajada keng qamrovli ekanligi bilan izohlanadi. Motivatsiyaga qarashlarning farqi, dastlab, uning mohiyatini boshqacha tushunish orqali belgilanadi. Demak, ta'lim jarayonida talabalar raqamli ta'lim orqali samaradorlikni ta'minlashning metodik ta'minotini ishlab chiqish jarayonidagi darsni tashkil etish va uni o'tkazish bosqichlarining har birida ta'lim oluvchilarning qiziqishlari va motivatsiyasini uyg'otish muammosiga yechim bo'lishi lozim. Dars jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlarning fan va predmet mavzusiga mosligi, mavzudagi raqamli ta'minotning zamonaviyligi, fanlararo integratsiyalashuvi singari omillar albatta nazariy va amaliy mashg'ulotning borishi va uning samaradorligiga keskin ta'sir ko'rsatadi.

Avvalambor, ishlab chiqarishga intellektual salohiyat yuqori samarali dars ishlanmalari, ilg'or innovatsion texnologiyalarni tadbir etmasdan turib ichki va tashqi bozorda foydalanuvchilar uchun kerakli bo'lgan mahsulotlarni tayyorlash mushkul ishdur.

Bundan kelib chiqib, bo'lajak yosh kadrlarni mukammal tarzda bilim egallashga ko'makdosh bo'lgan tajribalarga tayangan holda innovatsion pedagogik texnologiyalardan keng foydalanilgan.

Yuqorida keltirilgan nazariy asoslar va amaliy tahlillardan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimida "Algoritmik tillar va dasturlash" fanini (virtual intellektual borliq, masofadan o'qitish, ta'limni boshqarish tizimlari) innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning kreativ savodxonlik madaniyatini, tanqidiy fikrlashga oid axborot kommunikatsion kompetensiyalarini rivojlantirishning ergonomik (shaxsning maqsadga muvofiq aniq ko'rinishdagi faoliyatini yangi texnika va texnologiyaga bog'lagan holda loyihalashtirish) ko'rsatkichlaridan foydalanish orqali metodik imkoniyatlarini aniqlash maqsad qilib olindi.

Oliy ta'lim muassasalarida umumkasbiy fanlarni o'qitish jarayonida yangi texnologiyalardan foydalanishning yaxshi va yomon tomonlari bo'lganidek, raqamli ta'limning ham pedagogik va psixologik nuqtai nazardan yutuqlari va kamchiliklari mavjud bo'lsada, biz quyida keltirilgan jarayonda raqamli ta'limdan foydalanishning yutuqlari haqida gapiradigan bo'lsak, ular quyidagi 5 tamoyilga tayanishini ko'rishimiz mumkin.

1. Vaqt degan nisbiy tushunchani raqamli ta'lim chetlab o'tib, bunda beriladigan va olinadigan bilimni o'zlashtirishning aynan bir vaqti belgilanmagan bo'ladi.

2. Tejamkorlik nuqtai nazaridan o'qituvchi, auditoriya va boshqa umumiy iqtisodiy

xarajatlar keskin tarzda qisqarishiga olib keladi.

3. Bunda tinglovchilar auditoriyasi an'anaviy ta'limga nisbatan juda keng qamrovli bo'lib, unda talabalar soni chegaralanmagan holda amalga oshiriladi.

4. O'qituvchidan dars jarayonini raqamli ta'lim asosida tashkil etish va uni boshqarishda hech qanday qo'shimcha ravishda diplom va sertifikatlar talab qilinmaydi. Bu esa o'z navbatida ta'lim olish, ya'ni bilimni mukammal tarzda puxta egallash, shunchaki samarasiz vaqt o'tkazish degan tushunchani yo'qqa chiqarishga olib keladi.

5. Olingan bilimni baholashda turli interfaol usullar, mavzulashtirilgan test sinovlari, amaliy topshiriqlar orqali loyihalashtirilgan raqamli ta'lim avtomatik tarzda bu jarayonni amalga oshiradi.

XULOSA

Raqamlashayotgan jamiyatda axborot oqimining psixologik ta'siri juda katta ahamiyatga ega ekanligi, u hayotiy faoliyatda shaxs idrok va tafakkuri shakllanishi qay darajada bo'lishini belgilab berish xususiyatiga ham egaligini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonida ham raqamlashtirish jarayonini zamon talabiga qarab tezlashtirish yoki moslashtirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Williamson B. Digital education governance: data visualization, predictive analytics, and 'real-time' policy instruments // Journal of Education Policy. – 2016. – T. 31. – No2. – P. 123-141.

2. Ахметжанова Г.В., Юрьев А. В. Цифровые технологии в образовании // Балтийский гуманитарный журнал. – 2018. – Т. 7. – №3 (24)

3. Abu-Al-Aish, Ahmad. Toward mobile learning deployment in higher education. Diss. Brunel University, School of Information Systems, Computing and Mathematics, 2014.

4. Юсупов С.Ю. Олий таълим тизимини рақамли авлодга мослаштириш КОНЦЕПЦИЯСИ. Европа Иттифоқи Erasmus+ дастурининг кўмагида Тошкент – 2019. https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf

5. Воинова О.И., Плешаков В.А. Киберонтологический подход в образовании. Монография / Под ред. В.А. Плешакова - Норильск: Норильский индустриальный институт, 2012.

6. Murillo-Zamorano, L. R., Sánchez, J. Á. L., Godoy-Caballero, A. L., & Muñoz, C. B. Gamification and active learning in higher education: is it possible to match digital society, academia and students' interests? // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2021. – Т. 18. – №. 1. – P. 1-27.

MATNLI MASALALAR VA ULARNI YECHISHNING BIR NECHA USULLARI
Safarova Dilnura Sunnatovna, BDTU akademik litseyi Aniq fanlar yo'nalishi 104- guruh
o'quvchisi

halimovsunnat432@gmail.com

Annotatsiya: Mathli masalalar yechishning umumiy usulini ko'rsatib bo'lmaydi. Ba'zi masalalarni esa tenglamalar yoki tenglamalar sistemasi tuzib yechiladi. Juda ko'p masalalarni yechishda proporsional miqdorlardan foydalanib proporsiya shaklidagi tenglama tuzib yechiladi. Bu maqolada to'plamlar birlashmasining elementlar soni yordamida yechiladigan masalalar, tenglama yoki tenglamalar sistemasi yordamida yechiladigan masalalar, prosentga oid masalalarning yechilish usullari va ulardan namunalar berilgan.

Tayanch so'zlar: To'plamlar birlashmasining elementlar soni yordamida yechiladigan masalalar, tenglama yoki tenglamalar sistemasi yordamida yechiladigan masalalar, prosentga oid masalalar.

**ТЕКСТОВЫЕ МАТЕМАТИЧЕСКИЕ ЗАДАЧИ И РАЗНЫЕ МЕТОДЫ ИХ
РЕШЕНИЯ**

Сафарова Дилнурсуннатовна, Ученица 104-й группы, направление точных наук,
академический лицей БГТУ

halimovsunnat432@gmail.com

Аннотация: Невозможно указать универсальный способ решения всех текстовых задач. Некоторые задачи решаются с помощью уравнений или систем уравнений. Многие задачи можно решить, используя пропорциональные величины, составляя уравнение в виде пропорции. В данной статье представлены примеры задач, решаемых с помощью количества элементов объединения множеств, с помощью уравнений или систем уравнений, а также задачи, связанные с процентами, и методы их решения.

Ключевые слова: Задачи, решаемые с помощью количества элементов объединения множеств; задачи, решаемые с помощью уравнений или систем уравнений; задачи на проценты.

**MATHEMATICAL WORD PROBLEMS AND VARIOUS METHODS FOR SOLVING
THEM**

Safarova Dilnura Sunnatovna, Student of Group 104, Exact Sciences Department, Academic
Lyceum of BDTU

halimovsunnat432@gmail.com

Annotation: It is not possible to define a universal method for solving all word problems. Some problems can be solved by setting up equations or systems of equations. Many problems can be solved using proportional quantities by forming proportion-based equations. This article provides examples of problems that can be solved using the number of elements in the union of sets, equations or systems of equations, and percentage-based problems, along with their solution methods.

Keywords: Problems solved using the number of elements in the union of sets, problems solved using equations or systems of equations, percentage-related problems.

To'plamlar birlashmasining elementlar soni yordamida yechiladigan masalalarda ko'p hollarda quyidagilar A , B , $A \cup B$ va $A \cap B$ to'plamlardagi elementlar soni mos ravishda

$N(A)$, $N(B)$, $N(A \cap B)$, $N(A \cup B)$ berilgan bo'lsin, u holda quyidagi tengliklar o'rinli bo'ladi.

1) $N(A \cap B) = N(A) + N(B) - N(A \cup B)$

2) $N(A \cup B) = N(A) + N(B) - N(A \cap B)$

Masala: 1 dan 100 gacha sonlar orasida 2 ga ham, 3 ga ham bo'linmaydigan sonlar nechta?

Yechish: 2 ga bo'linmaydigan sonlar to'plamini A , 3 ga bo'linmaydigan sonlar to'plamini B deylik. $N(A) = 50$ $N(B) = 67$ $N(A \cup B) = 84$

$N(A \cap B) = N(A) + N(B) - N(A \cup B) = 50 + 67 - 84 = 33$ ta. 33 ta son 2 ga va 3 ga bo'linmaydi.

Masala: 48 ta chet tili o'qituvchisidan 30 tasi ingliz tili, 29 tasi nemis tili o'qituvchisidir. Shu


o'qituvchilardan nechitasi faqat 1 ta tilda dars beradi.

Yechish:

I-usul: ingliz tili o'qituvchilari to'plami A, nemis tili o'qituvchilari B bo'lsin:

$N(A)=30$ $N(B)=29$ $N(A \cup B)=48$ $N(A \cap B)=N(A)+N(B)-N(A \cup B)=30+29-48=11 \rightarrow 2$
tilda ham dars beradigani $48-11=37 \rightarrow 1$ tilda dars beradigani

II-usul: $30-x+29-x+x=48$ $x=11$ $48-11=37$



A-ingliz tili o'qituvchilari to'plami, B-nemis tili o'qituvchilari to'plami, bo'yalgan soha esa ikkala tilda ham dars beradigan o'qituvchilar to'plami.

Eslatma: Agar shaxmat musobaqasida n ta o'yinchi ishtirok etib, har bir qatnashchi qolganlar bilan bir marta o'ynasa jami o'yinlar soni $\frac{n(n-1)}{2}$ ta bo'ladi.

Agar har bir o'yinchi qolganlar bilan 2 martadan o'ynasa jami o'yinlar soni $n(n-1)$ ta bo'ladi.

Tenglama yoki tenglamalar sistemasi yordamida yechiladigan masalalarda

berilgan masalani tenglama tuzib yechish uchun avvalo masala shartidagi biror kattalikni, iloji boricha toppish talab etilayotgan kattalikni noma'lum x deb belgilab qolgan kattaliklarni x ga bog'lab shartga mos tenglama tuzib tenglama yechiladi. Topilgan yechim masalani qanoatlantiradimi yoki yo'qmi ekani ko'riladi.

Ayrim masalalarni yechishda ikki noma'lumli tenglamalar sistemasi tuzishga to'g'ri keladi. Lekin ko'pincha sistema tuziladigan masalalarni bitta tenglama tuzib ham yechish mumkin. Demak, eng muhimi belgilashni qulay tanlab masala shartini to'g'ri tushunib shartga mos tenglama tuzishdadir. Ushbu mavzudagi masalalarni yechish uchun quyidagilarni yodda tutish zarur bo'ladi.

I. Har qanday 2 xonali sonni $10x+y$, 3 xonali sonni esa $100x+10y+z$ ko'rinishda yozish mumkin. Bunda x, y va z raqamlar.

II. Ayrim tenglama yoki tenglamalar sistemasi tuzib yechish mumkin bo'lgan masalalarni javoblardan foydalanib og'zaki yechish mumkin.

Masala: 2 xonali son o'zining raqamlari yig'indisidan 4 marta katta. Raqamlari kvadratlarining yig'indisi 5 ga teng. Shu 2 xonali sonning kvadratini hisoblang.

Yechish:

I-usul: Bu masalani ushbu sistemani yechib bajarish mumkin.

$$\begin{cases} 10x + y = 4(x + y) \\ x^2 + y^2 = 5 \end{cases}$$

II-usul: ___ Javoblarni masala shartini qanoatlantirishi tekshirib ko'riladi.

a) $441 = 21^2$ $4(2+1) = 21?$

b) $169 = 13^2$ $4(1+3) = 13?$

c) $121 = 11^2$ $4(1+1) = 11?$

d) $144 = 12^2$ $4(1+2) = 12$ to'g'ri keladi. $1^2 + 2^2 = 5$

Ayrim masalalarni yechishda bo'linish alomatlaridan foydalanish ham mumkin bo'ladi.

Prosent so'zi lotincha "prosentum" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "yuzdan bir" degan ma'noni bildiradi.

Ta'rif: Sonning 1 prosent deb-uning 100 dan bir qismiga aytiladi. Prosent so'zi o'rniga qisqacha % belgisi yoziladi. Demak: 1% bu 1 prosent deganidir.

Masala: a) 800 ning 1%i $\frac{800}{100} = 8$ ga teng b) 324 ning 1%i $\frac{324}{100} = 3,24$ ga teng.

Prosentlar ikki xil bo'ladi: Oddiy va murakkab prosentlar.

Biror shaxs(masalan, fermer) jamg'arma bankiga n so'mni yiliga $p\%$ ortishi,

ko'payishi ("tug'ishi") sharti bilan k yil muddatga qo'ygan bo'lsin. Bunda ikki hol bo'lishi mumkin.

I-hol: Har yili oshadigan ("tug'adigan") protsent miqdori n so'm hisobidan bo'ladi, bunda 1 yilda n so'mga qo'shiladigan pul $\frac{n}{100} \cdot p$ so'mni tashkil etadi. k yil davomida har yili n so'mga

$\frac{n}{100} \cdot p$ so'm pul qo'shib boraveradi va pul qo'ygan kishi bankdan k yildan so'ng

$$n + \frac{np}{100} \cdot k = n(1 + \frac{pk}{100})$$

so'm pul oladi. Bankka bunday shart bilan pul qo'yish (yoki qarz olish)

oddiy protsent bo'yicha to'lash deyiladi.

II-hol: Har yili oshadigan ("ko'payadigan") pul miqdori qo'yilgan pul n so'mga oldingi yilgi protsent miqdoriga mos pulni qo'shib hisoblash natijasida hosil qilinadi. Bunda fermerning puli yil oxirida $\frac{n}{100} \cdot p$ so'mga ko'payadi va uning puli 1-yil oxirida

$$n_1 = n + \frac{n}{100} \cdot p = n(1 + \frac{p}{100})$$

So'm bo'ladi. 2-yil oxiriga kelib fermerning bankdagi puli $n_1 = n(1 + \frac{p}{100})$ so'mning $p\%$ iga

ko'payadi va $n_2 = n_1 + \frac{n_1}{100} \cdot p = n(1 + \frac{p}{100})^2$ ga yetadi. 3-yil oxirida esa fermerning bankdagi puli

jami $n_3 = n(1 + \frac{p}{100})^3$ so'm bo'ladi. Umuman k yildan so'ng fermer bankdan

$$n_k = n(1 + \frac{p}{100})^k$$

So'm pul oladi. Bunday shart bilan pul to'lash (yoki qarz olish)

Murakkab protsent bo'yicha pul to'lash (yoki qarz berish) deyiladi.

Masala: Abdurahmon ota jamg'arma bankiga "1 yilga 8%" sharti bilan 3 yil muddatga murakkab protsent hisobida 20000 so'm pul qo'ydi. 3 yildan so'ng ota bankdan necha so'm pul oladi?

Yechish: Otaning bankdagi puli 1-yil oxiriga kelib $\frac{20000}{100} \cdot 8\% = 1600$ (so'm) ga

ko'payadi va $20000 + 1600 = 21600$ (so'm) bo'ladi. Pulning 2-yil oxiriga kelib, otaning bankdagi puli

$$\frac{21600}{100} \cdot 8\% = 1728 \text{ (so'm)}$$

ga ko'payadi va $21600 + 1728 = 23328$ (so'm) ni tashkil qiladi. Pulning 3-yildagi "ko'payishi" 2-yil oxiridagi 23328 so'mga nisbatan bo'ladi. 3-yil oxirida Abdurahmon otaning bankdagi puli

$$\frac{23328}{100} \cdot 8\% = 233,28 \cdot 8 = 1866,24 \text{ (so'm)} \text{ ga ortadi va } 23328 + 1866,24 = 25194,24 \text{ (so'm) bo'ladi.}$$

Demak, ota qo'ygan pul 3 yil davomida $25194,24 - 20000 = 5194,24$ (so'm) ga ortadi.

Agar ota bankka 20000 so'm pulni 3 yil muddatga oddiy protsent hisobida qo'yganda edi, uning puli 3 yildan so'ng $20000 + 3 \cdot 1600 = 20000 + 4800 = 24800$ (so'm)

bo'lardi. Murakkab va oddiy protsent hisobida "ko'paygan" pullar farqi

$$25194,24 - 24800 = 394,24 \text{ (so'm)}$$

ni beradi. Demak: pulni bankka murakkab protsent hisobida qo'yish foydaliroq ekan.

Prosentga oid quyidagicha masalalar yechiladi.

Berilgan a sonining $k\%$ ini topish masalasi.

Bu masala 2 xil usulda: sonli ifoda tuzib yoki proporsiya shaklidagi sodda tenglama tuzib

yechiladi.

Masala: 740 ning 15% ni toping **I-usul:** $(740 : 100) \cdot 15 = 7,4 \cdot 15 = 111$
740 ---- 100%

II-usul:
 x ----- 15% $\frac{740}{x} = \frac{100}{15}$ $x \cdot 100 = 740 \cdot 15$ $x = 111$

k%i a ga teng bo'lgan sonning o'zini topish.

Masala: 13%i 78 ga teng bo'lgan sonni toping **I-usul:** $(78 : 13) \cdot 100\% = 6 \cdot 100 = 600$
78 ---- 13%

II-usul:
 x ----- 100% $\frac{78}{x} = \frac{13}{100}$ $x \cdot 13 = 78 \cdot 100$ $x = 600$

Biror a sonini k% ga orttirish.

Biror a sonini k% ga orttirish uchun a ni $1 + \frac{k}{100}$ ga ko'paytirish kerak.

Masala: berilgan sonni 1%, 105,40%, 72%, 875 ga orttirish uchun o'sha sonni mos ravishda 1,01 ga, 1,1 ga, 1,4 ga, 1,72 ga, 1,87 ga ko'paytirish kerak.

Berilgan a sonni k% ga kamaytirish.

Berilgan a sonni k% ga kamaytirish uchun a ni $1 - \frac{k}{100}$ ga ko'paytirish kerak.

Masala: Berilgan sonni 1%, 10%, 32%, 57%, 85% ga ko'paytirish uchun shu sonni mos ravishda 0,99 ga, 0,9 ga, 0,68 ga, 0,43 ga, 0,15 ga ko'paytirish kerak.

Masala: 730 ni 25% ga kamaytirish Yechish: $0,75 \cdot 730 = 547,5$

Masala: Berilgan a soni avval 20% ga orttirib, so'ngra 20% ga kamaytirildi. berilgan son qanday o'zgargan? Yechish: $0,8(1,2a) = 0,96a$ 4% ga kamaygan.

a sonining b soniga % nisbati.

a sonining b songa % nisbati deb- $\frac{a}{b} \cdot 100\%$ ga aytiladi.

Murakkab protsent formulasi.

$A = a \left(1 \pm \frac{P}{100} \right)^n$ bunda a -dastlabki miqdor, A-oxirgi miqdor, P-protsent, n-muddat.

Eslatma: Prosentga oid masalalarning hammasi ham proporsiya tuzib yechilmaydi. Ayrimlarida chiziqli tenglama tuziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduhamidov A. U. Nasimov X. A. Algebra va matematik analiz asoslari. I qism. Akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma. -T., 2000.
2. Halimov S.S, Qanoatova D.S. "Algebra" fanidan ma'ruzalar to'plami. 1-qism, 2019 yil.

IJTIMOIIY FANLAR

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNI "MILLIY TIKLANISHDAN – MILLIY YUKSALISH SARI" NOMLI 4-KITOBIDA TA'LIMGA OID MA'LUMOTLAR

*Isoqova Mohigul Muxtor qizi, Buxdpi "Pedagogik ta'lim" kafedrası
1 bosqich magistranti*

mohigulisoqova527@gmail.com

Annatatsiya: Shavkat Mirziyoyevning "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" nomli to'rtinchi kitobi O'zbekistonning ta'lim tizimini rivojlantirish, uning sifatini oshirish va zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish borasidagi ustuvor yo'nalishlarni yoritishga bag'ishlangan. Ushbu asarda ta'lim sohasining mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni keng tahlil qilinadi.

Kali so'zlar: Shavkat Mirziyoyev, milliy tiklanish, milliy yuksalish, ta'lim tizimi, ta'lim islohotlari, o'qituvchilar malakasi, zamonaviy pedagogika, ta'lim sifatini oshirish, raqamli ta'lim

INFORMATION ON EDUCATION IN THE 4TH BOOK OF THE PRESIDENT OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN SHAVKAT MIRZIYOYEV, ENTITLED "FROM NATIONAL REVIVAL – THE LIGHT OF NATIONAL PROGRESSION"

*Isakova Mohikul Mukhtorovna, Bukhara State Pedagogical Institute,
Department of "Pedagogical Education"
1st year master's student*

mohigulisoqova527@gmail.com

Abstract: Shavkat Mirziyoyev's fourth book, "From National Revival to National Upliftment" is dedicated to highlighting priority areas for developing Uzbekistan's education system, improving its quality, and bringing it up to modern requirements. This work provides a comprehensive analysis of the role of the education sector in the country's socio-economic development.

Keywords: Shavkat Mirziyoyev, national revival, national upliftment, education system, education reforms, teacher qualifications, modern pedagogy, improving the quality of education, digital education.

ИНФОРМАЦИЯ ОБ ОБРАЗОВАНИИ В ЧЕТВЁРТОЙ КНИГЕ ПРЕЗИДЕНТА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ШАВКАТА МИРЗИЁЕВА «ОТ НАЦИОНАЛЬНОЙ РЕКОНСТРУКЦИИ К НАЦИОНАЛЬНОМУ МОДЕРНИЗАЦИИ»

*Исакова Мохигуль Мухторовна, Бухарский государственный педагогический институт,
Кафедра «Педагогическое образование»
Магистратура 1-го курса*

mohigulisoqova527@gmail.com

Аннотация: Четвёртая книга Шавката Мирзиёева «От национального возрождения к национальному подъёму» посвящена приоритетным направлениям развития системы образования Узбекистана, повышению её качества и соответствия современным требованиям. В работе представлен комплексный анализ роли сферы образования в социально-экономическом развитии страны.

Ключевые слова: Шавкат Мирзиёев, национальное возрождение, национальный подъем, система образования, реформы образования, квалификация учителей, современная педагогика, повышение качества образования, цифровое образование.

Kirish

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning *“Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”* nomli kitobi mamlakat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini belgilab beruvchi tarixiy asar bo‘lib, unda ta‘lim sohasini rivojlantirish masalalari alohida o‘rin tutadi. Ushbu asarda ta‘lim tizimi O‘zbekistonning kelajakdagi yutuqlarini ta‘minlovchi strategik omil sifatida baholanadi. Prezident ta‘kidlashicha, ta‘lim sohasidagi islohotlar nafaqat yosh avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirish, balki milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari bosqichma-bosqich harakatlanishni ta‘minlash uchun zarurdir.

Bugungi kunda globallashtirish jarayonlari va texnologik taraqqiyot fonida O‘zbekiston ta‘lim tizimi oldida jiddiy vazifalar turibdi. Prezident o‘z asarida ta‘lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, yoshlarni zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashga yo‘naltirish, ularning ma‘naviy va axloqiy tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratish lozimligini ta‘kidlaydi. Bu jarayon milliy qadriyatlarni saqlab qolgan holda, xalqaro miqyosdagi raqobatbardosh ta‘lim tizimini yaratishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z asarida ta‘lim tizimini takomillashtirish orqali iqtisodiy rivojlanish, ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadigan barkamol avlodni tarbiyalash g‘oyalarini ilgari suradi. U *“Yurtimiz kelajagi yoshlarning qo‘lida. Ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim va tarbiya jarayonini takomillashtirish – barchamizning muqaddas burchimizdir”* deb ta‘kidlaydi.

Shuningdek, ushbu asarda yoshlarning ta‘lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan bir qator tashabbuslar e‘lon qilingan. Xususan, oliy ta‘lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, xorijiy tajribalarni joriy etish, yosh olimlarni qo‘llab-quvvatlash kabi yo‘nalishlarda amaliy ishlar bajarilayotgani qayd etilgan.

Kitobda ta‘kidlanishicha, har bir jamiyatning muvaffaqiyati va istiqboli yosh avlodning bilim darajasi va tafakkuriga bog‘liq. Shu boisdan ta‘lim tizimida inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni qo‘llab-quvvatlaydigan zamonaviy kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyevning ushbu asarida ta‘lim sohasiga oid asosiy yo‘nalishlar belgilangan. Bulardan eng avvalo, birinchi o‘rinda ta‘lim sifatini oshirishdir. Ta‘lim tizimini isloh qilish orqali uning sifatini oshirish, o‘qituvchilarning malakasini doimiy ravishda oshirish va ularni zamonaviy o‘quv-uslubiy materiallar bilan ta‘minlash orqali ta‘lim sifatini yaxshilash masalalari ta‘kidlanadi. Shuningdek, o‘qituvchilarning ish sharoitlarini yaxshilash va ularning ijtimoiy maqomini oshirish, ta‘lim dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish va fanlararo integratsiya asosida shakllantirish, ta‘lim jarayonida barcha yoshlar uchun teng imkoniyatlar yaratish, ayniqsa qishloq hududlaridagi bolalarning ta‘lim olish sharoitlarini yaxshilashga alohida e‘tibor qaratish, yoshlarni ilm-fanga qiziqtirish, ularga amaliy va nazariy bilimlarni uyg‘un holda yetkazish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb qilish orqali jamiyatda bilim va innovatsiyaga asoslangan rivojlanishni ta‘minlash muhimligi aytilgan.

Shu bilan bir qatorda maktablar va oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy o‘quv jihozlari bilan ta‘minlash orqali ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirish, O‘zbekistonning barcha hududlarida, ayniqsa qishloq joylarida, zamonaviy maktablar, kasb-hunar kollejlari va oliy ta‘lim muassasalari qurilishi, ta‘miri va jihozlanishi masalalari, har bir ta‘lim muassasasida yuqori tezlikdagi internet, zamonaviy kompyuterlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta‘minlash, masofaviy ta‘lim va onlayn platformalarni joriy qilish orqali o‘quv jarayonini qulaylashtirishga alohida e‘tibor qaratish, oliy o‘quv yurtlari qoshida talabalarning yashashi va bilim olish uchun qulay sharoitlar yaratish muhimligi ta‘kidlangan. Kutubxonalarda elektron resurslar bilan ta‘minlash ham infratuzilmaning muhim qismi sifatida alohida ko‘rsatilgan. Ta‘lim muassasalari xalqaro standartlarga javob beradigan darajada modernizatsiya qilinishi, xorijiy tajribalar asosida loyihalar ishlab chiqilishi lozimligi keltirilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” asarida ta’lim sohasining jamiyat taraqqiyotidagi muhim o’rni keng yoritilgan. Mazkur asarda ilgari surilgan fikrlar nafaqat ta’lim tizimini takomillashtirish, balki mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan strategik rejalar bilan uyg’unlashadi. Asarda ta’kidlangan asosiy tamoyillar O‘zbekistonda har bir fuqaroning ta’lim olish huquqini amalga oshirish, teng imkoniyatlar yaratish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va ta’lim sifatini xalqaro miqyosga olib chiqishning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi.

Bu g‘oyalar faqat ta’lim tizimiga ta’sir ko‘rsatib qolmasdan, iqtisodiyot, ijtimoiy soha va mamlakatning umumiy taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Ta’lim infratuzilmasini rivojlantirish, yoshlarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularga innovatsion va texnologik vositalardan foydalangan holda ta’lim berish orqali O‘zbekiston zamonaviy bilimli va malakali kadrlar bazasini yaratishni maqsad qilgan.

Bundan tashqari, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg’unligi ta’lim tizimining asosiy negizi sifatida ko‘riladi. Yosh avlodning ma’naviy va axloqiy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish orqali ularning nafaqat bilimli, balki Vatanga sadoqatli, barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishini ta’minlashga qaratilgan siyosatni ilgari suradi.

Shuningdek, mazkur asarda ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarning ijtimoiy maqomini oshirish va ular uchun qulay sharoit yaratish masalalari ham keng yoritilgan. Bu esa o‘z navbatida ta’lim tizimi islohotlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” asari mamlakat ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha amaliy va nazariy ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu tamoyillarni hayotga tatbiq etish orqali O‘zbekistonning milliy yuksalish sari odimlari yanada mustahkamlanadi. Mamlakatimizning barqaror va raqobatbardosh kelajagini qurishda mazkur asar dolzarb dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Mirziyoyev Sh. M. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”. 4-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020.

MARKAZIY OSIYODA XIV-XVIII ASRLARDA IJTIMOIIY HAYOT VA TA'LIM-TARBIYA

Nazarov O'ktam Jo'rayevich, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Maqolada Markaziy Osiyo hududida XIV-XVIII asrlarda ijtimoiy hayot va ta'lim tarbiya tizimining rivojlanishi tahlil qilinadi. Ushbu davrda Markaziy Osiyo ilm-fan, madaniyat, ma'naviyat, diniy ta'lim va oila tarbiyasi sohalarida katta o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Temuriylar va Shayboniylar davrida ilmiy markazlar, madrasalar va ta'lim tizimlari rivojlanib, Samarqand va Buxoro kabi shaharlar ilm-fan va madaniyatning yirik markazlariga aylandi. Oila tarbiyasi va axloqiy qadriyatlar jamiyatning asosiy ustunlari sifatida qaraldi. Madrasalarda diniy, axloqiy va ilmiy bilimlar o'rgatilib, yosh avlodni tarbiyalashda ma'naviyat, mehnatsevarlik, adolat va vijdonlilik kabi qadriyatlar muhim o'rin tutdi. Shuningdek, diniy ta'lim va ilm-fanning uyg'unligi, axloqiy me'yorlar va ilmiy izlanishlarning birlashishi jamiyatning barqarorligini ta'minladi. Ushbu davrda amalga oshirilgan ilmiy yutuqlar va madaniy meros hozirgi kunda ham o'rganilmoqda va butun dunyo ilm-faniga ta'sir ko'rsatmoqda. Maqola Markaziy Osiyo tarixining ushbu davrini o'rganish orqali, ijtimoiy hayot, ta'lim-tarbiya va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yoritadi hamda bu davrning ilmiy merosini yangi avlodlarga yetkazishning muhimligini ta'kidlaydi. XIV-XVIII asrlar orasida mavjud bo'lgan siyosiy tizimlar, ijtimoiy tuzilmalar va ta'lim-tarbiya sohasidagi yirik yutuqlar Markaziy Osiyoning o'ziga xos tarixiy va madaniy merosini yaratdi. Ijtimoiy hayotda ta'lim-tarbiyaning o'rni alohida ahamiyat kasb etib, zamonaviy ta'lim tizimining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu maqolada XIV-XVIII asrlardagi ijtimoiy hayot va ta'lim-tarbiya tizimi, uning o'ziga xos xususiyatlari va merosi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy hayot, ta'lim va tarbiya, madaniy meros, tarixiy rivojlanish, ilm-fan, oila tarbiyasi, ma'naviyat va diniy ta'lim, jamiyat, ayollar roli, yoshlar tarbiyasi.

SOCIAL LIFE AND EDUCATION IN CENTRAL ASIA IN THE 14TH–18TH CENTURIES

Nazarov Uktam Jurayevich, PhD in Philological Sciences

Abstract. The article analyzes the development of the social life and educational system in Central Asia in the XIV-XVIII centuries. During this period, Central Asia experienced great changes in the fields of science, culture, spirituality, religious education and family education. During the period of Timurids and Shaibanis, scientific centers, madrasahs and educational systems developed, and cities such as Samarkand and Bukhara became major centers of science and culture. Family education and moral values were considered the main pillars of society. Religious, moral and scientific knowledge is taught in madrasahs, values such as spirituality, hard work, justice and conscientiousness have taken an important place in the education of the young generation. Also, the harmony of religious education and science, the unity of moral standards and scientific research ensured the stability of the society. The scientific achievements and cultural heritage of this period are still being studied today and have an impact on the science of the whole world. By studying this period of the history of Central Asia, the article sheds light on the interrelationship between social life, education and culture, and emphasizes the importance of passing on the scientific heritage of this period to new generations. Political systems, social structures and great achievements in the field of education that existed between the 14th and 18th centuries created a unique historical and cultural heritage of Central Asia. The role of education in social life has gained special importance and has had a great impact on the formation of the modern education system. This article analyzes the social life and educational system of the XIV-XVIII centuries, its characteristics and heritage.

Keywords: social life, education and training, cultural heritage, historical development, science, family education, spirituality and religious education, society, women's role, youth education.

СОЦИАЛЬНАЯ ЖИЗНЬ И ОБРАЗОВАНИЕ-ВОСПИТАНИЕ В СРЕДНЕЙ АЗИИ

В XIV–XVIII ВЕКАХ

Назаров Уктам Джураевич, доктор философии по филологическим наукам

“Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasi bugungi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi sifatida g'oyaviy, siyosiy va amaliy jihatdan yuksak ahamiyatga egadir. Bu konsepsiyani hayotga joriy etish nafaqat davlat siyosati, balki har bir fuqaroning ijtimoiy mas'uliyati, bilimga chanqoqligi va ma'naviy yuksakligiga bog'liq. Ma'rifatli jamiyatni qurish orqali barqaror taraqqiyotga erishish mumkin, va bu yo'lda har birimiz faol ishtirok etishimiz zarur.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. To'xtiyev A., Jo'raqulov S. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019
4. “Xalq so'zi “ gazetasi .Toshkent: 09.09.2021
5. Mirziyoyev Sh.M Hozirgi Zamon va Yangi O'zbekiston.Toshkent : O'zbekiston, 2024

SIZGA TA’ZIM, USTOZ-MUALLIM

Niyozova Munira, Ochilova Xolida, Buxoro davlat pedagogika instituti Axborot-resurs markazi xodimlari

Annotatsiya: Ushbu maqolada ustoz-muallim siymosi, ularning jamiyatdagi o‘rni, yosh avlod tarbiyasidagi beqiyos hissasi hamda ustozlarga bo‘lgan hurmat-izzat haqida so‘z boradi. Muallim kasbining sharaflari va mas‘uliyatli jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ustoz, muallim, hurmat, tarbiya, bilim, jamiyat

ПРИМИТЕ НАШЕ ПОЧТЕНИЕ, УВАЖАЕМЫЙ УЧИТЕЛЬ

Нийёзова Мунира, Очиллова Холлада, Сотрудники информационно-ресурсного центра Бухарского государственного педагогического института

Аннотация: В данной статье рассматривается образ учителя, его место в обществе, неоценимый вклад в воспитание молодого поколения, а также уважение и почтение к педагогам. Освещаются благородные и ответственные аспекты профессии учителя.

Ключевые слова: учитель, наставник, уважение, воспитание, знание, общество

OUR DEEPEST RESPECT TO YOU, ESTEEMED TEACHER

Munira Niyozova, Kholida Ochilova, Staffs member of the Information Resource Center at Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation: This article discusses the image of the teacher, their role in society, invaluable contribution to the upbringing of the younger generation, and the respect owed to them. It highlights the noble and responsible aspects of the teaching profession.

Keywords: teacher, mentor, respect, education, knowledge, society

Kirish

Har bir inson hayotida unga yo‘l ko‘rsatgan, bilim va tarbiya bergan, insoniylik saboqlarini o‘rgatgan zot bo‘ladi. Bu zot – ustoz-muallimdir. “Birinchisi ustoz – ona, ikkinchisi – muallim” degan xalqimiz naqlida chuqur ma‘no bor. Ustozlik kasbi dunyodagi eng sharaflari, eng mas‘uliyatli kasblardan biridir. Ular jamiyatning ma‘naviy tayanchi, bilimli avlodning asosiy tarbiyachisidir.

Muallim – faqat dars o‘rgatuvchi emas, balki hayot yo‘lini ko‘rsatuvchi, nurli kelajak sari yetaklovchi fidoyi insonidir. Ustoz o‘z shogirdini nafaqat bilimga, balki halollikka, mehnatsevarlikka, vatanparvarlikka ham o‘rgatadi. Shunday ekan, ustoz siymosi har bir kishining qalbida muqaddas bo‘lib qoladi.

O‘zbek adabiyotida va xalq og‘zaki ijodida ustozga bo‘lgan hurmat alohida o‘rin tutadi. Jumladan, Alisher Navoiy ustozni “rahnamoyi haqiqat” deb atagan. Bu esa muallimga bo‘lgan e‘tibor va ehtiromning tarixiy ildizlarga ega ekanini ko‘rsatadi.

Zamonlar o‘taveradi, texnologiyalar rivojlanadi, ammo ustozga bo‘lgan ehtiyoj hech qachon kamaymaydi. Chunki insonni inson qiladigan – bu tarbiya va bilimdir. Bu esa bevosita muallim mehnatining mahsulidir.

Har bir rivojlangan jamiyatning negizida kuchli ta‘lim tizimi, ya‘ni malakali, bilimli, fidoyi ustozlar turadi. Bugungi kunda ham mamlakatimizda muallimlarning nufuzini oshirish, ularning mehnatini qadrlash borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ustozlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ularning moddiy va ma‘naviy qo‘llab-quvvatlanishi – bularning barchasi o‘qituvchiga bo‘lgan yuksak e‘tiborni ko‘rsatadi.

Har bir jamiyatning yuksalishi, taraqqiy etishi va barqaror rivojlanishida ta‘lim muhim omil sanaladi. Ta‘lim esa, avvalo, muallim shaxsiga, uning bilimdonligi, kasbiga sadoqati va tarbiyaviy salohiyatiga bevosita bog‘liq. Shu bois muallimlik kasbi eng sharaflari, eng mas‘uliyatli va eng zaruriy kasblardan biri hisoblanadi. Zero, muallim – jamiyat taraqqiyotining tayanchidir.

Muallim – faqat bilim beruvchi emas, balki ma‘naviyat va axloq tarbiyachisidir. U bolaga maktab eshigidan kirgan ilk kundanoq faqat dars emas, hayot saboqlarini, insoniylik mezonlarini, to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi. Bugun ta‘lim olayotgan yoshlar – ertangi kunning yetakchilari, olimlari, muhandislari, shifokorlari, davlat arboblardir. Demak, ularning barkamol yetishishida muallimning tutgan o‘rni beqiyosdir.

Tarixdan ma'lumki, har qanday taraqqiy etgan jamiyat avvalo kuchli ta'lim tizimiga ega bo'lgan. Bunday tizimni esa o'z kasbiga fidoyi, zamonaviy bilimga ega bo'lgan, doimiy o'z ustida ishlaydigan ustozlargina yaratadi. Shu jihatdan olganda, muallim jamiyatning tayanchi, millatning ma'naviy asoschisi, kelajak bunyodkoridir.

Mustaqil O'zbekiston taraqqiyot yo'lidan bormoqda. Mamlakatimizda har bir sohaning rivojlanishi, avvalo, ilmi va malakali kadrlarga bog'liq. Bunday kadrlarni tayyorlashda esa ustozlarning o'rni beqiyosdir. Shu boisdan ham davlatimiz tomonidan muallimlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Oylik maoshlarning oshirilishi, yangi metodikalar, zamonaviy darsliklar bilan ta'minlash, pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash — bularning barchasi o'qituvchining jamiyatdagi rolini e'tirof etishdir.

Xalqimizda "Ustoz otangdek ulug'" degan purhikmat naql bor. Bu naqlning zamirida chuqur hayotiy haqiqat yotadi. Chunki muallim bola hayotida ota-onadan keyingi eng muhim shaxsdir. Aynan muallim bolaning qalbiga nur, ongi va tafakkuriga bilim, vijdoniga esa poklik urug'ini sochadi. U yoshlarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlarini shakllantiradi.

Bugungi globallashuv sharoitida raqobatbardosh, har tomonlama yetuk avlodni voyaga yetkazish muhim vazifalardan biridir. Bu esa muallimdan nafaqat dars berishni, balki yoshlarning qalbiga yo'l topishni, ularga zamonaviy dunyoqarashni singdirishni talab etadi. Shu bois bugungi o'qituvchi doimiy izlanishda, o'z ustida ishlovchi, texnologiyalardan foydalana oladigan, o'quvchi uchun do'st va yo'lbo'shchi bo'lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, muallim – bu nafaqat kasb, balki hayot tarzidir. U jamiyatni quruvchi, yosh avlodni tarbiyalovchi, nurli kelajakni yaratuvchi eng asosiy kuchdir. Har bir muvaffaqiyatli inson ortida albatta bir fidoyi ustoz turadi. Shunday ekan, muallimga hurmat qilish, uning mehnatini qadrlash har bir fuqaroning burchidir. Zero, muallim qadr topgan yurtida baraka, taraqqiyot va ma'naviyat hukm suradi.

O'zbek xalqida ustozga hurmat ko'rsatish qadimdan muqaddas sanaladi. "Ustozni ko'rganingda salom ber, duosini ol" degan naql ham bekorga aytilmagan. Ustozning duosi – ota-onaning duosidek qadrlanadi. Ayniqsa, Mustaqillik yillarida har yili 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni sifatida keng nishonlanib, bu sana muallimlarga bo'lgan e'tibor timsoliga aylandi.

Yoshlar ongiga ustozlarga hurmat ruhi singdirilishi zarur. Chunki ustozni qadrlamagan, uning mehnatini e'tirof etmagan jamiyatda baraka bo'lmaydi. Tarixiy manbalarda ham buyuk allomalar o'z ustozlariga chuqur hurmat bilan yondashganliklari ta'kidlanadi.

Har bir xalqning tarixiy shakllanishida, ma'naviy kamolotida va madaniyatining yuksalishida ustoz va murabbiylarning o'rni beqiyosdir. O'zbek xalqi azaldan ustozlarni ulug'lab kelgan, ularni ota-onadan keyingi eng katta hurmatga sazovor insonlar deb bilgan. Ustozga hurmat qilish, ularning o'g'itlariga amal qilish – bu bizning milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismidir.

Ustoz deganda avvalo, ilm-ma'rifat, sabr-toqat, donishmandlik, mehr-muruvvat kabi fazilatlar ko'z oldimizda gavdalanadi. Farzandlarimizga ilk saboq bergan, ularni hayotga yo'naltirgan, yaxshiyomoni, oq-qorani ajratishni o'rgatgan insonlar – bu ustozlardir. Alloma bobokalonlarimiz – Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy singari ulug' zotlar ham ustozni o'z hayotlarida eng muhim shaxs deb bilganlar.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy: "Ustozsiz ilm olish – yo'l yo'rig' siz safarga o'xshaydi", degan edi. Bu fikrda naqadar chuqur ma'no bor! Inson qancha iste'dodli bo'lmasin, unga to'g'ri yo'l ko'rsatadigan, yo'nalish beradigan, hayotda duch keladigan muammolarda maslahat bera oladigan ustoz zarur bo'ladi.

Ustozga bo'lgan hurmat faqatgina maktab yoki dars jarayonidagina emas, balki butun hayot davomida davom etadi. Ustozni qadrlash, ularning mehnatini e'tirof etish, g'amxo'rlik ko'rsatish – bu yosh avlodning eng muhim burchlaridan biridir. Har yili oktyabr oyining birinchi haftasida O'zbekiston bo'ylab o'tkaziladigan "O'qituvchi va murabbiylar kuni" ham ustozlarga bo'lgan chuqur ehtiromning yaqqol isbotidir.

Yurtimizda so'nggi yillarda ta'lim-tarbiya tizimiga alohida e'tibor qaratilayotgani, ustozlarning maqomi yildan-yilga yuksalayotgani ham bejiz emas. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev

tomonidan ustoz va murabbiylarga oid soʻzlarida: *"Agar biz buyuk davlat bo'lishni istasak, avvalo buyuk ustozlarni tarbiyalashimiz kerak"*, deb bejiz aytilmagan. Bu soʻzlarda ta'lim, ustozlar, bilimli avlod tarbiyasi kabi muhim masalalarning ildizi mujassam.

Afsuski, bugungi kunda ayrim yoshlar orasida ustozga loqayd munosabat, bepisand soʻzlar yoki e'tiborsizlik holatlari ham uchrab turibdi. Bu esa faqat ustozga emas, balki o'z kelajagiga befarqlikdir. Chunki ilm va odob ustoz orqali beriladi. Ustozni hurmat qilmagan, u bergan saboqlarga quloq solmagan shaxs hayotda katta yutuqlarga erishishi qiyin bo'ladi.

Shunday ekan, ustozga hurmat qilishni biz nafaqat milliy qadriyat sifatida, balki shaxsiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida qabul qilishimiz lozim. Ustozning har bir soʻzini, har bir maslahatini yurakka joylash, unga amal qilish orqali biz o'zimizni ham, jamiyatimizni ham yuksaltiramiz.

Muallim – bu hayot yo'lini yorituvchi mash'ala, qalblarga nur taratuvchi mehr manbai, kelajak bunyodkoridir. Ustozga ta'zim – bu nafaqat odob, balki qarz, insoniylik mezonidir. Har bir shogird o'z ustozini qadrlashi, uning ishonchini oqlashi – bu eng oliy fazilatdir. Zero, kelajagimiz poydevori ustoz qo'lida yaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch." – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Navoiy A. "Mahbubul-qulub" – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot nashriyoti, 1983.
3. G'azzoliy A. "Kimyo-i saodat" – T.: Sharq nashriyoti, 2001.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi rasmiy materiallari – www.uzedu.uz
5. "O'qituvchi" gazetasi arxivi, 2023–2025 yillar sonlari.

MILLIY QADRIYATLAR SARCHASHMASI

N. Radjabova ARM bo‘lim mudiri, *L. Abdullaeva* uslubchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy qadriyatlarining sarchashmasi tushunchasi, uning ijtimoiy-madaniy ahamiyati, shakllanish manbalari va yuksaltirish yo‘llari tahlil qilinadi. Mualliflar milliy qadriyatlar sistemasi ichida ona tili, ma’naviyat, urf-odatlar, oilaviy va jamiyat hayoti, tarixiy yodgorliklar hamda meros kabi elementlarni sarchashma sifatida ko‘rib chiqadilar. Shu bilan birga, zamonaviy o‘zbek jamiyatida qadriyatlarining zaiflashuvi tendensiyalari, tahdidlar va bularga qarshi kurash strategiyalari ham taklif etiladi. Maqola nazariy tahlil, misol va amaliy takliflarni birlashtiradi.

Kalit so‘zlar: milliy qadriyatlar, sarchashma, ona tili, ma’naviyat, meros, madaniyat

ИСТОЧНИК НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ

H. Radjabova заведующая отделом АРМ, *Л. Абдуллаева* методист

Аннотация: В данной статье анализируется понятие «родник национальных ценностей», его социально-культурное значение, источники формирования и пути укрепления. Авторы рассматривают систему национальных ценностей через призму родного языка, духовности, обычаев, семейной и общественной жизни, исторических памятников и наследия. Также рассматриваются тенденции ослабления ценностей в современном узбекском обществе, угрозы и предлагаемые стратегии противодействия. Статья сочетает теоретический анализ, примеры и практические рекомендации.

Ключевые слова: национальные ценности, родник, родной язык, духовность, наследие, культура

THE SOURCE OF NATIONAL VALUES

N. Radjabova Department Head ARM, *L. Abdullaeva* Methodologist

Abstract: This article explores the concept of the “springhead of national values,” its socio-cultural significance, sources of formation, and ways of strengthening. The authors view the system of national values through the lenses of native language, spirituality, customs, family and societal life, historical monuments, and heritage. The paper also examines tendencies of value erosion in contemporary Uzbek society, threats, and proposed strategies for counteraction. It combines theoretical analysis, case studies, and practical recommendations.

Keywords: national values, springhead, mother tongue, spirituality, heritage, culture

Kirish

Milliy qadriyatlar har bir xalqning ma’naviy va madaniy timsolidir. Ular xalqqa o‘zligini anglash, ichki birlik va jamiyat barqarorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Lekin har qanday qadriyat, agar uning ildizlari – sarchashmalari kuchli bo‘lmasa, vaqt o‘tishi bilan eskirib, zaiflashib qoladi. Shu bois “milliy qadriyatlar sarchashmasi” – bu qadriyatlarining manbai, ildizi, jonlantiruvchi kuchi. Ushbu maqolada biz milliy qadriyatlar sarchashmasini aniqlab, uning shakllanish manbalarini ochib beramiz, hamda zamonaviy sharoitda ularni saqlab qolish va mustahkamlash yo‘llarini taklif qilamiz.

1. “Sarchashma” tushunchasining asosi

“Sarchashma” so‘zi adabiy tilimizda — tomchi-tomchi manba, hayot suvi chiqadigan joy, boshlangan nuqta sifatida talqin etiladi. Milliy qadriyatlar sarchashmasi demak, xalqning umumiy axloqiy-me‘yoriy tizimini, tushuncha va qadriyatlar zaxirasini hosil qiluvchi asal manbaga ishora qiladi. Ushbu tushuncha xalqning o‘zligiga, tarixiga, madaniy merosiga, tanlangan yo‘lga va ma’naviy ildizlariga bog‘liqdir.

2. Milliy qadriyatlarining shakllanish manbalari

2.1 Ona tili va adabiyot

Ona tili – har bir insonning ruhiy olami bilan bog‘lanadigan birinchi muloqot vositasi. Ona tilida so‘zlashish, o‘qish va yozish orqali milliy ruh shakllanadi. Adabiyot esa qadriyatlarini estetik ko‘rinishda etkazuvchi eng muhim vositadir. Bobolarimizning ertaklari, afsonalari, doston va qissalari yangi avlodga hayotiy ibrat bo‘lib xizmat qiladi.

2.2 Tarix va meros

Qadimdan bizning ajdodlarimiz qudratli davlatlar barpo etgan, ko‘plab ilmiy, madaniy va me‘moriy yodgorliklar qoldirgan. Registon ansambli, Ichan-Qal‘a, Ko‘lqut masjidi va boshqa yodgorliklar – ular bizga tarixiy xotira va milliy g‘urur bag‘ishlaydi. Shu merosga mehri bo‘lgan jamiyat qadriyatlarini saqlashga intiladi.

2.3 Diniy-ma‘rifiy irs va ma‘naviyat

Islom dini O‘zbekistonda ming yillar davomida shakllangan ma‘naviy pog‘ona bo‘lib, mehr, adolat, birodarlik, sabr, ahillik kabi fazilatlarini targ‘ib etadi. Masjid, ma‘ruza, diniy marosimlar – ularning hammasi inson ruhini boyitib, uni xalqni qadriyatlar tomon yo‘naltiradi.

2.4 Oilaviy an‘ana va odatlar

Har bir inson avval oilada shakllanadi. Ona-onaning so‘zi, oilaviy qadriyatlar, mehr-oqibat, mehribonlik, tartib-intizom – bularning barchasi katta ta‘sirga ega. Bolalar oilada sevgi, hurmat, halollik, qat‘iyatlilikni o‘rganadi. Shu nuqtai nazardan, oilaviy odatlar milliy qadriyatlar sarchashmasining fundamentidir.

2.5 Madaniy va san‘at omillari

Milliy raqs, musiqa, betakror liboslar, xalq hunarlari (zardo‘zlik, kulolchilik, to‘qimachilik), folklor – bularning barchasi qadriyatlarini jonlantiradi. Har tomonda o‘tkaziladigan madaniy bayramlar, an‘anaviy o‘yinlar, xalq festivallari – ular yoshlarni o‘z ildizlariga yaqinlashtiradi.

3. Milliy qadriyatlar zaiflashuvi: sabablari va tahdidlari

Zamonaviy dunyoda shoshma-shosharlik, globalizatsiya, tashqi madaniy ta‘sir, texnologik taraqqiyot kabi omillar milliy qadriyatlarimizga salbiy ta‘sir qilishi mumkin. Quyida ayrim tahdidlarni ko‘rib chiqamiz:

- **Global madaniyat bosimi:** chet el madaniyoti, musiqasi, televideniye kontenti yosh avlodda mahalliy madaniy qadriyatlarini e‘tiborsiz qoldirishi mumkin.
- **Texnologiya va ijtimoiy tarmoqlar:** digital dunyoda chetdagi mahsulot va kontentlar ko‘p bo‘lishi, yoshlarni global omillarga yo‘naltirishi ehtimoli mavjud.
- **Ma‘naviy bo‘shliq:** agar jamiyatda ma‘naviyatni qollab-quvvatlovchi institutlar (madrasalar, markazlar, kutubxonalar) yetarlicha bo‘lmasa, qadriyat bo‘shlig‘i paydo bo‘ladi.
- **Individualizm kuchayishi:** shaxsiy manfaatlar, materializm kuchayib, jamoaviy qadriyatlarga e‘tibor kamayishi mumkin.
- **O‘qituvchilarning yetishmasligi va ta‘lim sifati:** agar maktablarda milliy qadriyatlar o‘qitish, tarbiya ishlari sust bo‘lsa, avlod ularni chuqur anglamasligi mumkin.

4. Milliy qadriyatlarni saqlash va mustahkamlash yo‘llari

Quyida samarali strategiyalar taqdim etiladi:

4.1 Ta‘lim va tarbiya tizimida integratsiya

Milliy qadriyatlarni maktab dasturlariga, o‘quv fanlar ichiga kiritish zarur. Masalan, ona tili, tarix, adabiyot, ma‘naviyat, san‘at fanlari orqali qadriyatlar chuqurroq tushuntirilishi kerak. Bundan tashqari, tarbiyaviy soatlar, darsdan tashqari tadbirlar orqali madaniy-ma‘naviy loyiha va klublar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi mumkin.

4.2 Madaniy loyihalar va festivallar

Mahalliy, viloyat va respublika miqyosida milliy bayramlar, folklor festivallari, hunarmandchilik ko‘rgazmalari, adabiy musobaqalar tashkil etilishi lozim. Bular yoshlarni o‘z qadriyatlariga yaqinlashtiradi. Misol uchun: Navro‘z bayrami, “Sharq taronalari”, “Buxoro donishmandlari” kabi festivallar milliy ruhni jonlantiradi.

4.3 Raqamli vositalar va media

Yoshlar orasida yangi media (YouTube, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar) keng tarqalgan. Milliy qadriyatlar haqida video, podkast, blog va ilovalar yaratish, targ‘ib qilish muhim. Shuningdek, onlayn kurslar va interaktiv darslar orqali madaniy-ma‘naviy bilimlarni yoshlar bilan yanada yaqinlashtirish mumkin.

4.4 Jamiyat va davlat institutlari hamkorligi

Davlat darajasida milliy qadriyatlar siyosati ishlab chiqilishi kerak: qonunlar, dasturlar, jamg‘armalar, stipendiyalar, madaniyat va ma‘naviyat markazlari orqali qo‘llab-quvvatlash.

Shuningdek, nodavlat tashkilotlar, madaniy markazlar, mahalla va fuqarolik jamiyati vakillari bilan hamkorlik muhimdir.

4.5 Oilaviy va mahalla-tashabbuslar

Oilada qadriyat bilangan tarbiya, ota-ona va katta avlodlar bilan suhbat, ertak aytish, an'anaviy bayramlar o'tkazish — bularning barchasi jismoniy jihatdan sarchashmani oziqlantiradi. Mahalla markazlarida madaniy uchrashuvlar, tarixiy-ma'rifiy seminarlar, "E'tibor va ehtirom" dasturlari amalga oshirilishi mumkin.

5. Amaliy misollar va tajribalar

- **Mahalliy maktab loyihalari:** ayrim maktablarda "Milliy qadriyatlar klubi" tashkil etilib, har hafta yoshlar bilan madaniyat va ma'naviyat mavzularida suhbatlar, o'yinlar va ijodiy mashg'ulotlar olib boriladi.
- **Madaniy merosga qayta tiklash:** xalq ustalari va hunarmandlar markazlari tomonidan qadimiy hunarmandchilik unsurlarini yoshlar orasida o'rgatish, xalq donishmandliklaridan foydalanish.
- **Media loyihalar:** "Milliy qadriyatlar serhashmasi" nomli YouTube dasturi, mobil ilova orqali kundalik axloqiy g'oyalar va qadriyatlar yuboriladigan kanal tashkil etish.

Xulosa

Milliy qadriyatlar sarchashmasi — xalqning ma'naviy ildizi, madaniy yuragi va tarixiy xotirasidir. Ona tili, ma'naviyat, meros, san'at, oilaviy odatlar — bularning barchasi sarchashma unsurlari bo'lib xizmat qiladi. Biroq globalizatsiya, texnologik ta'sir, ma'naviy bo'shliq va individualizm kabi omillar qadriyatlarni zaiflashtirishi mumkin. Shu sababli biz ta'lim, madaniyat, media, davlat siyosati va mahalla-oilaviy tizim orqali kompleks strategiyalarni amalga oshirishimiz lozim.

Milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish — bu nafaqat tarixga hurmat, balki kelajakni barqaror va ma'naviy boy jamiyatga yo'naltirish demakdir. Agar biz sarchashmani, ya'ni ildizlarni barqaror ushlab turmasak, qadriyatlar zarralanib ketadi. Shuning uchun har bir inson, har bir muassasa va jamiyat bo'lib, bu burchni anglab harakat qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4779-son qarori. – 2020-yil, 26-avgust.
3. Yo'ldoshev Q. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 224 b.
4. Qodirov A. Milliy qadriyatlar va zamonaviylik. // "Ijtimoiy fanlar" jurnali, 2021, №2. – B. 45–51.
5. Raxmonov T. Oila va jamiyat tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 112 b.
6. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: 2000–2005 yillar. – 12 jild.
7. Saidov A. O'zbek xalqining urf-odat va an'analari. – Toshkent: O'qituvchi, 1998. – 196 b.
8. UNESCO. Intangible Cultural Heritage of Humanity: Uzbekistan. – www.unesco.org
9. Rasulov A., Shukurov N. Milliy qadriyatlar va globallashtirish jarayoni. // "Falsafa va huquq" jurnali, 2019, №4. – B. 33–40.
10. Mahmudov N. Ma'naviy meros va zamonaviy yoshlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2016. – 160 b.

FILOLOGIYA FANLARI

“MAHBUB UL-QULUB” ASARIDA O’QITUVCHI-MURABBIY TALQINI

Rahmatova Sarvinoz, Buxoro Xalqaro Universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yo‘nalishi 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning shaxs kamolotida ta’lim – tarbiyaning roli va ahamiyati haqida fikr bildirilgan. O’qituvchi –murabbiy faoliyati, uning kasbiy va shaxsiy sifatlari e’tirof etilgan bo’lib, ishda asosiy o’rganish obyekti sifatida “Mahbub ul-qulub” asari olingan.

Tayanch so’zlar: Ustoz-murabbiy, komillik, ilm-fan, ta’lim-tarbiya, ma’rifat, barkamol inson, shaxs kamoloti, maktab, ma’naviy me’ros.

ОБРАЗ УЧИТЕЛЯ-НАСТАВНИКА В ПРОИЗВЕДЕНИИ «МАХБУБ УЛ-КУЛУБ»

Рахматова Сарвиноз, Студентка 2-го курса направления «Теория и история педагогики»,
Бухарский международный университет

Аннотация: В данной статье изложены размышления великого мыслителя Алишера Навои о роли и значении образования и воспитания в развитии личности. Особое внимание уделено деятельности учителя-наставника, его профессиональным и личностным качествам. Основным объектом исследования в работе является произведение «*Махбуб ул-кулуб*».

Ключевые слова: Учитель-наставник, совершенство, наука, образование и воспитание, просвещение, всесторонне развитая личность, развитие личности, школа, духовное наследие.

THE CONCEPT OF TEACHER-MENTOR IN THE WORK "MAHBUB UL-QULUB"

Rahmatova Sarvinoz, Student of 2nd year, Theory and History of Pedagogy Department,
Bukhara International University

Annotation: This article discusses the thoughts of the great thinker Alisher Navoi on the role and importance of education and upbringing in personal development. The work highlights the activities of the teacher-mentor and recognizes their professional and personal qualities. The main object of study in this article is the literary work “*Mahbub ul-Qulub*”.

Keywords: Teacher-mentor, perfection, science, education and upbringing, enlightenment, well-rounded person, personal development, school, spiritual heritage.

O’tmishdagi buyuk mutafakkirlarning dono fikrlari, o’g’itlari, tafakkur mevalari, ijodiy yutuqlarini o’rganish xalqimizning ma’naviy dunyosini kengaytirish bilan bir qatorda, yosh avlodning barkamol inson bo’lib yetishishida muhim vositalardan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Sharq murafakkirlaridan biri, o’zbek adabiyotining zabardast siyosi, komil inson kuylovchisi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosini o’rganish, undan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi.

Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo’lsa ham, o’zining bu haqidagi fikrlarini deyarli barcha ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan.

Alisher Navoiyning ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g’oyalari bosh o’rinda turadi. Uning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir.

Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. U o’z asarlarida har bir so’zdan unumli va o’rinli foydalana olgan. Har bir hikmati biz uchun ibratlidir. Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda bizga har tomonlama namuna bo’ladi.

Ulug’ shoir o’zining ta’lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo’shdi, umuminsoniy fazilatlar to’g’risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham muhimdir.

Har bir o’qituvchi-pedagog faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta’lim-tarbiyasining yanada

samarali bo'lishi uchun o'z ustida muttasil ishlashi, bilimini, mahoratini o'stirishi, o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarni puxta o'ylab, ularning ko'ngligi ozor yetkazmasdan ish olib borishi lozim. Muomala madaniyati, o'zini tuta bilishini nazorat qilishi kerak. Har bir tarbiyachining dunyoqarashi uning muomalasida namoyon bo'ladi. Muomalaning asosiy vositasi – tildir. Xalqimizda shunday naql bor „Bola – shirin so'zning gadosi». Shunday ekan tarbiyachi muomala jarayonida juda ehtiyotkor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahorati haqida shunday deydi: „Shirin so'z ko'ngillar uchun bamisoli asaldir”.

Shuning uchun ham o'qituvchi har on nutq madaniyatiga qattiq e'tibor berishi, o'zining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jihatlarini namuna holatda namoyon etishi muhim. O'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatida avvalo to'g'ri so'z bo'lishi, ishlarni adolat bilan olib borishi kerak. Bu xislat tarbiyachi bilan o'quvchi o'rtasida yaqinlikni oshiradi, chunki adolat insonlar xulqini baholovchi muhim mezondir.

Hazrat Alisher Navoiy aytganidek: „Loaqaqal bir harf o'rgatgan ustozning haqqini yuz ming ganj-u xazina bilan ham uzib bo'lmaydi”. Biz ulardan umrbod qarzdormiz.

Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar, mudarrislar va ustoz-murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. U nodon mutassib johil domlarni tanqid etadi va o'qituvchi ma'lumotli, o'qitish yo'llarini biladigan muallim bo'lishi zarur, deydi. Masalan, „Mahbub ul-qulub” asarida maktabdorlar haqida fikr yuritar ekan, ularni o'ta qattiqqo'l, johil va ta'magirliklarini qoralaydi. Darhaqiqat, johil muallimlar gunohsiz yosh bolalarga javo qiluvchidir. U yosh bolalarning azoblashga, kaltaklashga o'rgangan, g'azabli qoshi chimirilgan gunohsizlar bilan achchiqlanishga odatlangan. Ularning ko'pchiligida ko'ngil qattiqligi va ta'b xastaligi oshkor. Buning ustiga ular aql kamligiga ham giriftor. Ular qiynash yo'li bilan bolalar ko'nglini o'zlariga rom qilmoqchi va kichkintoylarning beqaror tabiatini do'q-po'pisa bilan tartibga solmoqchi bo'ladilar. Ulardagi ko'rinib turgan qo'pollik, yosh bolalardagi kelishmagan xatti-harakatni silliqlashga yirik egovdir. Ular ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev qila olmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qiladi. Lekin ustoz bolaga ilm va odob o'rgatadi. Darhaqiqat, muallim bu kabi hollarda yuzlab mashaqqat chekadi. Shu jihatdan olganda bolalarda uning haqi ko'p, agar shogird ulg'aygach podshohlik martabasiga erishsa ham o'z muallimiga qulluq qilsa arziydi.

Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab o'tadi: „Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima yetsin.

SHunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir.

Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimini va ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U „Bilim va donishmandlik insonning bezagidir”, deb yozadi.

A. Navoiy farzand tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, tarbiyalanuvchini „hayot chirog'i» deb ta'riflaydi. Farzand oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Uning fikricha, shaxsga kichik yoshligidanoq bilim, ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib, o'g'il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyachiga, muallimga berish lozim, deb hisoblaydi.

SHuningdek, Navoiy hayotda o'z ilmiga amal qilish, o'rganganlarini hayotga tadbiiq etish masalasiga alohida e'tibor beradi. Masalan, u „Mahbub ul-qulub” asarida ilm o'qib uni ishlatmagan kishi, shudgor qilib dehqonchilik qilmagan yoki urug' sohib hosildan bahra olmagan o'xshaydi, deydi.

Ilm o'qib qilmagan amal maqbul,
Dona sohib ko'tarmadi mahsul.

Olim bilim olishda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi. Bunda u olim-u fozillarni yig'ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e'tibor beradi.

Alisher Navoiyning fikricha, bilimlarni tinmay uzluksiz o'rganish zarur, bunda har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan kurash, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan o'rganishni ta'kidlaydi.

Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o'z davrida to'g'ri ifodalab, hatto ta'lim tizimini

belgilab beradi: ya'ni Alisher Navoiy ta'lim tizimini o'z davrida o'quv muassasasi, madrasalarda o'qish, olim, hunarmand, san'atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Alloma yoshlarga chuqur bilim berishda muallimning, mudarrislar, hamda ustoz murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. Bunday muallimlar shogirdlarni yonida yuzlari yorug' bo'lib, doimo izzatda, hurmatda bo'ladilar, deb ta'kidlaydi.

SHunday qilib biz Alisher Navoiyni pedagog-mudarris deb atashimiz mumkin. Chunki, ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatib o'tadi. U ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olgan buyuk pedagogdir.

Chunki boqiy hayotga intilgan Navoiy fikricha, dono inson o'zining kuch-quvvatiga aql-u zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong'ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan olim sifatida ta'riflaydi. Bu fikrni „Nazm ul- javohir“ asarida:

Kim olim esa nuqtada barhak de oni,
Gap bazm tuzar bihishti mutlah de oni,
Har kimsaki yo'q ilmga anga ahmoq de oni,
Majlisdaki ilm bo'lsa uchmas de oni.

Yoki ilmli, aqlli odam o'z maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchilikka ham chidaydi, kim ilmni o'ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, xor bo'lmaydi va ilmning vazifasi inson baxt-saodatiga xizmat qilishdir, deb ta'kidlaydi.

Demak, Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlari bilan bir qatorda ta'limiy–axloqiy asarlarida o'zi orzu etgan komil insonga xos axloqiy fazilatlarini deb qanoat, adolat, sahoat, himmat, muruvvat, vafo, to'g'rilik, rostgo'ylik va boshqalarni tushungan, ana shu xislatlar tarkib topgan insonga yomonlik razillik bo'lmasligi, bunday inson yashagan jamiyat ham ravnaq topishi, barcha xalq baxt-saodatga erishish mumkin, deb hisoblagan.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari, uning ta'limiy-axloqiy qarashlari pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Allomaning qarashlari o'zidan oldin o'tgan olimlarning bu boradagi ilg'or ta'limotiga, shuningdek, komil insonni tarbiyalashga oid ana'naviy Sharq xalqlari ta'lim-tarbiya yo'riqlariga asoslanadi.

Alisher Navoiy u ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatadi. U ta'limda ilmiylikka asoslanganlik tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. O'z davridagi musulmon maktablarini yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi.

Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab o'tadi: „Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga o'zlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima yetsin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik 16-jild. Toshkent, Fan 2000. 26-b.
2. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik 14 –tom . T.: „Fan“, 1998, 83 –bet.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh tomlik. 13 tom. – Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. –189-190-betlar

МЕТАФИЗИКА РЕЧИ: СУФИЙСКИЕ ТЕРМИНЫ И ИХ СИМВОЛИКА У НАСИМИ

Х.И.Гейдарова, Институт языкознания имени Насими

Национальной академии наук Азербайджана

Баку, Азербайджан

(E-mail: heyderova73@mail.ru)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1148-8326>

Аннотация. В данной статье рассматривается концепт «речь» (*nitq*) в поэтическом наследии Имадеддина Насими (XIV век) сквозь призму суфийской и хуруфитской философии. Исследование показывает, что понятие речи в творчестве Насими выходит за пределы лингвистического феномена и приобретает сакральное, онтологическое и гностическое значение. Речь трактуется как форма божественного откровения, носитель внутренней истины, средство духовного пробуждения и путь к совершенству. Автор анализирует более 60 терминов, связанных с концептом речи — таких как *söz, kəlam, bayan, nida, səvt, ləb, dodaq, lə'l, ab, şərab, cam, Kövsər* — раскрывая их символическое и аллегорическое содержание. Посредством лексико-семантического, контекстуального и символического анализа выявляется глубокая взаимосвязь между речью и божественным знанием. Особое внимание уделяется синтаксическим конструкциям, через которые поэт выражает идеи вечной жизни, откровения и мистического опьянения. В результате были классифицированы 65 суфийских терминов: 19 — образованных лексически, 46 — синтаксически. Эти элементы формируют уникальную поэтическую систему, в которой слово становится отражением Творца. Кроме того, анализ демонстрирует, что речь у Насими несёт в себе функции не только выражения, но и трансформации — как сознания, так и бытия. Термины, связанные с речью, часто сочетаются с водной символикой, образами вина, чаши, источников рая, что указывает на их причастность к божественной благодати.

Ключевые слова: речь, божественное слово, суфийская терминология, метафора вина, хуруфитская символика.

LEXICAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF THE CONCEPT OF “SPEECH” AND RELATED SUFI TERMS IN THE WORKS OF IMADADDIN NASIMI

Khadija Heydarova, Nasimi Institute of Linguistics

Azerbaijan National Academy of Sciences

Baku, Azerbaijan

(E-mail: heyderova73@mail.ru)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1148-8326>

Abstract. This article examines the concept of “speech” (*nitq*) in the poetic heritage of Imadaddin Nasimi through the lens of Sufi and Hurufi philosophy. The study reveals that the notion of speech in Nasimi’s work transcends a purely linguistic phenomenon and acquires sacred, ontological, and gnostic significance. Speech is interpreted as a form of divine revelation, a bearer of inner truth, a means of spiritual awakening, and a path to perfection. The author analyzes more than 60 terms related to the concept of speech — such as *söz, kəlam, bayan, nida, səvt, ləb, dodaq, lə'l, ab, şərab, cam, and Kövsər* — revealing their symbolic and allegorical content. Through lexical-semantic, contextual, and symbolic analysis, the research identifies a profound relationship between speech and divine knowledge. Particular attention is paid to the syntactic constructions through which the poet expresses ideas of eternal life, revelation, and mystical intoxication. As a result, 65 Sufi terms were classified: 19 formed lexically and 46 syntactically. These elements form a unique poetic system in which the word becomes a reflection of the Creator. Furthermore, the analysis demonstrates that speech in Nasimi's poetry functions not only as a means of expression but also as a tool of transformation — both of consciousness and of being.

Keywords: speech, divine word, Sufi terminology, wine metaphor, Hurufi symbolism.

NUTQ METAFIZIKASI: NASIMIY İJODIDAGI SUFIY TERMINLAR VA ULARNING RAMZIY MA'NOSI

X.I. Geydarova, Nasimiy nomidagi Tilshunoslik instituti,
Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi, Boku, Ozarbayjon
(E-mail: heyderova73@mail.ru)

ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1148-8326>

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIV asr shoiri Imodiddin Nasimiyning she'riy merosida "nutq" (nitq) konsepti sufiylik va hurufiylik falsafasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Nasimiy ijodida nutq tushunchasi sof lingvistik hodisa doirasidan chiqib, muqaddas, ontologik va gnoseologik (ma'rifiy) mazmun kasb etadi. Nutq ilohiy vahiy shakli, ichki haqiqat tashuvchisi, ruhiy uyg'onish vositasi va kamolot yo'li sifatida talqin qilinadi. Muallif nutq konseptiga aloqador 60 dan ortiq terminlarni — masalan, *söz, kəlam, bayan, nida, səvt, ləb, dodaq, lə'l, ab, şərab, cam, Kövsər* — tahlil qilib, ularning ramziy va allegorik ma'nolarini ochib beradi. Leksik-semantik, kontekstual va ramziy tahlil vositasida nutq va ilohiy bilim o'rtasidagi chuqur bog'liqlik aniqlanadi. Shoir abadiy hayot, vahiy va mistik mastlik g'oyalarini ifodalashda qo'llagan sintaktik tuzilmalar alohida e'tiborga loyiq. Tadqiqot davomida 65 ta sufiy termin tasniflangan: ulardan 19 tasi leksik, 46 tasi sintaktik jihatdan shakllangan. Bu elementlar shoirning betakror poetik tizimini shakllantirib, unda so'z Yaratganning in'ikosiga aylanadi. Shuningdek, tahlillar ko'rsatadiki, Nasimiy ijodida nutq faqat ifoda vositasi emas, balki ong va mavjudotni o'zgartiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Nutqqa oid terminlar ko'pincha suv ramzi, sharob, kosa va jannat bulog'i obrazlari bilan birga keladi, bu esa ularning ilohiy marhamatga aloqadorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: nutq, ilohiy so'z, sufiy terminologiyasi, sharob metaforasi, hurufiylik ramzlari.

Введение

Имадеддин Насими (1369-1417) является не только одним из самых ярких представителей азербайджанской суфийской литературы, но и одним из наиболее глубоких поэтических интерпретаторов хуруфийского учения. Его Поэтическое наследие представляет собой уникальное явление в истории азербайджанской и исламской мистической литературы. Несмотря на то, что тема слова, языка и откровения занимает важное место в суфийской и хуруфийской традициях, системное лексико-семантическое исследование терминов, связанных с понятием «речь» у Насими, до настоящего времени оставалось фрагментарным и недостаточно изученным. В его поэзии понятие «речь» рассматривается не просто как средство коммуникации, но как форма проявления божественной истины, инструмент передачи духовного знания и просвещения.

Проблема заключается в необходимости многоуровневого анализа суфийских терминов, употребляемых в контексте речи, а также их аллегорических, символических и философских значений в поэтическом дискурсе Насими. Кроме того, важным аспектом является выявление способов образования этих терминов (лексических, синтаксических), их этимологической природы и роли в формировании поэтической картины мира, в которой слово выступает как проявление божественного начала.

В поэтическом наследии Насими встречается целый ряд суфийских терминов, связанных с понятием речи, которые восходят к понятию «язык птиц» (*мантыку-т-тайр*) — аллегорической лексике суфийской поэзии. Такими лексемами являются: *söz (слово), kəlam (речь), nida (возглас), səvt (звук), bəyan (изложение), dil (язык), su, ab (вода), abi-həyat (вода жизни), lə'l (рубин), ləb, dodaq (зубы), cam (чаша), şərab (вино), dəhan (ром), çeşmə (источник), Kəvsər* и др. Эти термины охватывают широкое семантическое поле.

Поэт активно использует данные термины в составе различных словосочетаний и изафетов, отражающих как внешний (захир), так и внутренний (батин) смысл: *dodağın eyni-abi, dodağın şərbəti, dodağın yarı, dodağı abi-heyvan, dodağın balı, dodağından xəcil halvaçılar, dodağın Kövsəri, dodağın çeşmeyi-heyvan, dodağın Səlsəbil, dodağın çeşmeyi-abi-zülal, ağzı yarı, ağzın yarı, nöqtəyi-ağz, müdəvvər nöqtəyi-ağz, sövtü nitq, ləblərin abi, ləbin eyni, ləbi-lə'l, ləbi-lə'lin şərabı, zülal abi, abi-rəvan, Xızrın abi-heyvanı, abi-Kövsər, ləbi-əhya, ləbi abi-həyat, Kövsərin abi-zülalı, lə'lin ənəbi, lə'li-ləbü dürri-dişi, mey, lamü bey, ləbindir möhbiti-Ruhül-əmin,*

həyati-çəşməyi-heyvan, həyati-Xızr, çəşməyi-abi-rəvan, çəşməyi-heyvanləb, ləbin dövrani, ləbin cövhəri, şakkəri-lə'li-ləb, ləbi-çəşm, ləbin cami-müsəffa, ləblərin çəşməsi, ləbin camı, ləbin mai-təhur, heyvan suyu.

В данной статье представлен лексико-семантический анализ указанных терминов и определяется их роль в поэтике Насими.

Материалы и методы.

В статье использованы материалы "Толковый энциклопедический словарь произведений Насими на родном языке" (Том I) [4], составленный по алфавитному принципу и охватывающий всю лексику поэта.

В ходе исследования были применены следующие методы:

1. Лексико-семантический анализ. Использовался для определения значений лексических единиц, связанных с концептом «речь» (*nitq*) в поэтическом дискурсе Насими. Выявлены как их прямые (денотативные), так и скрытые (коннотативные) значения в суфийском и хуруфийском контексте.

2. Контекстуальный анализ. Применён при интерпретации ключевых терминов в составе конкретных бейтов. Особое внимание уделялось взаимодействию термина с поэтическим окружением и религиозными аллюзиями (Коран, хадисы, суфийская символика).

3. Структурно-морфологический и синтаксический анализ. Позволил классифицировать термины по способу их образования — лексическому, морфологическому и синтаксическому. Это способствовало выявлению языковых моделей, с помощью которых Насими строит систему символов.

4. Символично-аллегорический подход. Применялся при анализе метафор, поэтических образов и символов (*cam, şərab, lə'l, abi-həyat, Kövsər* и др.), используемых Насими для выражения трансцендентных смыслов.

5. Сравнительно-исторический метод. Использовался для сопоставления поэтических формул Насими с суфийской традицией классической литературы (включая труды Кады Бурханеддин, Гюльшени и др.).

6. Количественно-описательный подход. Применён для статистической фиксации и группировки терминов, выявленных в рамках концепта *nitq*. В результате были зафиксированы 65 терминов, из которых 19 образованы лексически, а 46 — синтаксически.

История проблемы

Концепт «речь» в контексте суфийской литературы исследовался в трудах как классических, так и современных востоковедов, религиоведов и филологов. В рамках исламской мистической мысли слово (*кялям*) рассматривалось не только как средство коммуникации, но и как форма божественного откровения, отражение внутренней истины и путь к духовному познанию. Эта идея нашла выражение в трудах таких мыслителей, как Ибн Араби, Мулла Сафра, а также в поэзии Джалаладдина Руми, Фаридаддина Атгара, Хафиза и др.

Хуруфийская доктрина, разработанная Фазлуллахом Наими, внесла радикально новый взгляд на природу речи, языка и букв. В этом учении *слово* и *буква* рассматриваются как основные элементы теофании — проявления Бога в человеке. Эти идеи получили поэтическое выражение в творчестве Имадеддина Насими, который стал одним из самых выдающихся интерпретаторов хуруфизма в художественной форме.

Несмотря на наличие ряда исследований, посвящённых Насими, большинство из них сосредоточены на общих аспектах его поэзии, философии или религиозных взглядах. Однако детальный лексико-семантический анализ терминов, связанных с концептом «*nitq*», и их роль в поэтической системе Насими до сих пор остаётся недостаточно разработанным. Настоящая работа направлена на восполнение этого научного пробела.

Аллегорическая семантика лексем “söz”, “kəlam”, “nida”, “sövt”, “dil”, “bəyan”, “şərhi-bəyan”, “bəyani-kuntə kənz eyləmək”

В суфийской традиции «речь» (nitq) трактуется как форма проявления божественной мудрости, откровенного слова (vəhy), воплощённого в человеческой речи. В Коране слова Аллаха обозначаются термином «*kəlamullah*». Таким образом, речь в суфизме — это не просто способность человека к коммуникации, но и язык Истины (Həqq), зримое воплощение Божественного слова в телесной форме.

С этой точки зрения, творчество Имадеддина Насими представляет собой яркий образец художественного осмысления понятия речи в контексте суфийской поэтики. Поэт не только передаёт философские основы хуруфизма художественным языком, но и раскрывает концепт «речь» через систему различных лексико-семантических символов.

Тропы, такие как метафора и сравнение, широко используемые в суфийской поэзии, наделяются не только физическим, но и метафизическим содержанием. Подобная ассоциативная сеть отражает животворящую силу *Божественного слова* — *калама*.

В поэзии Насими такие выражения, как «söz» (слово), «kəlam» (речь), «nida» (возглас), «sövt» (звук), «dil» (язык), «bəyan» (изложение), «şərhi-bəyan (толкование речи), «bəyani-küntü kənz» (толкование хадиса «Я был сокровищем...») часто ассоциируются с речами Фазлуллаха Наими, его духовным учительством и способностью передавать божественные истины.

Лексемы, сформировавшиеся вокруг концепта «речь» в творчестве Насими, функционируют в поэтических текстах как в денотативном, то есть внешне-объективном значении, так и в коннотативном — эзотерическом и аллегорическом.

